Бош илмий-методик
марказ

**FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI PEDAGOG KADRLARNI QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI OSHIRISH MINTAQAVIY MARKAZI**

## “ZAMONAVIY TA’LIM TIZIMIGA OID INNOVATSYALARNI O‘ZBEKISTON TARIXI FANIGA TADBIQ ETILISHI”

# MODULI BO‘YICHA O‘QUV –USLUBIY MAJMUA

**Usmonov Baxriddin**
**Tarix fanlari doktori, DSc**

**2022**

**Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil 7 dekabrdagi 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi va FarDU Ilmiy kengashining 2021 yil “30” dekabrdagi 5 -sonli qarori bilan tasdiqlangan.**

**Tuzuvchilar:** Tarix fanlari doktori, DSc - **B.A.Usmonov**

**Taqrizchilar:**Tarix fanlari doktori, professor **Isomiddinov M.**

# M U N D A R I J A


| | | |
|---|---|---|
| I. | ISHCHI DASTUR ........................................................................................ | 4 |
| II. | MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI …………………………………………….. | 16 |
| III. | NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI .................................. | 22 |
| IV. | AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI ..................................... | 85 |
| V. | KEYSLAR .......................................................................................... | 99 |
| VI. | GLOSSARIY .......................................................................... | 103 |
| VII. | FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI ............................ | 124 |

# I. ISHCHI O‘QUV DASTURI

## KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son,2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”giPF-5847-sonli Farmonlarihamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamdainnovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdekamaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

## I. Modulning maqsadi va vazifalari

**O‘zbekiston tarixi fanidagi inovatsiyalarni ta’lim tizimiga tadbiq etish modulining maqsadi:**pedagog kadrlarni innovatsion yondoshuvlar asosida o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada loyihalashtirish, sohadagi ilg‘or tajribalar, zamonaviy bilim va malakalarni o‘zlashtirish va amaliyotga joriy etishlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini takomillashtirish, shuningdek ularning ijodiy faolligini rivojlantirishdan iborat.

**O‘zbekiston tarixi fanidagi inovatsiyalarni ta’lim tizimiga tadbiq etish modulining vazifalari:**

- “O‘zbekiston tarixi” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini takomillashtirish va rivojlantirish;

-pedagoglarning ijodiy-innovatsion faollik darajasini oshirish;

-mutaxassislik fanlarini o‘qitish jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali tatbiq etilishini ta’minlash;

-maxsus fanlar sohasidagi o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarini o‘zlashtirish;

“O‘zbekiston tarixi” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarini fan va ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar bilan o‘zaro integratsiyasini ta’minlash.

**Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo‘yiladigan talablar:**

**O‘zbekiston tarixi fanidagi inovatsiyalarni ta’lim tizimiga tadbiq etish** moduli bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

Maxsus fanlar bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

**Tinglovchi:**

O‘zbekiston davlatchiligi tarixini davrlashtirish masalalari;

Respublikani yanada rivojlantirishning strategik yo‘nalishlarini;

- O‘zbekistonda davlat mustaqilligining qo‘lga kiritilishi, huquqiy demokratik davlat va fuqarolik jamiyatini barpo etish, mamlakatni yangilash va modernizatsiya qilishning nazariy va amaliy ta’limoti – tarqqiyotning o‘zbek modeli ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi, bu boradagi yutuqlar, istiqbol rejalari, maqsad va vazifalari **bilishi kerak.**

**Tinglovchi:**

– O‘zbekiston jahon sivilizatsiyasi o‘choqlaridan biri, Vatanimiz naqadar qadimiy va boy tarixga ega ekanini, bu tarixning yaratuvchisi, uning haqiqiy egasi ham shu zaminda yashayotgan xalq ekanini anglab tarixiytafakkurga ega bo‘lish, tarixiy haqiqatni bugungi kun bilan solishtirish, tahlil qila bilish;

- o‘z ona yurtini dunyoda tengsiz, muqaddas Vatan deb bilish va undan

g‘ururlanish hissiga ega bo‘lish va buni o‘zining amaliy ishlarida namoyon etish;

- ajodlarimizning tarixiy merosni o‘qib-o‘rganish **ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.**

**Tinglovchi:**

- tarixiy voqea va hodisalarni taqqoslash orqali ulardan o‘zi, jamiyat uchun muhim xulosalar chiqarish, bugungi erkin va ozod hayotning qadriga yetish;

- jamiyat taraqqiyotida xalqning, siyosiy yo‘lboshchilarning o‘rni va ahamiyati naqadar katta ekanini anglab, ularga haqqoniy baho berish, aksincha turli xavf-xatarlarning bu boradagi zararini tushuntira bera olish, tarixiy misollar asosida ma’rifiy targ‘ibot yuritish, xalqning saviyasini oshirishga intilish;

- tarixiy voqealar va hodisalar bo‘yicha og‘zaki va yozma nutq orqali, adabiy til qoidalari asosida o‘z nuqtai nazarini erkin ifoda etish, ilmiy asoslangan, mustaqil fikriga ega bo‘lish va ularga ongli munosabat bildira olish **malakalariga ega bo‘lishi zarur.**

**Tinglovchi:**

- Mustaqillik yillarida tarix fanida amalga oshirilgan tadqiqotlarda innovatsiya va yangiliklarning amalga oshirilishi va uning ahamiyatini tahlil qila olish kabi **kompetensiyalariga ega bo‘lishi lozim.**

## Modul bo‘yicha soatlar taqsimoti:

| | Modul mavzulari | Tinglovchining o‘quv yuklamasi, soat | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| | | Hammasi | Auditoriya o‘quv yuklamasi | | | | Mustaqil ta’lim |
| | | | Jami | Jumladan | | | |
| | | | | Nazariy | Amaliy mashg‘ulot | Ko‘chma mashg‘ulot | |
| 1. | Xususiy mulkchilikning kelib chiqishi va ilk davlatchiligimiz ildizlari | **2** | **2** | **2** | | | |
| 2. | Markaziy Osiyo qadimgi davr xalqaro madaniy aloqalar tizimiga oid yangi tadqiqotlar | **2** | **2** | **2** | | | |
| 3. | Qadimgi Baqtriya kaviyligi haqida ayrim mulohazalar, ilk yozuvlar tarixi va ularning o‘rganilishi | **2** | **2** | | **2** | | |
| 4. | Turk xoqonligi davlatining O‘zbekiston davlatchiligida tutgan o‘rni masalasi | **2** | **2** | | **2** | | |
| 5. | Markaziy Osiyoga Arab xalifaligi bosqini | **2** | **2** | | **2** | | |
| 6. | IX-XII asrlar O‘zbekiston hududida sulolalar boshqaruvi | **2** | **2** | | **2** | | |
| 7. | Amir Temur va Temuriylar davlatchiligining jahon tarixiga tutgan o‘rni | **2** | **2** | **2** | | | |
| 8. | So‘ngi O‘rta asrlar davrida o‘zbek xonliklari davlatchiligining o‘ziga xos xususiyatlari | **2** | **2** | **2** | | | |
| 9 | O‘zbekistonning sovet davri tarixining tarixshunosligidagi yangicha yondoshuv va tahlillar | **2** | **2** | | **2** | | |
| 10 | Mustaqillik yillari tarixchilar nigohida | **2** | **2** | | **2** | | |
| | **Jami:** | **20** | **20** | **8** | **12** | | |

## NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

### 1-mavzu: Xususiy mulkchilikning kelib chiqishi va ilk davlatchiligimiz ildizlari (2 soat)

**Reja:**

1. Xususiy mulkchilikning kelib chiqishi masalasiga oid tadqiqotlar
2. Ilk davlatchiligimiz ildizlari

### 2-mavzu: Markaziy Osiyo qadimgi davr xalqaro madaniy aloqalar tizimiga oid yangi tadqiqotlar (2 soat)

**Reja:**

1. Markaziy Osiyoda madaniy hududiy birliklarning shakllanishi.
2. Madaniy aloqalar tizimining rivojlanib borishi

### 3-mavzu: Amir Temur va Temuriylar davlatchiligining jahon tarixiga tutgan o‘rni (2 soat)

**Reja:**

1. Chig‘atoy ulusi tarixiga oid yangi tadqiqotlar
2. Temuriylar davri tarixiga oid yangi tadqiqotlar

### 4-mavzu: So‘ngi O‘rta asrlar davrida o‘zbek xonliklari davlatchiligining o‘ziga xos xususiyatlari (2 soat)

**Reja:**

1. Shayboniylar va Ashtarxoniylar davri tarixiga oid yangi tadqiqotlar
2. Xonliklar davriga oid yangi tadqiqotlar

## AMALIY MASHG‘ULOTLAR

### 1-mavzu:Qadimgi Baqtriya kaviyligi haqida ayrim mulohazalar, ilk yozuvlar tarixi va ularning o‘rganilishi(2 soat)

**Reja:**

1. Qadimgi Baqtriya kaviyligi haqida ayrim mulohazalar
2. Ilk yozuvlar tarixi va ularning oʻrganilishi

## 2-mavzu Turk xoqonligi davlatining Oʻzbekiston davlatchiligida tutgan oʻrni masalasi (2 soat)

**Reja:**

1. Ilk oʻrta asrlar tarixiga oid tadqiqotlar
2. Turk hoqonligi tarixshunosligi

## 3-mavzu: Markaziy Osiyoga Arab xalifaligi bosqini (2 soat)

**Reja**

1. Arab xalifaligi tarixiga oid yangi tadqiqotlar
2. Markaziy Osiyoda arab xalifaligi masalasi

## 4- mavzu:IX-XII asrlar Oʻzbekiston hududida sulolalar boshqaruvi (2 soat)

**Reja**

1. Siyosiy tarixga oid tadqiqotlar
2. Iqtisodiy va madaniy tarix masalalaring yoritilishi

## 5 – mavzu:Oʻzbekistonning sovet davri tarixining tarixshunosligidagi yangicha yondoshuv va tahlillar (2 soat)

**Reja**

1. Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davriga oid yangi tadqiqotlar
2. Sovet davri tarixining tarixshunosligi

## 6 – mavzu. Mustaqilik yillari tarixchilar nigohida (2 soat)

**Reja**

1. Mustaqillikning qoʻlga kiritilishi tarixining oʻrganilishi
2. Iqtisodiy va madaniy taraqqiyot masalalarining yoritilishi

# ADABIYOTLAR RO‘YXATI

## I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.

4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.

5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

## II. Normativ-huquqiy hujjatlar

6. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.

7. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni.

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-4732-sonli Farmoni.

9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.

10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli Qarori.

11. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi 2018 yil 21 sentabrdagi PF-5544-sonli Farmoni.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi

“O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.

14. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

15. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

16. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagidagi“Qadimiyyozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2995-sonli Qarori.

17. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 dekabrdagi “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4068-sonli Qarori.

**III. Maxsus adabiyotlar**

18. Allison S. (Ed.). History of Europe: Series B: Middle ages. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 1243 p.

19. Allison S. (Ed.). History of Europe: Series S: New Era. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 1243 p.

20. Avery P. The Cambridge History of Iran. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 871 p.

21. Bayly S. The Cambridge History of India. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 1093 p.

22. Bose S. The New Cambridge History of Asia. – Cambridge: Cambridge University Press, 2 part. 2020. – 2062 p.

23. Brundage A. Going to the Sources: A Guide to Historical Research and Writing. – Oxford: John Wiley & Sons, 2017.

24. Bunch B.,Hellemans A. The history of science and technology. – Boston – New York, 2004.

25. Burton A. (Ed.). History of the world from ancient to modern times: Europe.– Cambridge: Harvard University Press, 2019. – 1487 p.

26. Burton A. (Ed.). History of the world from ancient to modern times: North and South America.– Cambridge: Harvard University Press, 2019.– 1084 p.

27. Collins R. The Arab Conquest of Spain, 710–797. – Oxford: Blackwell Publishing, 2018.

28. David Spencer "Gateway", Students book, Macmillan 2012.

29. English for academics. Cambridge University Press and British Council Russia, 2014. Vook 1,2.

30. Grant E.A Source Book in Medieval Science. – Cambridge: Harvard University Press, 2016. – 587 p. (Reprint).

31. H.Q. Mitchell, MarileniMalkogianni "PIONEER", B1, B2, MM Publiciations. 2015. 191.

32. Haskins C. H. Studies in the History of Mediaeval Science. – New York: Frederick Ungar Publishing, 2019. (Reprint).

33. Haskins C. H. The Renaissance of the Twelfth Century.– Cambridge: Harvard University Press, 2018. (Reprint).

34. Huntington S.P. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. – New York: Simon and Schuster, 2017. – 358 p.

35. Mahmudov O. The beginning of the European renaissance // International Journal of Research and Development. 2020. – Vol. 5 (7). Pp. 104-108. DOI: https://doi.org/10.36713/epra4787

36. Makhmudov O.V. The Toledo School – early center of investigation of the works Central Asian scholars in the Europe. – Saarbrucken: Lambert Academic Publishing, 2017.– p. 193.

37. Natalie Denmeade. Gamification with Moodle. Packt Publishing - ebooksAccoun 2015. - 134 pp.

38. Roberts J.M., Westad O.A. The History of the World. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 1260 p.

39. Sarton G. Introduction to the History of Science. – Vol. 1. From Homer to Omar Khayyam. – Oxford: John Wiley & Sons, 2019. (Reprint).

40. Sarton G. Introduction to the History of Science. – Vol. 2. From Rabbi ben Ezra to Roger Bacon, Parts I-II. – Baltimore: Carnegie Institution of Washington, 2020. (Reprint).

41. Starr F. Lost Enlightenment: Central Asia's Golden Age from the Arab Conquest to Tamerlane. – Princeton: Princeton University Press, 2015.

42. Watt W. M. The influence of Islam on medieval Europe. (Islamic Surveys 9). – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2020. (Reprint).

43. William Rice. Moodle E-Learning Course Development - Third Edition. Packt Publishing - ebooks Account; 3 editions 2015. - 350 pp.

44. Aydin Arif ogli A. Xroniki musulmanskix gosudarstv I – VII vekov xidjri. – Moskva: Umma, 2018. – 448 s.

45. Alimova D.A. Istoriya kak istoriya, istoriya kak nauka. T. I. Istoriya i istoricheskoye soznaniye. – T.: Uzbekiston, 2008.

46. Belogurov A.Y. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshestva: Monografiya. — M.: MAKS Press, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.

47. Bolshakov O. G. Istoriya Xalifata. – T. 4. Apogey i padeniye arabskogo Xalifata. – Moskva: Vostochnaya literatura, 2018. – 368 s.

48. Gabrielyan S. I. Istoriya stran Azii i Afriki v novoye vremya. – Tashkent, 2012.

49. Gulobod Qudratulloh qizi, R.Ishmuhamedov, M.Normuhammedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: "Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi" nashriyoti, 2019. 312 b.

50. Yevropa mamlakalariva AQSH 1640–1918 yillarda. /A.Xolliyevtahririostida.–Toshkent: Universitet, 2010.

51. Ibraymov A.YE. Masofaviy o‘qitishning didaktik tizimi. metodik qo‘llanma/ tuzuvchi. A.YE.Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.

52. Istoriya noveyshego vremeni stran Yevropi i Ameriki v 1945 – 2000 gg. / pod red. YE.Yazikova. – Moskva: Nauka, 2015.

53. Istoriya noveyshego vremeni stran Yevropi i Ameriki v 1945 – 2000 gg. II chast / pod red. N.A.Rodriges. – Moskva: Nauka, 2014.

54. Istoriya srednix vekov. / pod red. S.P.Karpova. – 1-2 ch. – Moskva: MGU, 2018.

55. Mommzen T. Istoriya Rima. – M.: Litres, 2020. – 591 s.

56. Muslimov N.Ava boshqalar. Innovatsion ta’lim texnologiyalari. O‘quv-metodik qo‘llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.

57. Nemirovskiy A., Nikishin V., Ladinin I., Novikov S. Istoriya drevnego mira. Vostok, Gretsiya, Rim. – M.: Litres, 2020. – 786 s.

58. Problemi istorii i mejdissiplinarnogo sinteza.– M.: Litres, 2019.– 561 s.

59. Rtveladze E.V. Istoriya gosudarstvennosti Uzbekistana. – Toshkent: Uzbekistan, 2009.

60. Rusina Y.A. Metodologiya istochnikovedeniya. – Yekaterinburg, 2015.

61. Xoliqulova X. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda imkoniyati cheklangan shaxslarni himoya qilish siyosati. – Toshkent. Mumtoz so’z, 2017.

62. Sheypak A. Istoriya nauki i texniki. – M.: Litres, 2020. – 513 s.

## IV. Internet saytlar

63. O`zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi: www.edu.uz.

64. Bosh ilmiy-metodik markaz: www.bimm.uz

65. www. Ziyonet. uz

66. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining rasmiy sayti: www.gov.uz

67. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining rasmiy sayti: http://www.edu.uz/modules/ wfchannel
68. “Xalq so‘zi” gazetasi – wwwinfo XS. Uz.
69. “Turkiston” gazetasi – wwwturkistonsarkor. uz.
70. “Ma’rifat” jurnali – wwwma’rifat – inform.
71. “Jamiyat va boshqaruv” jurnali – wwwrzultacademyfreenetuz.
72. “Moziydan sado” jurnali – www moziy dostlink. Net

# II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni o‘zlashtirilishini yengillashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun “Ochiq” savollar tuzish va ularga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**

1. Ushbu metodni qo‘llash uchun, oddiy kub kerak bo‘ladi.

Kubning har bir tomonida qo‘yidagi so‘zlar yoziladi:

- Sanab bering, ta’rif bering(oddiy savol)
- Nima uchun (sabab-oqibatni aniqlashtirovchi savol)
- Tushintirib bering (muammoni har tomonlama qarash savoli)
- Taklif bering (amaliyot bilan bog‘liq savol)
- Misol keltiring (ijodkorlikni rivojlantirovchi savol)
- Fikr bering(tahlil qilish va baholash savoli)

2. O‘qituvchi mavzuni belgilab beradi.
3. O‘qituvchi kubikni stolga tashlaydi. Qaysi so‘z chiqsa, unga tegishli savolni beradi.

**“KWHL” metodi**

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni tizimlashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

Izoh. KWHL:

Know – nimalarni bilaman?

Want – nimani bilishni xohlayman?

How - qanday bilib olsam bo‘ladi?

Learn - nimani o‘rganib oldim?

| “KWHL” metodi | |
|---|---|
| - ***Nimalarni bilaman:***<br>- | ***Nimalarni bilishnixohlayman, nimalarni bilishim kerak:*** |
| ***Qanday qilib bilib va topib olaman:*** | - ***Nimalarni bilib oldim:*** |

**“W1H”metodi**

**Metodning maqsadi:** Mazkur metod tinglovchilarda yangi axborotlar tizimini qabul qilish va bilimlarni tizimlashtirish maqsadida qo‘llaniladi, shuningdek, bu metod tinglovchilar uchun mavzu bo‘yicha qo‘yidagi jadvalda berilgan oltita savollarga javob topish mashqi vazifasini belgilaydi.

| | | |
|---|---|---|
| What? | Nima?<br>(ta’rifi, mazmuni, nima uchun ishlatiladi) | |
| Where? | Qayerda (joylashgan, qayerdan olish mukin)? | |
| What kind? | Qanday? (parametrlari, turlari mavjud) | |
| When? | Qachon? (ishlatiladi) | |
| Why? | Nima uchun?<br>(ishlatiladi) | |
| How? | Qanday qilib? (yaratiladi, saqlanadi, to‘ldiriladi, tahrirlash mumkin) | |

**“SWOT-tahlil” metodi.**

**Metodning maqsadi:** mavjud nazariy bilimlar va amaliy tajribalarni tahlil qilish, taqqoslash orqali muammoni hal etish yo‘llarni topishga, bilimlarni mustahkamlash, takrorlash, baholashga, mustaqil, tanqidiy fikrlashni, nostandart tafakkurni shakllantirishga xizmat qiladi.

| | |
|---|---|
| **S – (strength)** | • кучли томонлари |
| **W – (weakness)** | • заиф, кучсиз томонлари |
| **O – (opportunity)** | • имкониятлари |
| **T – (threat)** | • хавфлар |

**“VEYER” metodi**

**Metodning maqsadi:** Bumetod murakkab, ko‘ptarmoqli, mumkin qadar, muammoli xarakteridagi mavzularni o‘rganishga qaratilgan. Metodning mohiyati shundan iboratki, bunda mavzuning turli tarmoqlari bo‘yicha bir xil axborot beriladi va ayni paytda, ularning har biri alohida aspektlarda muhokama etiladi. Masalan, muammo ijobiy va salbiy tomonlari, afzallik, fazilat va kamchiliklari, foyda va zararlari bo‘yicha o‘rganiladi. Bu interfaol metod tanqidiy, tahliliy, aniq mantiqiy fikrlashni muvaffaqiyatli rivojlantirishga hamda o‘quvchilarning mustaqil g‘oyalari, fikrlarini yozma va og‘zaki shaklda tizimli bayon etish, himoya qilishga imkoniyat yaratadi. “Veyer”metodidan ma’ruza mashg‘ulotlarida individual va juftliklardagi ish shaklida,amaliy vaseminar mashg‘ulotlarida kichik guruhlardagi ish shaklida mavzu yuzasidan bilimlarni mustahkamlash, tahlili qilish va taqqoslash maqsadida foydalanish mumkin.

**Metodni amalga oshirish tartibi:**



trener-o‘qituvchi ishtirokchilarni 5-6 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi;



trening maqsadi, shartlari va tartibi bilan ishtirokchilarni tanishtirgach, har bir guruhga umumiy muammonitahlil qilinishi zarur bo‘lgan qismlari tushirilgan tarqatma materiallarni tarqatadi;



har bir guruh o‘ziga berilgan muammoni atroflicha tahlil qilib, o‘z mulohazalarini tavsiya etilayotgan sxema bo‘yicha tarqatmaga yozma bayon qiladi;



navbatdagi bosqichda barcha guruhlar o‘z taqdimotlarini o‘tkazadilar. Shundan so‘ng, trener tomonidan tahlillar umumlashtiriladi, zaruriy axborotlr bilan to‘ldiriladi va mavzu yakunlanadi.

| **Muammoli savol** | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|
| **1-usul** | | **2-usul** | | **3-usul** | |
| afzalligi | kamchiligi | afzalligi | kamchiligi | afzalligi | kamchiligi |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| | | | | | |
| **Xulosa:** | | | | | |

## “Keys-stadi” metodi

**«Keys-stadi»** - inglizcha so‘z bo‘lib, («case» – aniq vaziyat, hodisa, «stadi» – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish,tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi.Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan.Keysdaochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin.

## “Keys metodi” niamalga oshirish bosqichlari

| Ishbosqichlari | Faoliyat shakliva mazmuni |
|---|---|
| **1-bosqich:** Keys va uning axborot ta’minoti bilan tanishtirish | ✓ yakka tartibdagi audio-vizual ish;<br>✓ keys bilan tanishish(matnli, audio yoki media shaklda);<br>✓ axborotni umumlashtirish;<br>✓ axborot tahlili;<br>✓ muammolarni aniqlash |
| **2-bosqich:** Keysni aniqlashtirish va o‘quvtopshirig‘ni belgilash | ✓ individual va guruhda ishlash;<br>✓ muammolarnidolzarblik iyerarxiyasini aniqlash;<br>✓ asosiy muammoli vaziyatni belgilash |
| **3-bosqich:** Keysdagi asosiy muammoni tahlil etish orqali o‘quv topshirig‘iningechimini izlash, hal etish yo‘llarini ishlab chiqish | ✓ individual va guruhda ishlash;<br>✓ muqobil yechim yo‘llarini ishlab chiqish;<br>✓ har bir yechimning imkoniyatlari va to‘siqlarni tahlil qilish;<br>✓ muqobil yechimlarni tanlash |
| **4-bosqich:** Keys yechiminiyechimini shakllantirish va asoslash, taqdimot. | ✓ yakka va guruhda ishlash;<br>✓ muqobil variantlarni amalda qo‘llash imkoniyatlarini asoslash;<br>✓ ijodiy-loyiha taqdimotini tayyorlash;<br>✓ yakuniy xulosa va vaziyat yechimining amaliy aspektlarini yoritish |

## “Assesment”metodi

**Metodning maqsadi:** mazkur metod ta’lim oluvchilarning bilim darajasinibaholash, nazorat qilish, o‘zlashtirish ko‘rsatkichi va amaliy ko‘nikmalarini tekshirishga yo‘naltirilgan.Mazkur texnika orqali ta’lim oluvchilarningbilishfaoliyati turliyo‘nalishlar (test, amaliy ko‘nikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) bo‘yicha tashhis qilinadi va baholanadi.

### Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment”lardanma’ruza mashg‘ulotlarida talabalarning yoki qatnashchilarning mavjud bilim darajasini o‘rganishda, yangi ma’lumotlarni bayon qilishda, seminar,amaliy mashg‘ulotlarda esa mavzu yoki ma’lumotlarni o‘zlashtirish darajasini baholash, shuningdek, o‘z-o‘zini baholash maqsadida individual shakldafoydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, o‘qituvchining ijodiy yondashuvi hamda o‘quv maqsadlaridan kelib chiqib,assesmentga qo‘shimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

Har bir katakdagi to‘g‘ri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.

### “Insert”metodi



**Test**

**Muammoli vaziyat**

**Tushuncha tahlili (simptom)**

**Amaliy vazifa**

### Metodni amalga oshirish tartibi:

- o‘qituvchi mashg‘ulotga qadar mavzuning asosiy tushunchalari mazmuni yoritilgan matnni tarqatma yoki taqdimot ko‘rinishida tayyorlaydi;
- yangimavzumohiyatini yorituvchi matn ta’lim oluvchilargatarqatiladi yoki taqdimot ko‘rinishida namoyishetiladi;
- ta’lim oluvchilar individual tarzda matn bilan tanishib chiqib, o‘z shaxsiy qarashlarini maxsus belgilar orqali ifodalaydilar. Matn bilan ishlashda talabalar yoki qatnashchilarga quyidagi maxsus belgilardan foydalanish tavsiya etiladi:

| Belgilar | Matn |
|---|---|
| “V” – tanish ma’lumot. | |
| “?” – mazkur ma’lumotni tushunmadim, izoh kerak. | |
| “+”bu ma’lumot men uchun yangilik. | |
| “– ” bu fikr yoki mazkur ma’lumotga qarshiman? | |

`Belgilangan vaqt yakunlangach,ta’lim oluvchilar uchun notanish va tushunarsiz bo‘lgan ma’lumotlar o‘qituvchi tomonidan tahlil qilinib, izohlanadi,ularning mohiyati to‘liq yoritiladi. Savollarga javob beriladi va mashg‘ulot yakunlanadi.

III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

## 1-mavzu: Xususiy mulkchilikning kelib chiqishi va ilk davlatchiligimiz ildizlari (2 soat)

**Reja:**

1. Xususiy mulkchilikning kelib chiqishi masalasiga oid tadqiqotlar
2. Ilk davlatchiligimiz ildizlari

**Tayanch so‘z va iboralar:** Ibtidoiy jamoa tuzumi, matriarxat, paleolit, ishlab chiqaruvchi xo‘jalik, mulk, davlatchilik, boshqaruv

### Xususiy mulkchilikning kelib chiqishi masalasiga oid tadqiqotlar

Yaqin yillarga qadar O‘zbekiston hududlari eng qadimgi odamlar tomonidan 100 ming yillar ilgari o‘zlashtirilgan deb hisoblanib kelinar edi. Ko‘pchilik tadqiqotchilar O‘rta Osiyo paleoliti haqidagi bahslarda bu jarayonni asosan Yevropa paleoliti bilan bog‘lab kelar edilar. Ammo so‘nggi yillarda O‘zbekiston arxeologlari tomonidan olib borilgan ko‘pgina tadqiqotlar bu masalaga ancha oydinlik kiritdi.

O‘tgan asrning 80-yillarida arxeolog O‘.Islomov boshchiligidagi tadqiqotchilar Farg‘ona vodiysidagi Selung‘ur (So‘x tumani) g‘oridan paleolit davri makonini ochishga muvaffaq bo‘ldilar. So‘nggi tadqiqotlar natijalariga qaraganda Selungur ilk paleolit davriga oid bo‘lib, o‘n uchta madaniy qatlamdan iborat. Bu qatlamlardan juda ko‘plab ibtidoiy tosh qurollar topilgan. Bu qurollar ko‘p hollarda Olduvoy qurollariga o‘xshab ketadi. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, Selungur topilmalarining yoshi 1 mln. yildan ziyodroqdir. Selungur topilmalari orasidan eng ahamiyatlisi qadimgi odam jag‘ suyaklari, tishlari va elka suyaklaridir. Fanda «Farg‘ona odami»-»Fergantrop» deb nomlangan bu qazilma odam qoldiqlari eng qadimgi odam haqidagi tasavvurlarimizni yanada kengaytirish bilan birga O‘rta Osiyo, xususan O‘zbekistonning insoniyat paydo bo‘lib rivojlangan o‘choqlardan biri ekanligini uzil-kesil isbotlaydi. Ibtidoiy tuzum taraqqiyoti urug‘-urug‘ jamoasi – hududiy qo‘shnichilik jamoasi –qabila –

qabilalar ittifoqi, davlat kabi tartibda berilgan

Undan tashqari Ko‘lbuloq makonidan (Shimoli-sharqiy O‘zbekiston, Toshkent vil.) ham ko‘p qatlamli yodgorlik ochilgan bo‘lib, uning eng pastki qatlamlari ilk paleolit davriga oiddir. Shuningdek, Qizilolmasoy va Toshsoy (Ohangaron) makonlaridan ham ilk paleolit qatlamlari ochilgan hamda bu erdan 100dan ziyod chopper, nukleus, qirg‘ich va tarashlag‘ich tosh qurollar topilgan. Ilk alfavitli yozuv mil.avv. 1100-yilda Iroqda .g‘arbiy semit qabilalaridan biri oromiylarda paydo bo‘lgan.

Ilk paleolit (Ashel madaniyati) davri eng qadimgi odamlarning makonlaridagi topilmalarida sodda va qo‘pol tosh qurollar ko‘pchilikni tashkil etadi. Bu davr kishilarining qurollari o‘zining soddaligi, qo‘polligi, turlarining kamligi jihatdan keyingi davrlardan keskin farqlanadi. Ilk paleolit davri odamlari jismoniy jihatdan ham, aqliy jihatdan ham hozirgi qiyofadagi aql-idrokli odamlardan ajralib turadilar. Ular asosan termachilik va ovchilik bilan tirikchilik o‘tkazganlar hamda tabiat oldida juda ojiz bo‘lib, unda mavjud bo‘lgan tayyor mahsulotlarni o‘zlashtirib yashaganlar. Ular na diniy tushunchani, na hunarmandchilikni va na chorvachilikni bilganlar.

**O‘rta paleolit** (Muste madaniyati) - qadimgi tosh asrining muhim va ajralmas qismi hisoblanadi. Bu davrga oid dastlabki yodgorlik **Teshiktosh** (Surxondaryo) g‘or makoni 1938-yilda A.Okladnikov tomonidan ochilgan edi. Keyinchalik O‘rta Osiyo hududlarida tadqiqotchilar tomonidan o‘rta paleolit davriga oid ko‘plab makonlar aniqlandi va ularda tadqiqot ishlari olib borildi. Omonqo‘ton (Taxtaqoracha dovoni, Samarqand), Qo‘tirbuloq va Zirabuloq (Zarafshon vodiysi), Qorabura (Vaxsh vohasi), Jarqo‘rg‘on (Shimoliy Tojikiston), Obirahmat (Toshkent viloyati), Ko‘lbuloqning yuqori qatlamlari (Toshkent viloyati), Qizilnur (Qizilqum), Tossor (Qirg‘iziston), Og‘zikichik (Tojikiston), Xo‘jakent (Toshkent viloyati), Qopchig‘ay (Qirg‘iziston) kabi ko‘plab makonlar o‘rta paleolit davriga oid bo‘lib, ularning jami 300 ga yaqinlashib qoladi. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, O‘rta Osiyo hududlarida o‘rta paleolit nisbiy tarzda mil. avv. 100-40 ming yilliklarni o‘z ichiga oladi.

Surxon vohasidagi (Boysuntog‘) Teshiktosh g‘or-makoni topilmalari nafaqat O‘zbekiston, balki butun dunyo arxeologiya fanida mashhurdir. O‘rta paleolit davriga mansub bu g‘or-makon shimoli sharqqa qaragan bo‘lib, kengligi 20 m, balandligi 9 m, chuqurligi 21 m. Tadqiqotlar natijasida g‘or-makondan beshta madaniy qatlam aniqlanib, bu qatlamlardan 3000 ga yaqin tosh qurollar topilgan. Undan tashqari turli hayvonlar: qoplon, yovvoyi ot, eshak, quyon va turli qushlarning suyak qoldiqlari aniqlangan. Tosh qurollar orasida qirg‘ich-tarashlag‘ichlar alohida o‘rin egallab, ularning ba’zilari kesgich qurol vazifasida ishlatilgan bo‘lishi ham mumkin.

Eng muhimi shundaki, Teshiktosh g‘or-makonining yuqori qatlamlaridan 9 yashar bolaning skelet suyaklari topilgan. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, bu bola neandertal tipidagi qadimgi odam vakilidir. Bu bola dafn etilganda ibtidoiy dafn marosimlariga amal qilinib, jasad atrofiga tog‘ echkisi shoxlari qadab qo‘yilgan. Shuningdek, g‘or-makondan gulxan izlari va kul qoldiqlari topilib, gulxan o‘rni va atroflaridan tog‘ echkisi suyak qoldiqlari aniqlangan Teshiktosh odami O‘rta Osiyodagi neandertal qiyofadagi qadimgi odamlarning yagona vakili bo‘lib, bu hududlardan hozirgacha boshqa topilmagan.

Toshkent viloyatidagi Obirahmat makoni Tyanshan-Chotqol tizmasidagi Paltov soyining yuqori oqimidan topilgan. G‘or-makon yoysimon shaklda bo‘lib, janubga qaragan, sahni keng, quruq va yorug‘. G‘orda 10 metr qalinlikdagi 21 ta madaniy qatlam aniqlangan bo‘lib, ushbu qatlamlar qadimgi odamlar bu erda uzoq vaqt yashaganlaridan dalolat beradi. Madaniy qatlamlardan ohak toshli chaqmoq toshdan yasalgan xilma-xil mehnat qurollari, jumladan, nukleuslar, parrakchalar, o‘tkir uchli sixchalar, qirg‘ichlar va kurakchalar, uchrindidan tayyorlangan kesgichlar topilgan bo‘lib, ularning umumiy soni 30 mingdan oshadi. Shuningdek, Obirahmatdan hayvon suyaklaridan yasalgan bigizlar hamda bug‘u, tog‘ echkisi, to‘ng‘iz, jayron, arxar va boshqa hayvonlarning suyaklari, gulxan, kul, ko‘mir va boshqa narsalar qoldiqlari ham topilgan. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, Obirahmatda qadimgi odamlar miloddan 12040 ming yil ilgari yashab terib-termachilik va yovvoyi hayvonlarni ovlab tirikchilik qilganlar.

Topilmalari bilan mashhur bo‘lgan Qo‘tirbuloq makoni Samarqand viloyati Kattaqo‘rg‘on hududlaridan topilgan. Tadqiqotlar natijasida makondan 5 ta madaniy qatlam aniqlangan. Qatlamlarning qalinligi har xil bo‘lib, ulardagi topilmalar ham bir xilda tarqalmagan. Bu qatlamlarda o‘tkir uchli poykonlar, qirg‘ichlar, teshgichlar, ikki tomoniga ishlov berilgan bargsimon qurollar va boshqa turli-tuman tosh qurollar topilgan. Shuningdek, ko‘plab yovvoyi hayvonlar - fil, bug‘u, yovvoyi ot, quyon kabilarning suyaklari aniqlangan. Qo‘tirbuloqda yashagan qadimgi odamlar mevalar va o‘simlik ildizlari hamda yovvoyi hayvonlarni ovlab turmush tarzi yuritganlar.

O‘rta paleolit davriga kelib qadimgi odamlar O‘rta Osiyoning keng hududlariga tarqala boshlaydilar. Bu davrda, ayniqsa uning so‘nggi bosqichida qadimgi odamlarning turmush tarzida va mehnat qurollarida yangi unsurlar paydo bo‘ladi. Qurollarning turlari ko‘payadi. Ayniqsa, ovchilik bilan bog‘liq bo‘lgan nayzasimon o‘tkir paykonlar, turli pichoqlar, qirg‘ichlar, kesgichlar shular jumlasidandir. Bu davrning ijtimoiy hayotdagi eng muhim xususiyati shundaki, bu davrda ibtidoiy to‘dadan urug‘chilik jamoasiga o‘tila boshlandi. Hozirgi zamon odamlariga o‘xshash odamlar (kromanyon) paydo bo‘lishi uchun zamin hozirlandi.

Bu shart-sharoitlarning negizida mehnat qilish bilan bevosita bog‘liq mehnat qurollarining takomillashuvi va shu asosda o‘sha davr kishilarining xo‘jalik hayotidagi dastlabki olg‘a siljishlar yotadi. Demak, bu davr - ishlab chiqarish bilan bog‘liq bo‘lgan qurollar takomillashayotgan, nutq madaniyati o‘sib borib, fikrlash nisbatan ancha oshgan, olov sun’iy tarzda yaratila boshlangan, ovchilik ancha rivojlanib, keng hududlarga tarqalgan davr edi.

O‘rta paleolit davri O‘rta Osiyo hududlarida tabiiy iqlim o‘ziga xos bo‘lib, yozda ob-havo iliq va quruq, qishda esa sovuq va namgarchilik bo‘lgan. Bu davrning o‘rtalari va oxirlariga kelib shimoldan ulkan muzlikning siljib kelishi natijasida iqlim tamoman o‘zgaradi. Natijada qadimgi odamlar turmush tarzida katta o‘zgarishlar bo‘lib o‘tdi. Sovuq iqlim tufayli odamlar ko‘proq g‘orlarga joylasha boshlaydilar. Janubdagi kichik tuyoqli issiqsevar hayvonlar qirilib ketib shimol bug‘ulari, mamontlar, ulkan ayiqlar paydo bo‘ladi. Ulkan hayvonlarning

paydo bo‘lishi esa o‘z navbatida jamoa bo‘lib ovchilik qilishning paydo bo‘lishiga olib keldi.

Undan tashqari sovuq iqlim tufayli o‘rta paleolit davri odamlari **olovni kashf etdilar** hamda sun’iy olov chiqarish va uni saqlashni o‘zlashtirdilar. G‘or va ungurlarni o‘zlashtirish, o‘choq yasab uning atrofida to‘planish va nihoyat jamoa bo‘lib ov qilish uslublarining paydo bo‘lishi mintaqamizdagi qadimgi odamlar ijtimoiy-iqtisodiy hayotida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

**So‘nggi paleolit** uzoq davom etgan qadimgi tosh asrining oxirgi bosqichi bo‘lib, nisbiy tarzda mil. avv. 40-12 ming yilliklarni o‘z ichiga oladi. Bu davr yodgorliklari muste madaniyati yodgorliklari madaniyatiga nisbatan kamroq o‘rganilgan. Hozirgi kunga qadar O‘rta Osiyoda bu davrga oid 30 dan ziyod makonlar ochilgan. Samarqand (shaharning o‘zida), Xo‘jag‘or (Farg‘ona vodiysi), Shug‘nov (Pomir etaklari), Ko‘lbuloq (Toshkent viloyati), Qorakamar (Tojikiston), Achisay (Qozog‘iston) yodgorliklari shular jumlasidandir.

Toshkent viloyatida (Ohangaron) joylashgan **Ko‘lbuloq** makonining eng tepadagi uchta qatlami so‘nggi paleolit davriga oiddir. Bu qatlamlardan nisbatan takomillashgan tosh qurollar hamda ko‘plab hayvon suyaklari topilgan. Shuningdek, so‘nggi yillarda Toshkentning g‘arbidagi Bo‘zsuv I makoni ham so‘nggi paleolit davriga oid ekanligi aniqlangan.

Samarqand shahrida 1939-yilda ochilgan yodgorlik mintaqadagi so‘nggi paleolit davriga oid dastlabki makon hisoblanadi. **Samarqand** makoni ko‘p qatlamli bo‘lib bu qatlamlardan ko‘p sonli (7,5 ming) xilma-xil topilmalar topilgan. Ular orasida qirg‘ichlar, kesgichlar, sixchalar, pichoqlar, ushatgichlar, boltalar kabilar bor. Shuningdek, madaniy qatlamlardan gulxan qoldig‘i, ko‘mir parchalari va gulxan atrofidan hayvonlar hamda o‘simliklar qoldiqlari aniqlangan. Bu topilmalar bu erda yashagan kishilarning ovchilik va termachilik bilan shug‘ullanganliklaridan dalolat beradi.

So‘nggi paleolit davriga kelib odamlarning hayoti va turmush tarzida ham turli o‘zgarishlar bo‘lib o‘tadi. Xususan, odamlar g‘orlardan chiqib engil turar joylar, chayla va yarim erto‘lalarda yashay boshladilar. Ular endi faqat tog‘li

hududlarda yashab qolmay vohalar bo‘ylab tarqalib, tekisliklarda, daryo va ko‘llar bo‘ylarida joylashadilar hamda qarindosh-urug‘chilik jamoalariga bo‘linadilar. Natijada jamiyatda juft oilalar paydo bo‘ladi hamda ular ayrim urug‘larni birlashtirib **urug‘ jamoasini** tashkil etadilar.

Urug‘chilik (matriarxat) qadimgi jamiyat tarixining alohida bosqichini tashkil etib, bu jarayon ijtimoiy hayotdagi qator o‘zgarishlarning paydo bo‘lishiga zamin yaratdi. Lekin dastlabki urug‘chilik tuzumi nisbatan rivojlanishning yuqori bosqichiga ko‘tarilgan bo‘lishiga qaramay, bu davr odamlari ovchilik, termachilik va baliqchilik bilan kun kechirar edilar.

Paleolit davriga xulosa yasab, shuni aytish mumkinki, bu davrda **odamning paydo bo‘lishi jarayoni (antropogenez)** asosan tugadi. Qadimgi odamlar xo‘jalik yuritishning eng oddiy yo‘llaridan (terib-termachlab) murakkabroq ko‘rinishlariga (ovchilik, baliqchilik)ga o‘tdilar. Olov kashf etildi. Insoniyat to‘da davridan urug‘chilik tuzumiga o‘tdi. Mehnat qurollari takomillashib, ularning turlari ko‘paydi va sifati yaxshilanib bordi.

Bu davrda qadimgi odamlar orasida dastlabki diniy qarashlar paydo bo‘ldi. Teshiktoshda murdani maxsus qabr qazib ko‘milishi, uning yoniga tog‘ echkisining shoxlari va tosh qurollar qo‘yilishi mutlaqo tasodifiy hol emas edi. Bu jarayon paleolit davri neandertal odamlari garchi sodda bo‘lsada, ko‘mish marosimlariga rioya qilganliklaridan dalolat beradi. Tosh asrining keyingi rivojlanish davri fanda **mezolit (o‘rta tosh) asri** deb qabul qilingan. O‘rta Osiyoda mezolit davri nisbiy tarzda mil. avv. 12-7 ming yilliklar deb qabul qilingan. Mezolit- odamlarning er yuzi bo‘ylab keng tarqalish davri bo‘lib, ular shimol tomonga ham, Pomir kabi baland tog‘li hududlarga ham tarqala boshlaydilar. Kaspiy bo‘ylaridan Tyanshan -Pomirgacha, Markaziy Qozog‘istondan Kopettog‘ etaklarigacha bo‘lgan hududlardan mezolit davri yodgorliklarining namunalari topib o‘rganilgan. Machay (Surxondaryo), Obishir (Farg‘ona vodiysi), Markaziy Farg‘ona, Bo‘zsuv, Qo‘shilish (Toshkent), Aydabol, Jayronquduq (Ustyurt), Oshxona, Chilchorchashma (Tojikiston), Darayi sho‘r (Vaxsh vohasi) kabilar shular jumlasidandir. Mezolit davriga kelib er yuzidagi ulkan muzlikning yana

shimolga tomon siljishi natijasida iqlim barqarorlashib hozirgi davrdagiga ancha o‘xshab qolgan edi. Buning natijasida O‘rta Osiyo hayvonot olami va o‘simliklar dunyosida ancha o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Paleolit davrining yirik hayvonlari yo‘qola borib ular o‘rniga kichik tuyoqli, tez yuguruvchan hayvonlar - jayron, sayg‘oq, bug‘ular, tog‘ echkisi, arslon, yo‘lbars, qoplon, quyon kabilar ko‘paya boradi. Shuningdek, janubga xos issiqsevar yovvoyi boshoqli o‘simlik va daraxtlar ham tobora ko‘payib bordi. Tabiat va iqlimdagi bu o‘zgarishlar mezolit davri kishilarining hayotida ham o‘zgarishlar sodir bo‘lishiga sabab bo‘ldi.

Bu davrga kelib kishilar nisbatan nozikroq qurollar tayyorlashni o‘zlashtira boshladilar. Xususan, janubiy o‘lkalarda, shuningdek, O‘rta Osiyoda turli geometrik shakldagi mayda qurolchalar-mikrolitlar paydo bo‘lib, ular uchun suyak va yog‘och dastachalardan qadama sifatida
foydalanilgan. Undan tashqari, bu davrda insoniyat o‘z tarixidagi dastlabki murakkab moslama - **o‘q-yoyni kashf etdi**. Натижада чопқир, кичик туёқли ҳайвонлар ва паррандаларни ов қилиш имконияти пайдо бўлди.

Bu davrning eng katta yutuqlaridan yana biri yovvoyi hayvonlar -it, qo‘y, echki kabilarning qo‘lga o‘rgatila boshlanib, **xonakilashtirilishidir**. Arxeologik tadqiqotlar natijalariga qaraganda, mezolit davriga kelib Old, Yaqin va O‘rta Osiyoning ba’zi joylarida termachilikdan yovvoyi o‘simliklarni xonakilashtirishga hamda ovchilikdan chorvachilikka o‘tish boshlanadi. Bu jarayon ilg‘or, unumdor ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivojlanish darajasi va tabiiy-geografik iqlim bilan bevosita bog‘liq edi.

Mezolit davrining mashhur yodgorliklaridan biri Surxon vohasidagi **Machay** (Boysun) g‘or makonidir. Daryo sathidan 70 metrcha balandlikda joylashgan bu makon ko‘p qatlamli bo‘lib, ushbu qatlamlardan ko‘plab suyak va asosan tosh qurollar topilgan. Suyak qurollar bigiz, igna, so‘zan kabilardan iborat bo‘lsa, tosh qurollar -pichoqlar, arrasimon qurollar, kesgichlar, ushlatgich toshlar, nayza va o‘q uchlari kabilardir. Bu qurollarning o‘ziga xos belgilari mavjud bo‘lsa ham Janubiy Qozog‘iston va Yaqin Sharqdagi mezolit yodgorliklaridan topilgan tosh qurollarga o‘xshab ketadi.

Farg‘ona vodiysidan mezolit davriga oid **Obishir** g‘or-makonidan tosh qurollar, bigizlar, qirg‘ichlar, pichoq qadamalari topilgan. Shuningdek, topilmalar orasida yovvoyi hayvonlarning maydalangan va sindirilgan suyaklari, baliq tutishda ishlatiladigan qadoq toshlar ham bor. Topilgan ashyolarga asoslanib, obishirliklar baliqchilik, ovchilik va termachilik bilan shug‘ullangan deyishimiz mumkin. O‘rta Osiyo tarixida neolit davrining (yangi tosh asri) yuqori chegarasi mil.avv. VI - quyi chegarasi IV- III ming yilliklar bilan belgilanadi. Bu davr O‘rta Osiyoda uchta: Joytun, Kaltaminor va Hisor madaniyatlarining rivojlanishi bilan izohlanadi. Neolit davri qabilalari aksariyat hollarda daryo sohillari va tarmoqlari yoqasida, ko‘l bo‘ylarida yashab, tabiiy imkoniyatlardan kelib chiqqan holda baliqchilik va ovchilik yoki dehqonchilik va chorvachilik, ayni vaqtda qisman hunarmandchilik bilan shug‘ullanganlar. Neolit davri turli sharoitlarda yashagan odamlarning mehnat qurollari mezolit davridagiga nisbatan takomillasha borgan.
Joytun madaniyati Janubiy Turkmanistonda, Ashgabat shahridan 25 km shimoldagi Joytun manzilgohidan topilgan bo‘lib, bu madaniyat qoldiqlari nafaqat Turkmaniston, balki butun O‘rta Osiyoda mashhurdir. Joytun qishlog‘i bir necha uylardan tashkil topgan bo‘lib, uylarning maydoni 12-14 kv.m dan iborat. Uy devorlari somon aralashtirilgan paxsadan qurilgan. Uylar to‘g‘ri to‘rtburchak bo‘lib, bir xonalik va har bir xonada alohida o‘choq izlari topilgan. Uylar yonida esa omborxona, saroy va xo‘jalik o‘ralari ham bor. Tadqiqotchilar fikrlariga qaraganda Joytunda 30 ga yaqin uy bo‘lib unda 130-150 kishi yashagan, 5-6 kishilik oila yashagan uylarda ona urug‘i hukmron bo‘lgan.

Uylardan ayollarning loy va toshdan yasalgan haykalchalari, shuningdek, har xil taqinchoq va bezaklar topilgan. Joytun xarobalaridan bug‘doy, arpa izlari, yorma tosh, tosh boltalar, parrakchalar, qurol sifatida ishlatiladigan o‘tkir uchli toshlar, teshgich parchalar, qirg‘ichlar, kamon o‘qlarining uchlari-poykonlar topilgan.

Kaltaminor madaniyatiga oid makonlar dastlab Amudaryo etaklari va Xorazm hududidan topilgan bo‘lib bular orasida Xorazmdagi Jonbosqal’a makoni diqqatga sazovordir. Bu erni qazish paytida chayla va yarim erto‘la shaklidagi makon

ochilgan. Bu makon yog‘och ustun, sinchlar bilan ko‘tarilgan. Ustiga ko‘ndalang yog‘ochlar tashlanib, usti qamish bilan berkitilgan. Chayla o‘rtasidan katta markaziy o‘choq qoldig‘i, atrofida mayda o‘choq qoldiqlari aniqlangan. Makondan nayza poykonlar, kamon o‘qlarining uchlari va boshqa tosh qurollar topilgan. Shuningdek, madaniy qatlamlardan baliq, yovvoyi cho‘chqa, qirg‘ovul suyaklari va jiyda danaklari ham topilgan. Topilmalar orasida sopol idish namunalari ham bo‘lib, tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda ular mil. avv. V-IV ming yilliklarga oiddir.

Kaltaminor madaniyatiga oid yodgorliklar Zarafshon etaklaridagi Darvozaqir makonidan ham topib o‘rganilgan. Bu erdan topilgan sopol idish namunalari Jonbosqal’a sopollariga juda o‘xshashdir. Quyi Zarafshon va Qashqadaryo etaklaridagi Darvozaqir, Katta va Kichik Tuzkon, Qorong‘isho‘r, Poykent makonlaridan topilgan tosh qurollar va sopol buyumlar hamda boshqa ashyolarni o‘rganish, tahlil etish, Yaqin Sharq, Qozog‘iston, Ural va boshqa joylardan topilgan neolit davri ashyolari bilan qiyoslash natijasida tadqiqotchilar yuqorida eslatilgan makonlar Kaltaminor madaniyatiga mansub bo‘lib mil. avv. IV- III ming yilliklarga oid degan xulosaga keldilar. Bu makonlarda yashagan neolit davri odamlari termachilik, jayron, yovvoyi cho‘chqa, bug‘u va boshqa hayvonlar hamda baliq ovlab kun kechirishgan.

So‘nggi yillarda O‘rta Osiyoning sharqiy hududlaridan, Hisor-Pomir tog‘laridan ko‘plab neolit davri yodgorliklari ochildi va o‘rganildi. Bu o‘ziga xos madaniyat fanda Hisor madaniyati degan nom oldi. Asosan tog‘oldi va tog‘liklarga xos bo‘lgan Hisor madaniyatiga mansub yodgorliklar 200 dan ziyod bo‘lib Tutqovul, Soysayyod, Quyi Bulyon, Darayi Sho‘r, Gaziyontepa kabilar shular jumlasidandir. Hisor madaniyatiga mansub yodgorliklar asosan mil. avv. V-III ming yilliklarga oiddir.

Hisor madaniyati sohiblari sopol idishlar yasab, asosan chorvachilik, ovchilik, qisman termachilik bilan shug‘ullanganlar. Hisor makonlaridan topilgan turli-tuman topilmalar ushbu jarayonlardan dalolat beradi. Demak, O‘rta Osiyoning barcha hududlaridan-shimoldagi Ustyurtdan, Markaziy va Janubiy Qozig‘istondan,

Qizilqum va Qoraqumdan, Qashqadaryo va Zarafshon vohalari, Toshkent vohasi va Farg‘ona vodiysidan ko‘plab neolit davri makonlari ochilgan. Xususan, neolit davri Markaziy Farg‘ona madaniyati fanda O‘rta Osiyoda to‘rtinchi neolit davri madaniyati deb kiritilgan. Neolit davrida qadimgi ajdodlarimiz loydan idishlar yasab ularni olovda pishirish yo‘li bilan kulolchilikka asos soldilar. Shuningdek, ip yigirish asosida to‘qimachilikni kashf etdilar. Odamlar yog‘och va qamishdan qayiq yasab (qayiqsozlik) suvda suzishni ham o‘zlashtirdilar. Xullas, neolit davri yutuqlarga boy bo‘lib, o‘zidan ilgarigi davrlarga nisbatan yuksak rivojlanish davri bo‘ldi. Tadqiqotlar natijalariga qaraganda tosh va bronza davrlari o‘rtasida mis-tosh (eneolit) davri bo‘lganligi aniqlangan. Bu davr metall qurollarning barchasi bronzadan qilinmay, sof misdan yasalganligi ma’lum. O‘rta Osiyoda eneolit davri nisbiy tarzda mil. avv. IV ming yillikning oxiri- III ming yillikning boshlarini o‘z ichiga oladi. Bu davrda mis o‘zining kimyoviy xossalari (tez eruvchanlik, egiluvchanlik) tufayli xo‘jalik hayotda ustunlik qila olmadi. Ishlab chiqarishda avvalgidek tosh qurollar asosiy o‘rinda bo‘lib qoldi. Shuning uchun ham bu davr mis-tosh asri deb yuritiladi. Mezolit oxirida va neolit davrida terib-termachlab, ovqat topishdan yovvoyi o‘simliklarni ekish va o‘tkazish yo‘li bilan madaniylashtirish orqali vujudga kelgan dehqonchilik eneolit zamonida yuqori xo‘jalik turiga aylanib bordi. Dehqonchilik bilan uy chorvachiligi ortiqcha mahsulot etishtirishga va mol ayirboshlashni tartibga solishga asos bo‘lgan. O‘rta Osiyo hududlarida quyidagi yangi tarixiy-madaniy jarayonlar eneolit davri bilan bog‘liqdir:

-Xo‘jalikning boshqa hamma turlariga qaraganda haydama dehqonchilikning ustunlik qilishi;

-Toshdan ishlangan qurollar ko‘p bo‘lgan holda mis qurollarning paydo bo‘lishi;

-Katta-katta jamoalarning paxsadan va xom g‘ishtdan tiklangan katta-katta uylari;

-Kulolchilikda muhim texnika yutug‘i - xumdonlarning ishlatilishi;

-O‘troqchilik xo‘jaligining rivojlanishi, jamoa birlashmalarining uylari va qurilishida xom g‘ishtning paydo bo‘lishi;

-Turli hayvonlarning loydan yasalgan va ona urug‘i tuzumiga (matriarxatga) xos

haykalchalari;
-Rangdor sopol buyumlar, ya’ni turli tasvirlar ishlangan sopol buyumlarning mavjudligi.

Eneolit davrida O‘rta Osiyo aholisining madaniyati bir bosqich yuqoriga ko‘tariladi. Lekin bu hududlardagi qabilalarning madaniy va ijtimoiy taraqqiyoti bir xil darajada emas edi.

Qadimgi qabilalar mis-tosh davriga o‘tgach, madaniy, xo‘jalik va ishlab chiqarish taraqqiyotining yangi bosqichi boshlanadi. Yangi xo‘jalik turlari - dehqonchilik va chorvachilik avvalgidek, Turkmanistonning janubi-g‘arbidagi qulay geografik sharoitda rivojlanadi. Bu paytda quyi Zarafshon va Amudaryo havzalarida yashovchi qabilalar hali madaniy o‘simliklar o‘stirishga o‘tmagan edilar. O‘rta Osiyoning sharqiy qismidagi tog‘li hududlar aholisi xo‘jaligida esa ovchilik ustun edi. Demak, ilk va rivojlangan mis-tosh davrida O‘rta Osiyo qabilalarining ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanishida katta farqlar va notekisliklar saqlanib qoladi. Eneolit davriga oid muhim yodgorliklar Janubiy Turkmanistondagi Anov va Namozgohtepa hududlarida aniqlangan. Bu erdagi uy-joylar xom g‘ishtdan qurilgan. Moddiy topilmalar orasida mis qurollar tosh qurollarga nisbatan kamchilikni tashkil etadi. Shuningdek, bu makonlardan topilgan guldor sopol buyumlar kulolchilikning ham ancha rivojlanganligidan dalolat beradi. Sirti qora bo‘yoqda geometrik chiziqlar va hayvon yoki qush rasmlari bilan bezatilgan bu topilmalar mil.avv. IV ming yillikka oiddir.

O‘zbekiston hududlarida eneolit davri yodgorliklari hozircha yaxshi o‘rganilmagan. Mil. avv. IV-III ming yillik boshlarida Amudaryo va Zarafshon quyi oqimlarida Kaltaminor madaniyati tosh qurollari, sopol idishlari va uy-joylari keng tarqalgan. O‘rta Osiyoning shimoli-sharq dashtlarida va Orol dengizi sohillarida ovchilik, baliqchilik va ilk chorvachilik xo‘jaliklari rivojlanadi. Buxoro vohasidagi Lavlakon, Beshbuloq makonlari va Zamonbobo qabristonining eng pastki qatlamlari eneolit davriga oiddir. Bu yodgorliklardan so‘nggi Kaltaminor topilmalariga o‘xshash sopol idishlar bo‘laklari va chaqmoqtosh bilan birga misdan yasalgan ignalar va munchoqlar topilgan.

Yuqori Zarafshonning Panjikent shahridan 15 km g‘arbda joylashgan Sarazm qishlog‘i xarobasi eneolit davri dehqonchilik qabilalarining O‘rta Osiyoni shimoli-sharqiga yoyilganidan dalolat berib, qadimgi dehqonchilik aholisining dehqonchilik chegaralarini ham ko‘rsatadi. Umumiy maydoni 90 gektar bo‘lgan Sarazm qishlog‘i xarobalari 10ta tepalikda joylashib, 4ta davrga bo‘linadi. Ular topilmalarga qarab bir-biridan farq qiladi. Dastlabki ikki davr eneolit, keyingi ikki davr esa bronza davriga oiddir. Sarazmdan uy-joy va ro‘zg‘or-xo‘jalik inshootlari qoldiqlari ochib o‘rganilgan. Bu erlardan sopol idishlar, metalldan va toshdan ishlangan qurollar, (jumladan, tosh ketmonlar) zeb-ziynat buyumlari ko‘plab topilgan.

O‘lkamizdagi qoyatosh rasmlarning eng nodir namunalari Zarautsoy, Sarmishsoy, Bironsoy, Ko‘ksaroy, Takatosh, Teraklisoy kabilar bo‘lib, ular yuzdan ziyoddir. Mazkur joylardagi qoyatoshlarda O‘zbekistonning qadimgi va hozirgi hayvonot olami vakillarining rasmlarini kuzatish mumkin. Ular buqalar, sherlar va yo‘lbarslar, qoplon, tulki va bo‘rilar, bug‘u va jayronlar kabilardir. Rasmlar orasida o‘q-yoy, qopqon kabi narsalar ham ko‘pchilikni tashkil etadi. Mavjud qoyatosh rasmlari mazmunan boy va manzarasi jihatdan xilma-xildir. Unda odamlar, ov, yirtqich hayvonlar to‘qnashuvlari manzaralari tasvirlangan. Respublikamizdagi eng qadimgi rasmlar Zarautsoyda bo‘lib (Surxondaryo), bu rasmlar mezolit-neolit, ya’ni, mil.avv. VIII-IV ming yilliklarga oiddir. Qoyatosh rasmlari orqali o‘sha davr odamlarining ov, mehnat va jangovar qurollarini bilib olishimiz mumkin. Shuningdek, qoyatosh rasmlar qadimgi avlodlarimizning g‘oyaviy qarashlari va diniy e’tiqodlarini o‘rganishda muhim ahamiyatga egadir. Undan tashqari, qoyatosh suratlari mazmun va manzaralarining boyligi bilan ajralib turadi va ular keng tarqaladi. Ko‘pchilik tadqiqotchilar fikriga qaraganda, bronzaning vatani Kichik Osiyo va Mesopotamiya bo‘lgan. Qadimgi Misr, Mesopotamiya, Kichik Osiyo va Eronning janubi-g‘arbida mil avv. III-II ming yillikning boshlarida rivojlangan jamiyat keng ravnaq topadi. O‘rta Osiyoda bronza davri mil. avv. III ming yillikdan I ming yillikning boshlarigacha bo‘lgan davrni o‘z ichiga oladi. Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda bronza asri uchta katta xronologik davrga:

ilk, rivojlangan va so‘nggi bronza davrlariga bo‘linadi. O‘rta Osiyoning shimoliy va sharqiy hududlarida mavjud bo‘lgan bronza davri yodgorliklari madaniyati janubiy hududlardagi o‘troq madaniyatdan ajralib turadi.

O‘zbekiston hududida bronza davrida asosan chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullangan qabilalarning moddiy-madaniy yodgorliklari Xorazmda 50 dan ziyod ochilgan bo‘lib, Tozabog‘yob madaniyati nomi bilan mashhurdir. Bu madaniyatga mansub sopol buyumlar Qozog‘iston va Sibir hududlaridan topilgan sopol buyumlarga ancha o‘xshab ketsada, o‘ziga xos xususiyatlari bilan Sharqiy Evropa chorvadorlari yaratgan bronza davri Yog‘ochband madaniyatidan, Qozog‘iston va Sibirdagi Andronovo madaniyatidan ham farq qiladi. Bunga asosiy sabab, tozabog‘yobliklar orasida dehqonchilik keng tarqalgan.

Tozabog‘yob madaniyatiga oid makonlarning ayrimlaridan qadimiy mozorlar (Ko‘kcha), ko‘pchiligidan esa yarim erto‘la shaklidagi uy-joy qoldiqlari ochilgan. Ulardan zeb-ziynatlar, hayvon suyaklari, sopol idishlar, toshdan va bronzadan ishlangan qurollar topilgan. Tozabog‘yob sopol idishlari asosan qo‘lda ishlangan. Xorazmdagi so‘nggi bronza davriga oid yodgorliklar Amirobod madaniyati nomi bilan mashhur bo‘lib, mil. avv. IX-VIII asrlarga oiddir. Bu madaniyat sohiblari Tozabog‘yob madaniyati xususiyatlarini saqlab, yarim erto‘la turar-joy, sug‘orish inshootlari izlari va qo‘lda yasalgan sopol idishlar bilan izohlanadi. Quyi Zarafshonning bronza davri yodgorliklari Zamonbobo madaniyati nomi bilan ataladi. Bu davrga mansub yodgorliklar orasida Zamonbobo ko‘li yoqasidan topilgan qadimgi qabriston ayniqsa, diqqatga sazovordir. Qabrlar yakka va juft qabrlar bo‘lib, dafn etish jarayonida ko‘mish marosimlariga amal qilingan. Qazishmalar jarayonida erkaklar qabrlaridan o‘q-yoy poykonlari, pichoqlar, pichoqsimon tosh qurollar va turli shakldagi sopol idishlar, ayollar qabrlaridan sopol idishlar, bronza ko‘zgu, upadon, surmadon kabi pardoz buyumlari va yarim qimmatbaho toshlardan turli shaklda ishlangan munchoq va marjonlar topilgan.

Zamonboboliklar chaylasimon kulbalarda istiqomat qilib, dehqonchilik va xonaki chorvachilik bilan shug‘ullanganlar. Topilgan ko‘plab mehnat qurollari, boshoqli o‘simliklar qoldiqlari va hayvonlar suyaklari shundan dalolat beradi. Shuningdek,

zamonboboliklar jamoasida hunarmandchilikning turli tarmoqlari, xususan, kulolchilik, bronzani eritib undan har xil ashyolar yasash, ayniqsa toshni ishlash texnikasi ancha rivojlangan.

Zamonbobo madaniyati janubdagi o‘troq dehqonchilik jamoalari ta’sirida shakllangan. Bu madaniyat xonaki chorvachilik va motiga (ketmoncha) dehqonchiligi bilan kun kechirgan Buxoroning tub aholisiga mansubdir. Bronza davrida Buxoro vohasining daryo adoqlarida endigina dehqonchilik va xonaki chorvachilik bilan shug‘ullanuvchi ilk qishloqlar paydo bo‘lib, ular yarim yerto‘la va shox-shabba engil chaylalardan iborat turar joylardan tashkil topgan. Bularda uy hunarmandchiligining misgarlik, toshtaroshlik, to‘qimachilik kabi turlari mavjud bo‘lsada, ammo hali ular kasb-hunarning rivoj topgan darajasiga etib bormagan edi. O‘zbekistonning janubidagi bronza davri yodgorliklari qadimgi sug‘orish hududlari - Ulonbuloqsoy, Sherobod, Bandixon va Mirshodida topib tekshirilgan. Ular Sopolli madaniyati nomi bilan mashhurdir.

Sopollitepa markazidan to‘rtburchakli istehkom, istehkom ichida turar-joylar va xo‘jalik xonalari, hunarmandchilik ustaxonalari uchta madaniy qatlamdan iborat ekanligi aniqlangan. Sopollida qurilish, hunarmandchilik va iqtisodiy munosabatlar ancha rivoj topgan. O‘choqlar turar joy xonalari ichidagi devor ichiga o‘rnatilgan. Asosiy qurilish ashyosi paxsa va xom g‘ishtdir.

Sopollitepadagi turar-joylar tagidan bronza davri qabristoni ochilgan. Ko‘pchilik qabrlar yakka qabrlar bo‘lib, jamoa qabrlari ham uchraydi. Ayollar qabrlarida asosan sopol va bezaklar topilgan bo‘lsa, erkaklar qabrlaridan asosan sopol, mehnat va jangovar qurollar topilgan. Sopol topilmalar deyarli naqshlanmagan bo‘lib, kulolchilik charxida tayyorlangan. Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘ida shakllangan Sopollitepa - bronza davridagi daryodan kechuv yo‘lini himoya qiluvchi mustahkam oldingi istehkom (forpost) sifatida paydo bo‘lgan. Keyinchalik o‘troq dehqonchilik jamoalari shimoliy chegaralarining kengayishi munosabati bilan Sopollitepa o‘zining ilgarigi ahamiyatini yo‘qota boshlaydi va bo‘shab qoladi. Asosiy markaz vazifasi esa tog‘ darasidan chiquvchi yo‘l ustidagi mustahkam qal’a sifatida paydo bo‘lgan Jarqo‘tonga o‘tadi.

Mil.avv. II ming yillikning o‘rtalariga kelib Jarqo‘ton o‘sha hududlardagi dehqonchilik bilan shug‘ullanuvchi aholi qabilalari uyushmalarining mustahkam istehkomiga aylanadi. Aynan mana shu istehkom orqali Hisor tog‘ oldi vohalari va janubiy Tojikistonning g‘arbiy hududlariga shimoldagi aholining ko‘chishlari bo‘lib o‘tadi. Bu hududlardan topilgan yodgorliklar topografiyasi va ularni davlatlashtirish ushbu jarayon izchillik bilan bo‘lib o‘tganligini ko‘rsatadi. Bu jarayonning rivojlanishi mil.avv. II ming yillikning ikkinchi yarmi Amudaryoning o‘ng qirg‘og‘idagi o‘troq dehqonchilik turmush tarzi kechiruvchi aholi manzilgohlarida aholi sonining o‘sishi va ishlab chiqaruvchi kuchlarning taraqqiyoti uchun ham keng imkoniyatlar yaratdi.

Bronza davrining xo‘jalik sohasida erishgan eng katta yutuqlaridan biri qadimgi dehqonchilikning keng yoyilishi va mil. avv. II ming yillikda chorvachilikning dehqonchilikdan ajralib chiqishidir. Metall qurollar qadimgi ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotni tezlashtirgani tufayli O‘rta Osiyo dasht va tog‘ oldi hududlarida yashagan aholi boshqa aholidan (dehqonlardan) ajralib chiqadi va asosan chorvachilik bilan mashg‘ul bo‘ladi. Bu tarixiy jarayon - kishilik jamiyati taraqqiyotidagi dastlabki yirik mehnat taqsimoti edi.

Bu davr manzilgohlarini o‘rganib, bu davrda ikki xil madaniyat hukm surgan deyish mumkin. Birinchisi - qadimgi qabilalar dehqonchilik uchun qulay yerlarga joylashib yuksak dehqonchilik madaniyatini yaratgan bo‘lsalar, ikkinchisi - xuddi birinchi madaniyat sohiblari darajasida ishlab chiqaruvchi kuchlarga ega bo‘lgan holda dasht va tog‘ oldi yaylovlarda chorvachilik madaniyatini yaratganlar.

Bronza davri O‘rta Osiyoning ijtimoiy tuzumida ham o‘zgarishlar sodir bo‘lib o‘tdi. Urug‘chilik tuzumi bu davrda ham davom etdi. Ammo, bu davrda ona urug‘ining mavqei yo‘qolib bordi. Metall eritish va xo‘jalikning rivojlanishi natijasida jamiyatda erkaklar mehnat va mavqei birinchi darajali ahamiyatga ega bo‘lib bordi. Natijada jamiyat taraqqiyotida, dehqonchilik, chorvachilik, ovchilik va hunarmandchilikning rivojlanishida erkaklar etakchilik qiladilar. Xotinlar erkaklar ishlab chiqargan narsalarni iste’mol qilishda ishtirok etsalar ham, unga egalik qilishdan mahrum bo‘ladilar. Ishlab chiqarishda hukmronlik qilish shu

tariqa erkaklar qo‘liga o‘tadi va ona urug‘i tuzumi o‘rnini ota urug‘i (patriarxat) tuzumi egallaydi.

## Ilk davlatchiligimiz ildizlari

Yuzlab mingyilliklarni o‘z ichiga, olgan insoniyat tarixida dastlabki davlatlar va shaharlarning tashkil topishi, hunarmandchilik va savdoning rivojlanishi, yozuvning kelib chiqishi – nisbatan keyinroq yuzaga kelgan hodisalardir. Davlatchilik jahon tarixida milloddan avvalgi IV ming yillikning oxirlarida Sharqda vujudga kelgan bo‘lib, insoniyat tamaddudining so‘nggi 5 ming yili bilan bog‘lanadi.

Boshqaruvning ilk bosqichlari qadimgi zamonlarga borib taqaladi. Ibtidoiy jamiyat tarixida ijtimoiy boshqaruv tamoyillari va vazifalari turli ko‘rinilarda bo‘lib, tashkil qilish. Tartibga srholish. Nazorat, jamoatning ichki munosabatlarini boshqarib turish funsiyalari bilan bog‘langan edi. Shu tarzda ijtimoiy–iqtisodiy talablari, obro‘–ye’tiboriga ega, o‘zlarining shaxsiy axloqiy xislatlari, amaliy bilimlari va tajribalarini bilan boshqalardan ajralib turgan shaxslarning saralanishiga olib kelgan. Urug‘ oqsoqoli va qabilalar yo‘lboshchilari jamoalar vakillari yig‘inida (“Xalq yig‘ini”) saylangan. Ibtidoiy jamiyat tarixida yo‘lboshchi rahbar ijtimoiy foydali faoliyati bilan band bo‘lib, urug‘–qabila odatlarida asoslangan ijtimoiy hokimiyat dastlab siyosiy davlat maqomi darajasiga etmagan ijtimoiy tashkilot shaklini o‘zida ifoda etgan.

Qadimgi davlatlar o‘z rivojlanish bosqichlarida, turli xususiyatlar va tarixiy qonuniyatlarga ega bo‘lgan. Dastavval, ilk davlatlar xo‘jalikning ishlab chiqaruvchi shakllari – dehqonchilik va chorvachilik qayerda oldin rivoj topgan bo‘lsa, o‘sha erda vujudga keldi. O‘zlashtiruvchi xo‘jalikka (ovchilik, baliqchilik) asoslangan bironta-bir jamiyatda davlatlar paydo bo‘lmagan.

Ibtidoiy tarixda (ilk urug‘chilik jamoasi davrida) aholining joylashuvi qon–qarindoshlik aloqalari bilan belgilanadi. U yoki bu hududda fakat bitta qon-qarindosh urug‘ a’zolarigina yashagan. Xo‘jalik ishlab chiqaruvchi shakllarining

taraqqiyoti aholi joylashuvi hududlarning kengayishiga, tashqi aloqalarning uzluksiz rivojlanishiga olib kelgan. Ishlab chiqarish zarurati va boshqa iqtisodiy omillar shuni taqozo etgan. Shu tarika aholining aralash joylashuvi jarayoni boshlangan. Bunda bir hududda turli urug‘ namoyandalari yashaydigan bo‘lgan. Ana shunday qilib, jamiyatning yangi hududiy tashkiloti vujudga kelgan. Qarindosh–urug‘chilik jamoasi o‘rniga hududiy qo‘shnichilik jamoasi paydo bo‘lib, o‘zini iqtisodiy jihatdan ta’minlay oladigan katta oilalar paydo bo‘lgan.

Bu jamoalar vakillari alohida uy–joylar, ekinzorlar va sug‘orish tarmoqlari bilan chegaralangan, ya’ni, to‘la o‘zlashtirilgan va muttasil xo‘jalik hamda ishlab chiqarish maqsadlarida foydalanib kelingan voha– tumanlarda hayot kechirib, o‘z ichki va tashqi munosabatlarida kelib chiqadigan muammolarni hal qilishda birlashishga harakat qilganlar.

Ishlab chiqarish va ijtimoiy mehnat taqsimoti, tashqi harbiy bosqinlardan himoyalanish, jamoadagi diniy urf–odatlarni bajarish kabi masalalar ijtimoiy mansablar va boshqaruvning yangi rivojlanish bosqichiga asoslangan.

O‘zbek xalqi, O‘rta Osiyo xalqlari va ularning ajdodlari tarixida ilk davlatchilikning vujudga kelishi masalasini o‘rganish muhim ahamiyatga ega. O‘rta Osiyoda ilk davlatchilik tuzumiga bronza davridagi sug‘orma dehqonchilik rivojlanishi va ixtisoslashgan hunarmandchilik zamin yaratgan edi. Alohida ta’kidlash joizki, O‘rta Osiyoda davlatchilik tizimiga o‘tish jarayoni faqat ichki sabablarga bog‘liq bo‘lmay, Sharqdagi yuqori darajada rivojlangan an’anaviy tarixiy–madaniy aloqalar hamda migratsiyalar tashqi ta’sir jarayonlari bilan bog‘liq edi. Marg‘iyona-Baqtriya hududidan topilgan yuqori sifatli oltin, kumush va bronza buyumlari, shziga xos me’morchilik an’analari nafaqat tashqi savdo va o‘zaro aloqalarning rivojlanganligidan, shuningdek migratsiyalar natijasida sivilizatsiyaning yangi o‘choqlarining vujudga kelishidan dalolat beradi. Qadimgi Sharq davlat markazlari bilan etnomadaniy va iqtisodiy munosabatlar muammosi dolzarb mavzu bo‘lib, arxeologiya ma’lumotlari o‘zaro aloqalardagi mavjud texnologiya va iqtisodiy innovatsiya – yangiliklarning yoyilishi hususiyatlarini ochib beradi.

Ilk davlatlarning hududiy asosini bir–biriga yaqin joylashgan qo‘shni dehqonchilik tumanlari tashkil etgan. Xo‘jalik yuritish maqsadida o‘zlashtirilgan hududlarda aholi zich joylashgan bo‘lib, ular qadimgi dehqonchilik tuman–vohalari deb atalgan. Ularning har birida hosildor erlar va sug‘orish tizimidan tashqari uy– qo‘rg‘onlar va manzilgohlar, ekin ekilmagan erlar va yaylovlar mavjud bo‘lgan. Qadimgi dehqonchilik tumanlarining tuzilishi tabiiy–geografik, ijtimoiy–iqtisodiy va madaniy muhit bilan bog‘liq edi. Bir necha tumanlar viloyatni tashkil etgan.

Yuqorida ko‘rsatilgan omillar bilan bog‘liq holda boshqaruvning hududiy funksiyalari ham vujudga kelgan. Ushbu funksiyalar ma’lum hududlarda joylashgan o‘troq ziroatchilar jamoalari, dehqonchilik vohatuman va viloyat (bir necha tuman) aholisining munosabatlarini nazorat qilish va boshqarib turish zaruriyatidan kelib chiqqan.

Shu tariqa ilk davlatchilikka o‘tish jarayoni boshlangan. Ikkinchi bosqich jamoaning o‘zini–o‘zi boshqaruv muassasalarining yo‘lboshchi hokimiyatiga to‘la bo‘ysundirilishi bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu jarayonda jamoa a’zolari o‘rtasidagi ichki va tashqi aloqalarning huquqiy tartibi yanada takomillashib boradi. Bu holat esa davlat tizimidagi turli vazifalarning huquqiy tartibga solinishi va hokimiyatning huquqiy jihatdan rasmiylashtirilishiga olib keladi. Ilk davlatchilik tizimida boshqaruv iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va hududiy funksiyalar bilan bog‘liq xolda amalga oshirilgan

## Nazorat uchun savollar:

1. Ibtidoiy tuzum nima?
2. Arxeologlar mehnat qurollariga qrab qanday davrlashtirishadi?
3. Paleolit davri hususiyatlari va manzilgohlari haqida nimalar bilasiz?
4. Neolit davri hususiyatlari va manzilgohlari haqida nimalar bilasiz?
5. Eneolit davri hususiyatlari va manzilgohlari haqida nimalar bilasiz?
6. Bronza davri hususiyatlari va manzilgohlari haqida nimalar bilasiz?
7. Qanday omillar tufayli xususiy mulk tushunchasi paydo bo‘la boshladi?
8. Qanday omillar tufayli davlat tushunchasi paydo bo‘la boshladi?

## Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Murtazayeva R.X. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. Darslik.-T.; Yangi asr avlodi, 2005.

2. Murtazayeva R.X. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. O‘quv qo‘llanma. –T.: Akademiya, 2010.

3. Eshov B.J. O‘zbekiston davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. Darslik,- T., Yangi asr avlodi. 2012

4. Eshov B., Odilov A. O‘zbekiston tarixi. 1-jild. Eng qadimgi davrdan XIX asr o‘rtalarigacha. Darslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012.

5. O‘zbekiston tarixi.Darslik II jild.Mualliflar jamoasi. – T.: Yangi asr avlodi. 2015.

6.O‘zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). Mas’ul muharrirlar: R.Abdullayev, M.Rahimov, Q.Rajabov.– Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019.

## 2-mavzu: Markaziy Osiyo qadimgi davr xalqaro madaniy aloqalar tizimiga oid yangi tadqiqotlar (2 soat)

### Reja:

1. Markaziy Osiyoda madaniy hududiy birliklarning shakllanishi.
2. Madaniy aloqalar tizimining rivojlanib borishi

**Tayanch so‘z va iboralar:** Markaziy Osiyo, So‘g‘diyona, Baqtriya, Xorazm, Buyuk ipak yo‘li, madaniy aloqalar.

### Markaziy Osiyoda madaniy hududiy birliklarning shakllanishi.

O‘lkamiz hududlarida dastlabki shahar madaniyatining shakllanishi ham jamiyat taraqqiyotida bo‘lgani kabi uzluksiz taraqqiyot yo‘li bilan rivojlangan. Bu qonuniyatga ko‘ra shaharsozlik madaniyatining shakllanishi uzoq va bosqichma-

bosqich davrlarni bosib o‘tgan. O‘zbekistonning turli hududlarida tadqiqotchilar qadimgi shahar xarobalarini topib tekshirdilar. Ko‘p sonli arxeologik topilmalarning dalolat berishicha bu ko‘hna shaharlar ba’zilarining yoshi 2 700-3000 yildan kam emas. Ularga Afrosiyob, Ko‘ktepa (Samarqand), Qiziltepa (Surxon vohasi), Uzunqir, Erqo‘rg‘on (Qashqadaryo vohasi) va boshqalar kiradi. Bu ko‘hna shaharlar tarixi hozirgi Samarqand (Afrosiyob-Maraqanda), Kitob-Shahrisabz (Uzunqir) yoki Qarshi (Yerqo‘rg‘on) hududlarida davom etdi. Mil. avv. I mingyillik boshlarida Markaziy Osiyo aholisi Zodagonlar, Harbiylar, Ziroatchilar, Hunarmandlar guruhlarga bo‘lingan. 3-4 ming-yillar muqaddam Markaziy Osiyoga ko‘chib o‘tgan turli qabilalar asosan Hind-Yevropa til oilasiga mansub edi

O‘rta Osiyo hududlaridagi dastlabki davlat uyushmalari haqidagi yozma manbalar - zardushtiylarning muqaddas diniy kitobi «Avesto», ahmoniylar davri mixxat yozuvlari, yunon-rim tarixchilarining asarlari hisoblanib, ularning barchasi yurtimizdan chetda bitilgan. Shuning uchun ham ularda ba’zi hollarda chalkashliklar va noaniqliklar, bir-birini inkor etish hollari uchrab turadiki, bu o‘rinda mavjud yozma manbalarni arxeologik tadqiqotlar natijalari bilan solishtirish va tahlil etish nihoyatda muhimdir. Arxeologik ma’lumotlar yozma manbalar ma’lumotlarini kengaytiradi, ularga aniqlik kiritadi, tarixiy taraqqiyotning aniq yo‘nalishlarini ko‘rsatib, ma’lum davr haqidagi tasavvurlarimizni yanada boyitadi.

Yunon-rim tarixchilaridan birinchi bo‘lib «tarixning otasi» Gerodot (mil.avv. V asr) O‘rta Osiyo xalqlari haqida ma’lumotlar beradi. Gerodot o‘zining mashhur «Tarix» kitobini mil. avv. 455-445 yillarda yozgan. Bu o‘rinda shuni ta’kidlash joizki, Gerodot O‘rta Osiyo viloyatlarining birortasida ham bo‘lmagan. Shuning uchun ham O‘rta Osiyodagi xalqlar, viloyatlar joylashuvidagi nafaqat aniq, balki umumiy chegaralaridan ham bexabar bo‘lgan. O‘rta Osiyo viloyatlari haqida esa, o‘zi eshitgan hikoyalari, surishtirib bilganlari asosida yozgan.

Tadqiqotchilarning hisobiga qaraganda, Gerodot «Tarix» kitobida Baqtriya, Baqtra, baqtriyaliklarni 13 marta, so‘g‘dlarni 2 marta, xorazmliklarni 3 marta, saklarni 11 marta, massagetlarni 19 marta tilga olib ularning moddiy madaniyati, urf-odatlari, dini va tarixi haqida hikoya qilgan.

Gerodotning O‘rta Osiyo to‘g‘risidagi asosiy fikrlari forslarning sak-massagetlarga qarshi yurishlari, Kir II va To‘maris o‘rtasidagi siyosiy munosabatlar, ahamoniylar harbiy qo‘shinlari safida yurtimiz xalqlari jangchilarining ishtiroki, ularning yarog‘-aslahalari, yo‘lboshchilari, fors- yunon urushlarida ularning jasorat ko‘rsatganligi, xalqlarning ahmoniylar davlatiga bo‘ysunishi va soliq tartibi, sak-massagetlarning turmush tarzi va diniy e’tiqodi va boshqa ayrim ma’lumotlardan iborat.

Ko‘pchilik tadqiqotchilar O‘rta Osiyoda ilk davlatlarning shakllanish va rivojlanish jarayonini ahmoniylargacha bo‘lgan davrda deb hisoblaydilar va mil. avv. IX-VII asrlar bilan belgilaydilar (M.Dunker, V.Tomashek, F.Altxaym, S.P.Tolstov, M.M.Dyakonov, I.M.Dyakonov, V.M.Masson, M.Dandamayev, Y.G‘ulomov, B.A.Litvinskiy, E.V.Rtveladze, I.V.Pyankov, A.S.Sagdullayev va boshqalar). Ilmiy adabiyotlar O‘rta Osiyoda ahmoniylargacha bo‘lgan davrda mavjud bo‘lgan quyidagi davlat uyushmalari haqida so‘z yuritadi: 1. Aryoshayona - O‘rta Osiyodagi qadimgi viloyatlarning «dahiyosasti» uyushmasi; 2. Aryonam Vayjo - bu ham Aryoshayonadek yoki uning markazi Ariya va Marg‘iyonada bo‘lgan «Katta Xorazm», yoki Amudaryoning quyi oqimidagi Xorazm davlati; 3. Qadimgi Baqtriya davlati. 4. Ko‘chmanchi qabilalar konfederatsiyasi.

So‘nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlar va masalaga yangicha yondashuv asosida ushbu ro‘yxatga qadimgi So‘g‘diyonani ham kiritish imkoniyati paydo bo‘ldi. Tadqiqotlar natijalariga qaraganda, davlatchilikning asosiy omillari bo‘lgan jarayonlar so‘nggi bronza va ilk temir davriga kelib yanada jadallashadi. So‘g‘diyona hududlariga odamlar eng qadimgi davrlardayoq kirib kelib, tog‘, daryo vohalari, keyinchalik esa dasht hududlariga tarqaladilar. Bu hududlarda mavjud bo‘lgan qulay tabiiy-geografik sharoit, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotning rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratadi. Shuningdek, chetdan

bo‘lgan tashqi ta’sirni (iqtisodiy, madaniy- siyosiy va harbiy) ham e’tirof etish lozim bo‘ladi. Mil. avv. IX-VIII asrlarga oid tarixiy-madaniy yodgorliklar (ayniqsa qo‘hna shahar xarobalari) So‘g‘diyona hududlarida davlatchilik tarixi aynan mana shu davrdan boshlanganligidan dalolat beradi.

Ilk davlatchilik masalasida juda ko‘plab ilmiy bahslar bo‘lib o‘tgan bo‘lishiga qaramay, bu masala hanuz o‘z echimini topgan deb hisoblanmaydi. Xususan, «Katta Xorazm» (Avesto tilida Xvarizam, qadimgi fors tilida Xvarazmish, qadimgi yunon tilida Xorasmiya) davlatining hududiy joylashuvi va paydo bo‘lgan davri masalalari ham ancha munozarali mavzu. Arxeologik tadqiqotlar ayrim hollarda yozma manbalar ma’lumotlarini tasdiqlamaydi. Mil. avv. IX-VIII asrlar Xorazm madaniyati Amirobod nomi bilan mashhurdir. Bu madaniyatning me’morchilik yodgorliklari, asosan, chayla va yarim erto‘lalardan iborat bo‘lib mustahkam turar joylar uchramaydi. Xorazmdagi dehqonchilikning rivojidan darak beruvchi yirik sug‘orish inshootlari, mustahkam mudofaaga ega bo‘lgan turar joylar (Ko‘zaliqir, Ding‘alja) mil. avv VI-V asrlarga oiddir.

Qadimgi Xorazmning joylashuv hududlari ham ancha munozarali mavzu hisoblanadi. Ayrim tadqiqotchilar (Tarn, Altxaym) ahmoniylargacha xorazmiylar Parfiya chegaralaridan sharqiy yo‘nalishda Kopetdog‘ yonbag‘irlarida joylashgan desalar, ayrimlari (Xenning, Gershevich) bu davlatning markazi Marv va Hirot atrofida bo‘lib, Kir II bosib olganidan so‘ng Quyi Amudaryoga - hozirgi Xorazm hududlariga ko‘chib o‘tgan deydilar. Ayrim tadqiqotchilar fikricha (S.Tolstov, M.Vorobeva) qadimgi Xorazmning chegaralari hozirgi Xorazm hududlaridan ancha keng bo‘lib, O‘rta Amudaryodagi Qo‘shqal’adan boshlab, Orol dengizigacha bo‘lgan hududlarni o‘z ichiga olgan.

Umuman, mil. avv. VII asrning oxiri - VI asrda Xorazm davlati mavjud bo‘lganligi aniq. Bu davr Xorazmda qurilish va hunarmandchilik ancha rivojlangan. Tadqiqotlar natijasida bu hududlardan bronza va temirdan yasalgan mehnat hamda harbiy qurollar, sopol urchuqlar, bronza igna, bigizlar, sopol idishlar topilgan. Bu topilmalar qo‘shni Marg‘iyona, Baqtriya va So‘g‘diyona topilmalariga o‘xshab ketadi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, O‘rta Osiyodagi ilk davlat uyushmalaridan biri Qadimgi Baqtriya davlatidir. Baqtriyaliklarning yurti Surxon vodiysi, Afg‘onistonning shimoli- sharqi, Tojikistonning janubiy hududlarida joylashib, turli yozma manbalarda Baxdi, Baqtrish, Baqtriyona, Baqtriya, Baxli, Baxlika deb tilga olingan.

Bronza davridagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish (Sopolli, Jarqo‘ton, Oltintepa va b.) keyingi davrlarda yanada jadallik bilan rivojlanadi. Natijada mil. avv. IX-VIII asrlarda Baqtriya hududida harbiy ahamiyatga ega bo‘lgan siyosiy birlashmalar tashkil topadi. Mil. avv. VIII-VII asrlarga kelib Qadimgi Baqtriya davlati Sharqdagi kuchli davlatlardan biriga aylanadi. Ushbu jarayonni arxeologik va yozma manbalar ma’lumotlari ham to‘la tasdiqlaydi. Ayrim tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, bu davr Baqtriya tarkibiga Marg‘iyona va So‘g‘diyona ham (tarixiy-madaniy birlik sifatida) kirgan bo‘lishi mumkin.

Ma’lumotlarga qaraganda, Baqtriyaning tabiiy boyliklari qadim davrlardayoq Sharq davlatlarida mashhur edi. Buyuk Ipak yo‘lidan ancha ilgariyoq qadimgi yo‘llarning Baqtriya orqali o‘tganligi bejiz emas.

So‘nggi yillarda olib borilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida qadimgi Baqtriya hududlaridagi manzilgohlar va ko‘hna shaharlar soni anchagina ko‘paydi. Davlatning poytaxti Baqtra va Qiziltepa, Bandixon kabi ko‘plab yodgorliklardan topilgan ko‘p sonli turli-tuman topilmalar bu hududlarda ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, shuningdek, o‘troq va ko‘chmanchi aholi o‘rtasida hamda Yaqin Sharq va Old Osiyo bilan o‘zaro iqtisodiy, madaniy aloqalar gurkirab rivojlanganligidan dalolat beradi.

Turli manbalardagi So‘g‘da, So‘g‘uda, So‘g‘diyona nomlari bilan mashhur bo‘lgan qadimgi tarixiy-madaniy o‘lka hozirgi Zarafshon va Qashqadaryo vohalarini o‘z ichiga olgan. Ilk temir davri So‘g‘diyona hududlarida ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy rivojlanish jarayonlarini kuzatish mumkin. Bu rivojlanish jarayoni mil.avv. IX-V asrlarga oid ko‘p sonli manzilgohlar va ko‘hna shahar xarobalaridagi turli-tuman topilmalar va me’morchilik tuzilish bilan izohlanadi.

Ilk davlatchilikning eng asosiy belgilaridan bo‘lgan ko‘hna shahar xarobalari

So‘g‘diyonadan to‘rtta (Yerqo‘rg‘on, Afrosiyob, Uzunqir, Ko‘ktepa) topib o‘rganilgan bo‘lib, ular hozircha O‘zbekistondagi eng qadimgi rivojlangan shahar madaniyatini o‘zida aks ettiradi.

So‘nggi 10-15 yil ichida Baqtriya, Xorazm, So‘g‘diyona va Marg‘iyona hududlaridan olingan yangi arxeologik ma’lumotlar ilk davlat uyushmalari paydo bo‘lishini yanada kengroq izohlash imkonini yaratadi. Bu ma’lumotlarga qaraganda ilk temir davri Baqtriya, Marg‘iyona, Xorazm va So‘g‘diyona umumiy jamoalaridagi asosiy ishlab chiqaruvchi kuchlarni bir necha kichik oiladan iborat uy jamoalari tashkil etgan. Makonlar joylashuvining tashqi belgilari katta oilali uy jamoalari ancha yirik uyushmalarga kirganligidan dalolat beradi. Boshqaruv tartibida katta oilalar jamoasi boshliqlari yoki uy xo‘jayinlari, shuningdek, alohida qishloq qo‘rg‘onlarini boshqaruvchi eski jamoalar katta o‘rin tutgan. Har bir katta oila mumkin bo‘lgan qarindoshlik aloqalariga qaramasdan alohida uyga, ishlab chiqarish buyumlariga ega bo‘lishgan, o‘zining qishloq xo‘jalik mahsulotlari zahiralari va chorvalari bo‘lgan yoki o‘zini iqtisodiy jihatdan ta’minlay oladigan xo‘jalikni aks ettirgan.

“Avesto”da eng qadimgi viloyatlarning nomlari Yasht kitobining uchinchi va Videvdatning birinchi bobida sanab o‘tilgan. Yasht ro‘yxatidagi birinchi mamlakat eroniy qabilalarning vatani – “Aryonam Vayjo” yoki “oriylarning sayhon erlaridir”. U yurtda ko‘p yaylovlarga ega baland tog‘lar, keng daryolar va chuqur qo‘llar bo‘lgan: keyingi mamlakatlar – Porutu, Iskata, Mouru, Gava Sug‘da, Bahdi, Xvarizam. Kaviylar to‘g‘risidagi yozma ma’lumotlar «Avesto» va «Shohnoma» manbalarda saqlangan? Kaviylar ichida birinchi bo‘lib zardushtiylik dinini Vishtaspa qabul qilgan? Xitoy manbalariga ko‘ra, Ustrushona IV-V asrlarda asrlardayoq mustaqil hokimlik sifatida tilga olinadi.

Yasht quyidagicha xabar beradi: «U mamlakatning jasur sardorlari ko‘pdan–ko‘p harbiy yurishlar qiladi, uning keng yaylovlarga ega, suvga serob tog‘larida chorva tinch o‘tlov va emish bilan ta’minlangan, bu erdagi sersuv – chuqur qo‘llar to‘lqinlanib turadi, kema qatnaydigan keng daryolarning oqimi Porutadagi Iskata, Xarayvadagi Mouru, Sug‘ddagi Gava va Xvarizam tomoniga toshib intiladi”.

Videvdat kitobiga ko‘ra, zardushtiylarning ulug‘ va donishmand xudosi

Axuramazda payg‘ambar Zaratushtraga bunday habar qiladi: “O Spitama Zaratushtra, yashaydigan joylarga, bu erlarda baxtlik qancha kam bo‘lsa–da, tinchlik tortiq qildim. Birinchidan, odamlar yashashi uchun eng yaxshi mamlakatni, Vanxvi Datyo daryosidagi Aryonam Vayjoga asos soldim.

Ikkinchidan, men, Axuramazda, eng yaxshi mamlakatlar va o‘lkalardan bo‘lgan Gava So‘g‘da makoniga asos soldim.

Uchinchidan men, Axuramazda, eng yaxshi mamlakatlar va o‘lkalardan bo‘lgan qudratli Mouruga asos soldim.

To‘rtinchidan, men, Axuramazda, eng yaxshi mamlakatlar va o‘lkalardan bo‘lgan, baland bayroqli go‘zal Bahdiga asos soldim”.

Videvdatning birinchi bobida sanab o‘tilgan mamlakatlar Yasht viloyatlari ro‘yxatidan ancha farq qiladi: Aryonam Vayjo, Gava, Mouru, Bahdi, Nisayyo, Aryo, Vayekereta, Urva, Xnanta, Raga, Chaxro, Varna, nomsiz etti Hind viloyatlari va Ranxa daryosi boshlaridagi mamlakat.

“Avesto”da eng qadimgi mamlakatlar – O‘rta Osiyo va Afg‘oniston, Eronning shimoli–sharqiy hududi bilan bog‘lanadi. Aryonam Vayjo mamlakatini – bu keng hududda joylashgan o‘lka deb tushunish mumkin. U erdagi bepoyon dashtlar, biland tog‘lar – Pomir, Hindiqush, Hisor, Tang‘ritog‘, chuqur qo‘llar – Kaspiy, Orol, keng daryolar – Amudaryo va Sirdaryo deb faraz qilinadi.

Videvdatning maxsus bobida Aryonam Vayjo Vanxvi Datyo (Datiya) daryosi havzasida joylashgan deb e’lon etilgan. «Qish u erda un oy davom etadi, yoz – ikki oy. Qish oylarining suvlari sovuq, erlari sovuq, qishning ohirida u erda katta toshqin suv paydo bo‘ladi».

Aryonam Vayjoning geografik chegaralari to‘g‘risida “Avesto”da aniq ma’lumotlar yo‘q. Aryonam Vayjo iqlimi shimoliy dasht, dasht-o‘rmon hududlari hamda baland tog‘li viloyatlar tabiatiga yaqin bo‘lib ko‘rinadi. Vanxvi Datyo (Datiya, Daiti) daryosi bizga noma’lum bo‘lib, u haqida – bu yirik sersuv daryo deb faraz qilish mumkin (ba’zi olimlar fikriga ko‘ra Amudaryo, boshqalarning taxminicha – Volga).

“Avesto”da tilga olingan yana bir keng sersuv daryo— Ranxa, olimlar taxminiga ko‘ra Sirdaryo bo‘lishi mumkin. Qadimgi yunon tarixchilari ma’lumotlariga qaraganda, Ra daryosi skif tilida – bu Volga daryosidir.

“Avesto”ning boshqa daryolari Zarnumat, Vitanxuxat, Frazdan bizga noma’lum bo‘lib qolgan. Zarnumat daryosi “oltinli” deb tarjima qilinadi. Bu tushuncha Zarafshon nomida ham saqlangan. Yozma manbada tilga olingan qo‘llarning (Chaychast, Vorukash, Kansava, Pishin) hududiy joylashuvi haqida aniq habar berish juda ham og‘irdir. Chaychast nomi – Choch, Vorukash – Balxash, Kansava – Erondagi Xamun ko‘li bo‘lishi mumkin.

Tog‘lar haqida “Avesto” bunday xabar qiladi: “Dunyoda, o Spitama Zaratushtra, ikki ming ikki yuz qirq to‘rt tog‘ bor”. Shular jumlasidan Xara (Xarati), Zardaz, Ushida, Ushidarna, Erzif, Erezur, Raodita, Mazishva, Antar Daxiyo, Erzish, Vatigaysa, Adarana, Xamonkun, Vashan, Vidvan va boshqalar Yashtning un to‘qqizinchi bobida tilga olingan.

Eng baland, oriylarning muqaddas tog‘i – Xara hisoblangan. Uning tizmasida va yana bir guruh boshqa tog‘larda (Adarana, Bayona, Iskata) qor kam erigan. Ularning baland cho‘qqilari qor va muzga aylanib sovuq bo‘lgan. Ularga o‘xshagan tog‘lar Tangritog‘, Pomir Hindiqush tizmalarida joylashish mumkin edi. “Avesto”dagi mamlakatlar nomlari qadimgi tilida yoritilgan ahamoniylar davri mixxatlarida qadimgi yunon tarixchilari asarlarida takror etilgan.

Madaniy aloqalar tizimining rivojlanib borishi.

Ideografiya qadimgi yozuv turida tasvir orqali ifoda eta olmagan g‘oyalar ifodalangan. Ideografiya» bu grekcha so‘z bo‘lib “ideya”-g‘oya, “grafo”-yozaman ma’noni anglatadi?

Mil. avv. VII-VI asrlarda ancha yirik bo‘lgan Qadimgi Baqtriya, Xorazm va So‘g‘diyona davlatlarining aholisi qon-qarindosh bo‘lib, bir-biriga o‘xshash tilda gaplashganlar va juda yaqin madaniy an’analarga ega edilar. Bu davrda jamiyatning hududiy bo‘linishi ko‘zga tashlanib, o‘troqlashuv jarayoni kuchaydi. Muhim savdo yo‘llari bo‘yida tayanch istehkomlar qurildi. Turli qurilishlar bunyod etishda mudofaa inshootlarining ahamiyati birinchi o‘ringa chiqdi.

O‘rni kelganda shuni alohida ta’kidlash lozimki, o‘zbek xalqining ilk davlatchiligi tarixi geografik, hududiy ma’noda nafaqat O‘zbekistonning hozirgi hududi bilan, balki butun O‘rta Osiyoda qadimda yuz bergan etnik, madaniy, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlar bilan bog‘liq holda talqin etilmog‘i lozim. Tarixning qadimgi davrlarida ilk davlatlar orasida va ajdodlarimizning yashash joylari orasida aniq ma’muriy chegaralar yo‘q edi. Qadimgi Baqtriya, Xorazm, So‘g‘d chegaralari tabiiy bo‘lib, yaqin hududlardagi joylarning geografik bo‘luvchisi sifatida dashtlar, cho‘l va tog‘lardan foydalanilgan.

Hozirgi kunga qadar to‘plangan arxeologik ma’lumotlar asosida O‘zbekistonda ilk davlatlarning shakllanishi va rivojlanish jarayoni quyidagi davrlar bilan sanalanishi aniqlandi:

Bronza davri. Mil. avv. II ming yillikning o‘rtalari va ikkinchi yarmi. Unchalik katta bo‘lmagan dehqonchilik vohalari asosida (misol uchun Sherobod vohasi) ilk davlatchilik tizimiga o‘tish davri.

Bronza asridan temir asriga o‘tish davri. Mil. avv. IX-VIII asrlar. Mayda davlat tashkilotlarining rivojlanishi va harbiy siyosiy uyushmalarning vujudga kelishi.

Ilk temir davri. Mil. avv. VII-VI asrlar. Qadimgi Baqtriya, Xorazm va So‘g‘diyona misolidagi davlat uyushmalarining paydo bo‘lishi.

O‘zbek xalqi va uning ajdodlari ilk davlatchiligi taraqqiyoti o‘troq dehqonchilik xo‘jaligi va qadimgi shaharlar tarixi bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan. Ilk davlatlar tashkil bo‘lishida, jamiyat rivojlanishining ichki qonuniyatlaridan tashqari ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarning yuqori darajasi- hunarmandchilik, almashinuv va savdoning kuchayib borishi, siyosiy qarama- qarshiliklar va harbiy to‘qnashuvlar ham ta’sir qildi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, davlatning paydo bo‘lishi uzoq davom etgan jarayondir. Bu jarayon turli xalqlarda turli yo‘llar bilan bo‘lib o‘tgan.

Tadqiqotchilarning fikricha, birinchidan, davlatlar paydo bo‘lishining osiyocha ishlab chiqarish usuliga asoslangan «Sharq yo‘li» bo‘lib, unda iqtisodiyotning asosini irrigatsiya dehqonchiligi tashkil etgan; er va irrigatsiya

inshootlari davlatning mulki bo‘lgan; dehqonchilik jamoasi jamiyatning birlamchi yacheykasi edi; aholining katta qismini safarbar etish zaruriyati prinsipal boshqaruvchilar tabaqasini taqozo etgan.

Ishlab chiqarishning osiyocha usuli mil.avv. V ming yillikdan milodiy I asrgacha daryolar vodiylarida joylashgan Misr, Bobil, Xitoy, Hindiston, O‘rta Osiyo kabi hududlarda yoyilgan.

Davlat tuzilmasining ikkinchi, «Yevropacha yo‘li» Yevropa hududida mil.avv. V asrdan boshlab milodiy III asrgacha qadimgi yunon polislarida mavjud bo‘lgan. Ularda xususiy mulkchilik shakllanishi tufayli kelib chiqqan jamiyatning ijtimoiy mulkiy tabaqalanishuvi jarayoni (tabaqalar shakllanish jarayoni) asosiy omil bo‘ldi.

Ma’lum bir qabila, elat va xalqqa xos hamda muayyan rivojlanish bosqichlari boshqa xalq va hududlardagi davlatchilik jarayonlariga aslo mos tushmaydi. Shunga qaramay, Qadimgi Sharqdagi ilk davlatlarning paydo bo‘lishi va rivojlanishi ko‘pgina umumiy jihatlarga ega ekanligini ta’kidlash joizdir. Aynan mana shuning uchun ham O‘rta Osiyoda ilk davlatlarning paydo bo‘lishi Qadimgi Sharq davlatchiligi tarixi bilan uzviy bog‘liqdir.

Qadimgi Sharqning turli hududlaridagi tabiiy sharoit o‘ziga xos bo‘lib, ko‘pgina davlatlarning paydo bo‘lishi ushbu holat bilan bevosita bog‘liq edi. Ayniqsa, yirik daryolar - Nil, Dajla, Frot, Hind, Gang, Xuanxe, Amudaryo va Sirdaryo Qadimgi Sharq xalqlari tarixiy taqdirida juda katta ahamiyatga ega bo‘ldi.

Ijtimoiy va hududiy birlikning asosi hisoblangan jamoalar mavjudligi Qadimgi Sharq ijtimoiy tuzilmasining muhim o‘ziga xos tomoni edi. Barcha Qadimgi Sharq davlatlari (ayrim shahar-davlatlar bundan mustasno) juda ko‘plab qishloq jamoalaridan tashkil topgan bo‘lib, ularning har birida boshqaruv tartibi bilan bog‘liq ishlar amalga oshirilganda ko‘pgina jamoalar birlashuvi davlat hokimiyati rolining oshishini ta’minlar edi.

Ko‘p hollarda tadqiqotchilar jamoalarning birlashuvi natijasida paydo bo‘lgan davlatchilik tizimini murakkab sug‘orish tartibi tashkil etilishi, erlarni sun’iy sug‘orilishi, daryo vohalari va tog‘ oldi hududlarining o‘zlashtirilishi hamda

to‘g‘onlarning qurilishi bilan bog‘laydilar. Yuqoridagi omillarning mavjud bo‘lganligi aniq. Lekin, ularni tashkil etish nazorat va boshqaruvni, hisob-kitobni talab etar edi. Demak, buning uchun yozuvchi mirzalar, hisob- kitobchilar va hukmdorlar zarurati tug‘ilgan. Mehnat qurollari tayyorlash uchun hunarmandlar faoliyat ko‘rsatgan. Ushbu murakkab tizim xavfsizligini ta’minlash uchun qurolli guruhlar tuzish, hamda ma’lum hududlarni mudofaa inshootlari bilan o‘rab olish kerak bo‘lgan. Shu tariqa jamiyatda ikkita yangi tuzilma-shahar va davlat paydo bo‘la boshlaydi.

Davlat yoki shahar-davlat ma’lum hududlarni o‘z nazoratiga olishi va bu hududlarni kengaytirib borishi natijasida chegaralar paydo bo‘lgan. Hududlarning kengayishi va chegaralarning o‘zgarishi natijasida davlatlar o‘rtasida urushlar kelib chiqadi. Chegaralar masalasida ta’kidlash joizki, qadimgi davrlarda ular ko‘p hollarda tog‘lar va dasht hududlar orqali, ayrim hollarda esa daryolar orqali o‘tgan. Shuning uchun ham tarixiy yondashuv shuni talab etadiki, tarixning turli davrlarida davlatlar chegaralari o‘zgarib turgan va hozirgi chegaralarga mutlaqo mos tushmaydi.

Turli xalqlar va ularning ajdodlari o‘z davlatchiligining shakllanish boqichini ijtimoiy- iqtisodiy va tarixiy-madaniy vaziyatlarga bog‘liq holda turli tarixiy davrlarda bosib o‘tdilar. Bizning kunlarimizgacha saqlanib qolgan dastlabki yozma manbalar - «Avesto», ahmoniylar davri mixxat yozuvlari, qadimgi yunon-rim manbalari qadimgi Sharq va dunyo tarixida birinchi bo‘lib, O‘rta Osiyodagi eng qadimgi xalqlarning nomlarini, alohida joylar, tog‘lar, daryolar va ko‘llarning nomlarini, afsonaviy qahramonlar va podsholarning nomlarini, yurtimiz xalqlarining turmushi, dini, madaniyati, ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy tuzumi to‘g‘risidagi ma’lumotlarni o‘z ichiga oladi. Ushbu yozma manbalar ma’lumotlarini arxeologik tadqiqotlar natijalari bilan solishtirganimizda ilk davlatlarning paydo bo‘lishi masalalariga ko‘pgina aniqliklar kiritish imkoniyati paydo bo‘ladi.

Bronza davriga kelib aholining ijtimoiy va iqtisodiy hayotida katta o‘zgarishlar sodir bo‘ldi. Xususan, qadimgi aholi ishlab chiqarishning ma’lum bir

sohalariga - dehqonchilik, chorvachilik va hunarmandchilikka ixtisoslashib bordi. Bu jarayon ishlab chiqaruvchi kuchlarning o‘sishi va ularning bir erga to‘planishi uchun zamin yaratdi.

Qadimgi xo‘jaliklarning ixtisoslashuvi, sug‘orma dehqonchilikning rivojlanishi, metallning hayotga jadallik bilan kirib kelishi va yoyilishi, hunarmandchilikda turli tarmoqlarning rivojlanishi, o‘zaro ayirboshlash va savdo-sotiqning taraqqiy etishi natijasida jamiyat hayotida ijtimoiy-iqtisodiy yuksalish kuzatiladiki, bu yuksalish ilk davlatchilikning asosiy poydevori hisoblanadi. Ahmoniylargacha bo‘lgan davrda ba’zi bir vohalar, asosiy o‘troq aholi joylashuvi o‘lkalari edi. Ularning hududlarida manzilgohlar, sug‘orish inshootlari, o‘zlashtirilgan er maydonlari bor edi. Bir qancha shunga o‘xshash, daryolar vohalarida joylashgan va umumiy aholi joylashuv hududlari bilan bog‘liq bo‘lgan erlar Baqtriya, So‘g‘diyona, Xorazm kabi tarixiy viloyatlarni tashkil etgan. Mil.avv. III-II asrlarda shakllangan So‘g‘d yozuvi bitiklari Markaziy Osiyo va Sharqiy Turkiston  hududlardan topilgan.

O‘tgan asrning oxirlaridan boshlab hozirgi kunga qadar «Avesto» ma’lumotlari (viloyatlarning Aryoshayona bo‘yicha birlashishi), Gerodot va Gekatey asarlari («Katta Xorazm»), shuningdek, Ktesiyning qadimgi Baqtriya podsholigi haqidagi ma’lumotlari va nihoyat, arxeologik tadqiqotlar natijalari O‘rta Osiyoda ilk davlat uyushmalarining paydo bo‘lishi muammolarini o‘rganish uchun asos bo‘lgan bo‘lishiga qaramasdan, qadimgi davlatlar hududlari, shakllari, boshqaruv tizimi va sanasi bilan bog‘liq bo‘lgan mavzularning ko‘pgina yo‘nalishlari hamon ilmiy bahslarga sabab bo‘lmoqda.

**Nazorat uchun savollar:**

1. Qadimgi So‘g‘diyona hududi va aholi mashg‘uloti haqida nimalar bilasiz?
2. Qadimgi Baqtriya hududi va aholi mashg‘uloti haqida nimalar bilasiz?
3. Qadimgi Xorazm hududi va aholi mashg‘uloti haqida nimalar bilasiz?
4. Hududimizdagi ko‘chmanchi xalqlar kimlar?
5. Manbalarda hududimiz haqida ma’lumotlar mavjud?

6. “Avesto” qanday kitob va uhaqida gapiring

**Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**

1. Murtazayeva R.X. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. Darslik.-T.; Yangi asr avlodi, 2005.

2. Murtazayeva R.X. va boshqalar. O‘zbekiston tarixi. O‘quv qo‘llanma. –T.: Akademiya, 2010.

3. Eshov B.J. O‘zbekiston davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. Darslik,- T., Yangi asr avlodi. 2012

4. Eshov B., Odilov A. O‘zbekiston tarixi. 1-jild. Eng qadimgi davrdan XIX asr o‘rtalarigacha. Darslik. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012.

5. O‘zbekiston tarixi.Darslik II jild.Mualliflar jamoasi. – T.: Yangi asr avlodi. 2015.

6.O‘zbekiston tarixi (1917-1991 yillar). Mas’ul muharrirlar: R.Abdullayev, M.Rahimov, Q.Rajabov.– Toshkent: “O‘zbekiston”, 2019.

## 3-mavzu: Chig‘atoy ulusi va Temuriylar davriga oid tadqiqotlar (2 soat)

**Reja:**

3. Chig‘atoy ulusi tarixiga oid yangi tadqiqotlar
4. Temuriylar davri tarixiga oid yangi tadqiqotlar

**Tayanch so‘z va iboralar:** Mo‘g‘ullar istilosi, Chig‘atoy ulusi, Movarounnahr, Amir Temur, sarbadorlar, yurishlar.

### Chig‘atoy ulusi tarixiga oid yangi tadqiqotlar.

Mo‘g‘ullar istilosidan so‘ng Movarounnahr, Xorazm, Xurosonning gullab-yashnagan dehqonchilik vohalari tamomila halokatga uchradi. Sharq da dong‘i ketgan qadimiy va obod shaharlar, jumladan Samarqand, Buxoro, Urganch (Gurganj), Xo‘jand, Marv, Termiz, Balx, Nishopur va boshqa shaharlar xarobazorga aylantirildi. Marvdagi suv bilan shaharni ta’minlovchi-Sultonband, Balxob daryosidagi Bandi amir, Samarqand shahrini suv bilan ta’minlaydigan yagona to‘g‘onlarning hammasi Chingizxon

buyrug‘iga ko‘ra buzib tashlandi. Jumladan Balx va uning atroflari olti oy mobaynida suv ofatini boshdan kechirdi. Samarqandning asosiy aholisi, buxoroliklarning ko‘pchiligi, Urganch (Gurganj) va Marv kabi ulkan shaharlar ahlining barchasi ona shaharlarini yo tark etdilar yoki qirib tashlandilar. Istilochilar ilk bora yuqori madaniyatli aholining ilm-fan, me’morchilik sohalaridagi yutuqlarini, yuksak darajadagi hunarmandchilik, tijorat, sug‘orma dehqonchilikni shu o‘lkaga kelib ko‘rdilar.

Bosqindan so‘ng Sharq qa dong‘i ketgan zargarlik, qurol-aslaha yasash, nafis matolar to‘qish, naqshinkor nimchalar ishlab chiqarish va boshqalar barham topdi. Vohalarda suvsizlikdan erlar qaqrab, dehqonchilikka qiron keldi. Bir necha asrlik tarixga ega bo‘lgan mashhur savdo yo‘llari izdan chiqdi. Ilm-fan, madaniyat namoyondalari xor-zor etildi, tirik qolgan aholi esa zulm va zo‘ravonlik, ochlik va qashshoqlikka mahkum etildi.

Chingizxon tiriklik vaqtidayoq o‘z o‘g‘illariga mulklarini ulus qilib bo‘lib berishni boshlagan edi. 1207 yildayoq katta o‘g‘il ilkiga Selenga daryosidan Irtishgacha bo‘lgan erlar mulk etib berilgan edi. Chingizxon o‘limi arafasida (1227 yil avgust) esa boshqa o‘g‘illariga ham turli zabt etilgan erlarni ulus etib bo‘lib berdi. Janubiy Sibirdan Xorazm va Darbandgacha bo‘lgan erlar Jo‘chiga, Oltoy tog‘larining janubiy sarhadlaridan to Amudaryo va Sindgacha bo‘lgan erlar ikkinchi o‘g‘il Chig‘atoyga, Xitoy va Mo‘g‘uliston voris bo‘lmish uchinchi o‘g‘il O‘gedeyga, Eron va Xuroson Tuliga ulus tarzida bo‘lib berildi.

Rashididdinning ma’lumotiga ko‘ra, Chingizxon vafotidan so‘ng Chig‘atoyga 4000 ta askar tekkan ekan. Ularning boshliqlari o‘z navbatida barlos, jaloyir, qavchin va orlot qabilalaridan bo‘lgan. Ibn Arabshohning yozishicha qavchinlar Amudaryo shimoli, Buxoroning Sharq iy tomonlarida, barloslar Qashqadaryo vohasida, orlotlar Afg‘oniston shimolida joylashganlar. Keyinchalik Mahmud Yalavoch ham o‘z siyosati borasida shu qabilalarga suyanib ish ko‘rar edi. Mo‘g‘ullar ko‘chmanchi xalq bo‘lgani uchun boshqaruv tizimini yaxshi tushunmas edilar. Chingizxon tiriklik vaqtidayoq xorazmlik taniqli savdogar, mo‘g‘ullar xizmatida anchadan beri faoliyat ko‘rsatayotgan Mahmud Yalavochni Movarounnahr noibi etib tayinlashini bildirgan edi va u tez orada Movarounnahr noibi etib tayinlanadi. Uning qarorgohi esa Xo‘jand shahrida joylashdi. Shubhasiz, Mahmud Yalavoch yirik va boy savdogar bo‘lib, manbalarning xabariga ko‘ra uning boyligi shunchalik ko‘p bo‘lganki, hatto u butun Movarounnahrdan olinadigan

soliqni oldindan to‘lashi ham mumkin edi. Uning ixtiyorida mo‘g‘ullarning tayanchi bo‘lgan soliq yig‘uvchi mo‘g‘ul bosqoqlari, mahalliy hokimlar, dorug‘alar-harbiy ma’murlar hamda bir muncha mo‘g‘ul harbiy otryadlari bor edi.

Mahmud Yalavochga soliqlar tushumini muntazam nazorat etish, o‘lkada mo‘g‘ullarga qarshi g‘alayon bo‘lishini oldini olish ma’suliyati yuklatilgan edi. Ko‘pchilik aslzoda zodagonlar, savdogarlar, qisman ulamolar ham o‘z jonlari va qolgan mol-mulklarini saqlab qolish borasida xiyonatkorona tarzda bosqinchilar xizmatiga o‘ta boshladilar.

O‘z navbatida o‘lkada o‘zlarining tayanch vositasi bo‘lishlariga harakat qilgan mo‘g‘ullar ham bu toifadagi kishilarni qo‘llab-quvvatlay boshladilar. Mo‘g‘ul xonlari (viloyat hokimlari xon, oliy hukmdor esa qoon yoki hoqon deb yuritilgan) va mahalliy zodagon, er egalarining zulmi natijasida mehnatkash xalq endilikda ikki tomonlama ezila boshlandi. O‘lponu - soliqlarning miqdori tobora oshib bordi, undan tashqari esa aholidan yig‘ib olinadigan turli to‘lovu - yig‘imlar, jarimalarning soni haddan tashqari oshib keta boshladi. Yangi er solig‘ining nomi - «kalon» deyilib, u hosilning o‘ndan bir miqdorida olingan. 1235 yilgi qurultoydan so‘ng esa chorva mol boshidan olinadigan yalpi soliq-«qopchur» ta’sis etilgan. Unga ko‘ra 100 tadan bir miqdorda chorva soliqqa to‘lanar edi. (Bu soliq asosan mo‘g‘ullar turmush tarzi xususiyatini hisobga olgan holda joriy etilgan edi). “Yasoq“qa ko‘ra davlat xazinasi uchun “shulen” deb nom olgan oziq-ovqat solig‘i joriy qilingan.

Mazkur soliqqa ko‘ra har bir podadan ikki yashar qo‘y, qimiz uchun har mingta otdan bir biya hisobidan olingan. Soliqlar asosan xonlar tomonidan barot (ijara) tarzida oldindan xazina uchun undirilib, so‘ngra aholidan zo‘ravonlik bilan oshirilgan miqdorda undirilar edi. Ayniqsa, hunarmandlarning ahvoli og‘ir bo‘lgan. Ularning o‘z yurtlarida tirik qolganlariga mahalliy xonlarning mulki sifatida muomala qilinar edi. Masalan, 1262 yil Buxoroda bo‘lgan Xubilay qoonning vakili bu erda 5000 ta hunarmand Botuxonga, 3000 tasi malika Siyurko‘kteniga (Xubilay va Munqalarning onasi) tegishli bo‘lganligini qayd etadi. 1246 yil Mo‘g‘ulistonda bo‘lgan sayyoh Plano Karpini eng yaxshi hunarmandlar hoqon xizmatida ekanligini va ularga qullarcha munosabatda bo‘lishlarini qayd etib o‘tadi. Bu guruh shaharlik hunarmandlarga esa kundalik ovqat berilib, ularga darhaqiqat qullarcha munosabatda bo‘lingan bo‘lsa, ikkinchi guruh shaharlik hunarmandlarga esa katta soliqlar solingan.

Chig‘atoy ulusi tarixiga dastlabki qiziqish G‘arbda XIXasrning birinchi yarmida boshlanib, bunday ishlar umumiy Mo‘g‘ul davlati tarixi bilan chambarchas bog‘liqdir. Mo‘g‘ul davlati tarixining u yoki bu jihatlari D’Osson, YE. Bretshnayder, E. Oliver, R. Grusse, J. Sanders, B. Shpuler, Dj. Boyl, D. Morgan, J. Fletcher, T. Ollsen kabi G‘arb olimlari tomonidan o‘rganilgan3. Ushbu ilmiy asarlarda, asosan, Chingizxon imperiyasining umumiy holati yoritilgan bo‘lib, ularda Chig‘atoy ulusi tarixi yirik mo‘g‘ul imperiyasining tarkibiy qismi sifatida ko‘rib chiqilgan. Ular orasida faqatgina E. Oliverning maqolasida Chig‘atoy ulusidagi siyosiy tuzum va uning ma’muriy tuzilishi masalalari qisman aks etgan, xolos.Shu o‘rinda Chig‘atoy ulusi siyosiy tarixiga oid bir qancha asarlar muallifi xitoylik olim Lyu Inshenning ilmiy faoliyati haqida to‘xtalib o‘tish kerak. U o‘zining ingliz va xitoy tillarida chop etilgan ilmiy ishlarida XIII–XIV asrlarda Markaziy Osiyoda kechgan siyosiy jarayonlarning ko‘p jihatlarini xitoy manbalari asosida tahlil qilgan7.

XIX asrning birinchi yarmidan boshlab rus olimlaridan N.Y. (Iakinf) Bichurin, V. Grigoryev, I. Berezin, V. G.Tizengauzen, N.I. Veselovskiylar tomonidan mo‘g‘ullar tarixiga bag‘ishlangan dastlabki asarlar nashr qilingan8. Bu davrda yuqoridagi asarlardan farqli ravishda V.V. Bartold Chig‘atoy ulusi tarixiga bag‘ishlangan maxsus tadqiqotni amalga oshirgan. Uning “Turkestan v epoxu mongolskogo nashestviya” nomli asarida Chig‘atoy ulusi tarixining siyosiy holati yoritilgan bo‘lsa ham, chingiziylarning markaziy boshqaruvi, Movarounnahrdagi mahalliy idora usuli, lavozimlar, ijtimoiy hayotdagi o‘zgarishlar, shaharlarning iqtisodiy ahvoli va xalqaro savdodagi ishtiroki alohida tadqiq etilmagan9. XX asrning 90- yillardan boshlab rus tadqiqotchilarining mo‘g‘ullar davlatchiligi tarixiga doir tadqiqotlari sezilarli ravishda ko‘paygan. Ular sirasiga V.V. Trepavlov, O. Karayev, N.S. Trubetskaya, S.G. Klyashtorniy, A.M. Xazanov, A.G. Yurchenko, T.I. Sultanov, O.Y. Klyukova kabi olimlarning asarlarini kiritish mumkin14. Mazkur asarlarda asosiy e’tibor mo‘g‘ul davlatchiligining muhim jihatlari va bu davr tarixining asosiy figuralari, Chingizxonning vorislari amalga oshirgan siyosat kabi masalalarga qaratilgan. Ayni paytda masalaning Chig‘atoy ulusi bilan bog‘liq jihatlariga tadqiqotchilar tomonidan nisbatan umumiy tarzda fikr bildirib o‘tilgan. O‘zbekistonda ham ulus tarixiga bag‘ishlangan ilmiy ishlar soni nisbatan kam. 2019 yil Achilova Gulmira Mardonovna “Movarounnahrning Chig‘atoy ulusi tarkibidagi siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti (1127-1370)” nomli tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

dissertatsiyasini himoya qilgan.

## Temuriylar davri tarixiga oid yangi tadqiqotlar

Hozirgi kunga kelib dunyo miqiyosida va mamlakatimizda Amir Temur va temuriylar davri tarixiga oid ko‘plab ilmiy asarlar, tadqiqotlar yaratilgan. Ularni hududiy hamda davriy tamoyillarga ko‘ra 4 guruhga ajratish mumkin: 1) xorijiy mamlakatlarda chop etilgan adabiyotlar; 2) Rossiya imperiyasi davrida yaratilgan asarlar; 3) sovet davrida tadqiq etilgan ilmiy izlanishlar; 4) mustaqillik yillarida mamlakatimizda olib borilgan tadqiqotlar.

1. Xorijiy mamlakatlarda chop etilgan adabiyotlar. Xorijlik olimlar tomonidan Amir Temur va temuriylar davri tarixi bir necha asrlardan beri keng tarzda o‘rganib kelinmoqda. Amir Temur shaxsi va u tomonidan markazlashgan davlat tuzilishi, diplomatik munosabatlar, harbiy yurishlar kabi masalalar ko‘plab tarixchilarni qiziqtirgan mavzulardan biri bo‘lib qolmoqda. Jahon tarixshunosligining bir qator yirik vakillari Amir Temur va temuriylar davri tarixining turli masalalariga oid izlanishlar olib borganlar. Jahon temurshunosligining rivojiga fransuz sharqshunoslari katta hissa qo‘shib kelmoqdalar. Ulardan biri Bartelemi d’Erbloning “Par la Compagnie des Libraires” (Sharq kutubxonasi)asarida sharq mamlakatlari tarixi borasida so‘z yuritish asnosida Amir Temur haqida ham hikoya qilinadi. Fransuz sharqshunosi Djozef De-Gin o‘zining “Historie generale des huns, des turcs, des mongols, et des autres tartars occidentaux.” (Xunlarning umumiy tarixi...) nomli asari 5 tomdan iborat bo‘lib, IV-V tomida Amir Temur va temuriylar davri tarixi haqida ham ma’lumotlar berilgan. Fransuz tarixshunosligida Amir Temur tarixiga oid yaratilgan tadqiqotlar orasida L. Lyanglening “Temur hayoti” asari ham muhim o‘rin tutadi. Asarga qiziqish yuqori bo‘lganligi uning XIX asrdayoq rus tiliga tarjima qilinib, nashr ettirilganidan seziladi. Amir Temur va temuriylar davri tarixining yirik tadqiqotchilaridan biri L.Keren o‘zining “Tamerlan, l’empire du seigneur de fer” (Amir Temur saltanati) asarida Movarounnahr tarixiga oid masalalarga to‘xtalib o‘tgan.

Ingliz tilida ham Amir Temur tarixiga bag‘ishlangan ko‘plab ilmiy asarlar yaratilgan. Ulardan biri Xilda Xukxemning “Tamburlaine of Conqueror…” (“Yetti iqlim hukmdori”) tadqiqoti bo‘lib, tarixiy manba va ilmiy adabiyotlar tahlili asosida yozilgan. Xorij tadqiqotlari orasida Beatris Forbes Mansning Amir Temur va temuriylar davri

tarixiga bag'ishlangan asarlari alohida ta'kidlash o'rinli.

Temurshunoslik Turkiyada ham jadal rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunga qadar turk tilida 362 ta ilmiy ish e'lon qilinganligi ham buning yorqin dalilidir. Turkiyada temurshunoslikning taraqqiy etishiga Ismoil Aka o'z tadqiqotlari bilan katta hissa qo'shgan. Muallifning "Timur ve Devleti" ("Temur va davlati") asarida XIV-XV asrtarixiga oid fikr mulohazalar uchraydi. Ismoil Aka Amir Temurning markazlashgan davlat tuzish borasidagi harakatlariga alohida to'xtaladi. Alan Xayrunnisaning "Sultan Ebu Said Devri Timurlu Tarihi" (1451-1469) ("Sulton Abu Sa'id davri temuriylar tarixi") tadqiqoti temuriy hukmdor Abu Sa'id hukmronligining to'liq yoritadi.

Bundan tashqari, Chor Rossiyasi va sobiq sovet davlatida ham Amir Temur va temuriylar davri yetarli darajada yoritilsa-da, unda mustamlakachilik va sovet mafkurasi tarixiy voqelikni soxtalashtirib yuboradi. V.V.Bartold, A.Y.Yakubovskiy, I.M.Mo'minov, S.A.Azimjonova, O.D.Chexovich, M.Abduraimov, N.Mahmudov, A.Juvonmardiyev, B.G.G'ofurovlar ushbu davrlarda tadqiqot olib borgan yirik olimlar hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida alohida tadqiqotlar e'lon qilingan bo'lib, ular orasida sharqshunos va tarixchi olimlar jamoasi tomonidan yaratilgan fundamental asarlar alohida ajralib turadi. Jumladan, "Temur va Ulug'bek davri tarixi" asarida XV asrda Farg'onada bo'lib o'tgan siyosiy voqealar, jumladan, Farg'onaning Mirzo Ulug'bek mulklari tarkibiga kiritilishi masalalari xususida so'z yuritilgan.
"Amir Temur jahon tarixida" Amir Temurning nafaqat siyosiy faoliyati, balki, diplomatik aloqalariga ham to'xtalinadi. E.V.Rtveladze va D.Alimovalarning mas'ul muharrirligida nashr etilgan "Istoriya Uzbekistana. Epoxa Amir Temura i Temuridov" monografiyasi temurshunoslikda muhim voqea bo'ldi. Monografiyada dastlab manbashunoslik va tarixshunoslik masalalari keng qamrovda tadqiq etilib, temurshunoslikning rivojlanib borish dinamikasi, undagi yo'nalishlar yoritib berilgan. Mustaqillik yillarida bir qator mualliflar tomonidan Amir Temur va Temuriylar davri tarixiga oid salmoqli asarlar yaratildi. Bu borada B.Ahmedov, A.Muhammadjonov, A.Asqarov, A.Ahmedov, S.Jalilov, T.Fayziyev, D.Y.Yusupova, Azamat Ziyo, O.Bo'riyev, Sh.O'ljayeva va boshqalarning ilmiy asarlari hamda tadqiqotlarini tilga olishimiz mumkin.

B.Ahmedov yuqorida ta'kidlangan "Temur va Ulug'bek davri tarixi", "Amir Temur jahon tarixida" asarlarining siyosiy voqealar tahliliga doir qismlariga mualliflik

qilish bilan birgalikda Amir Temur tarixiga bag‘ishlangan bir qator tadqiqotlar ham yaratdi. Muallifning mustabid sovet davrining so‘nggi yillarida nashr etilgan “Ulug‘bek”, mustaqillik davrida chop etilgan “O‘zbek ulusi”, “Tarixdan saboqlar”, “Amir Temurni yod etib”, “Sohibqiron Temur” kabi asarlari va maqolalar to‘plamlarida Amir Temur va temuriy hukmdorlar faoliyatini keng yoritdi.

A.Muhammadjonovning “Temur va Temuriylar saltanati” risolasi, T.Fayziyevning “Temuriylar shajarasi” asari, A.Asqarovning “O‘zbek xalqining kelib chiqishi tarixi”, Azamat Ziyoning “O‘zbek davlatchiligi tarixi” asari, O.Bo‘riyevning “Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo” asari, X. Fayziyevning “Shohruh mirzo va uning tashqi siyosati” nomli monografiyasi, Sh. O‘ljayevaning “Amir Temur davlat boshqaruvi” va “Amir Temur diplomatiyasi” asarlari, H. Dadaboyevning “Amir Temur davrdoshlari” (mo‘jaz ensiklopediya) asari mustaqillik davrida e’lon qilingan yirik nashrlar hisoblanadi. 2019 yilda Farg‘ona davlat universiteti O‘zbekiston tarixi kafedrasi dotsenti B.Usmonov “Farg‘ona vodiysi Amir Temur va temuriylar davrida” nomli monografiyasi chop etildi. Monografiyada Amir Temur va temuriylar davrida Farg‘ona vodiysining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti yoritilgan bo‘lib, bu temuriyshunoslikda so‘nggi yutuqlardan biri hisoblanadi.

**Nazorat uchun savollar**:

1. Mo‘g‘ullar istilosi qanday salbiy oqibatlar keltirib chiqardi?
2. Chig‘atoyga qaysi hududlar berilgan?
3. Chig‘atoy ulusining ma’muriy boshqaruvi qanday edi?
4. Mahmud Tarobiy qo‘zg‘aloni haqida nimalar bilasiz?
5. Amir Temur qanday vaziyatda siyosiy maydonga chiqdi?
6. Amir Temurning harbiy yurishlari haqida gapiring
7. Amir Temur vafotidan so‘ng Movarounnahrdagi vaziyat qanday edi?
8. Amir Temur vafotidan so‘ng Xurosondagi vaziyat qanday edi?
9. Chig‘atoy ulusi tarixi bo‘yicha qanday tadqiqotlar olib borilgan?
10. Amir Temur va temuriylar tarixi bo‘yicha qanday ilmiy nashrlar chop etildi?

**Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**


1. Ahmedov B. Sohibqiron Temur (hayoti va ijtimoiy-siyosiy faoliyati). -T.: Fan, 1996.
2. Ahmedov B. O‘zbek ulusi. –T.: Meros, 1992.
3. Bobur Z.M. Boburnoma. -T.: Fan, 1960.

4. Mirzo Ulug‘bek. To‘rt ulus tarixi. -T.: Cho‘lpon, 1994.
5. Muhammadjonov A. Temur va temuriylar davri. –T.: Fan, 1996.
6. Mo‘minov I. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli.-T.: Fan, 1993.
7. Temur tuzuklari. -T.: G‘afur G‘ulom, 1991.
8. Temur va Ulug‘bek davri tarixi. –T.: Qomuslar bosh taxririyati, 1996.
9. Shomiy Nizomiddin. Zafarnoma. -T.: O‘zbekiston, 1996.
10. Yazdiy Sh. Zafarnoma. –T.: Sharq, 1997.
11. Ibn Arabshoh. Amir Temur tarixi. Ikki jildlik. -T.: Mehnat, 1992.
12. Usmonov B. Rossiya tarixshunosligida Amir Temur siymosi – T.: Fan. 2011. 128 b.
13. Amir Temur jahon tarixida.-T.: Sharq, 1996. - 295 b.
14. Usmonov B. Amir Temur davlati – T.: Adabiyot uchqunlari. 2016. 124 b.
15. Ahmedov B. Tarixdan saboqlar. -T.: O‘qituvchi, 1994.- 432 b.
16. Zahriddin Muhammad Bobur. Boburnoma / Nashrga tayyorlovchi P. Shamsiyev – T.: Yulduzcha. 1989
17. Muiniddin Natanziy. Muntaxab ut-tavorixi Muiniy / Fors tilidan tarjima, so‘z boshi va izohlar muallifi G‘ulom Karimiy – T.: O‘zbekiston. 2011. 264 b.
18. Fayziyev T. Temuriylar shajarasi – T.: Yozuvchi. 1995.
19. Ahmedov B. Amir Temur. -T.:Meros, 1995. - 640 b.
20. Ahmedov B. Amir Temurni yod etib. -T.: O‘zbekiston, 1996.- 368 b.
21. Ahmedov B. Sohibqiron Temur. – T.: Nur, 1996.
22. Mo‘minov I. Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli. -T.: Fan, 1993. - 56 b.
23. Usmonov B.A. Farg‘ona vodiysi Amir Temur va temuriylar davrida. Monografiya. – “Farg‘ona”, 2019. – 288b.
24. G‘iyosiddin Xondamir. Habib us-siyar fi axbori afrodi bashar / Fors tilidan tarjima, muqaddima mualliflari – Jalil Hazratqulov, Ismoil Bekjonov, Izohlar mualliflari – Ashraf Ahmedov, Ismoil Bekjonov, – T.: O‘zbekiston. 2013. 1272 b.
25. Muhammad Haydar Mirzo Tarixi Rashidiy/ So‘z boshi va izohlar muallifi hamda tarjimonlar V. Rahmonov va Y. Egamova – T.: Sharq. 2010. 720 b.

## 4-mavzu: Shayboniylar, Ashtarxoniylar va xonliklar davriga oid tadqiqotlar (2 soat)

**Режа:**

1. Shayboniylar va Ashtarxoniylar davri tarixiga oid yangi tadqiqotlar
2. Xonliklar davriga oid yangi tadqiqotlar

**Tayanch so'z va iboralar:** Muhammad Shayboniyxon, Abdullaxon II, Buxoro xonligi, Eron, Xorazm, ashtarxoniylar, Imomqulixon, Xorazm, Xiva xonligi, Qo'qon xonligi.

## Shayboniylar va Ashtarxoniylar davri tarixiga oid yangi tadqiqotlar

Shayboniylar va Ashtarxoniylar davrining manbalar asosida tadqiq etish ancha vaqt yurtimizda biroz sekin kechdi. O'rta Osiyo tarixining aynan shu davri to'lao'rganilmaganligiga sabab tarixiy manbalarning yukligi emas, balki ularning xilma-xilligidir. XVI asrdagi O'rta Osiyo xalklari tarixining mufassal, ko'p sonli tarixiy manbalarga asoslangan taxlili juda kam. Ular jumlasiga B.A.Axmedov, YE.A.Davidovich, X.Z.Ziyayev, R.M.Mukminova, O.D.Chexovich va boshkalarning bir kator asarlarini kiritish mumkin.

O'rta Osiyoning XVI asr tarixini o'rganishda "O'zbekiston tarixiy manbalarda" seriyasida chiqarilayotgan kitoblar muxim axamiyat kasb etadi. Undan sharqshunos B.V.Lunin to'plagan sayoxatchilar, geograf olimlar xaqidagi ma'lumotlar o'rin olgan. Muallif Samarqand va Buxoro XVI asrda UzoqSharq mamlakatlari, Osiyo va Yevropaga boradigan savdo yo'llarida va xalqaro madaniy alokalarda muxim o'rin tutganini ta'kidlaydi, darxakikat bu davrda G'arbiyYevropa va Rossiyadagi O'rta Osiyoto'g'risidagi bilimlar, bir-biri to'g'risida bilishga qiziqish tobora kuchaymokda edi.

Shayboniylar davri haqida ma'lumot beruvchi "Tavorixi guzida" ("Nusratnoma") 1502-1505 yillar orasida, eski o'zbek tilida yozilgan, birok muallifi aytilmagan. Tadqiqotchilar orasida bu xususda turlicha fikrlar mavjud. A.A.Semyonov, R.G.Mukminova va V.P.Yudin ushbu kitobni Shayboniyxon tomonidan yoki uning faol ishtirokida yozilgan deb xisoblaydilar. Ushbu asarni atroflicha o'rgangan A.M.Ikromovning fikricha bu asar ijodkori Muxammad Solixdir. Shuningdek, bu asarda V.V.Bartold, S.K.Ibroximov, S.A.Azimjonova, K.E.Petrov, B.A.Axmedovlar xam o'z ilmiy izlanishlarida foydalanishgan. Bu asarning matni faksimili (fotonusxa) ilmiy izoxlar bilan 1967 yilda Toshkentda A.M.Ikromov tomonidan e'lon qilingan. Undan ayrim parchalar rus tilida 1969 yili Olma-Otada V.P.Yudin tomonidan e'lon qilingan.

Shayboniylarga xizmat kilgan Muxammad Solixning "Shayboniynoma" asarida Binoiyning "Shayboniynoma"siga nisbatan yangi ma'lumotlar berilgan. Asar 1505 yildan

keyin yozilgan bo‘lib, ikkita qo‘lyozmasi saqlanib qolgan. Kitobning 1885 va 1908 yillarda asl matni 1961 yilda N.Davron tomonidan, xamda 1989 yilda o‘zbek tilida nashr etilgan.

XV asrdan boshlab yaratilgan tarixiy, badiiy va ilmiy asarlar qo‘lyozmalari, kitoblari birinchi navbatda yozuv, xat turi xususiyatlari, kitobat fani, san’ati jixatidan yuksak saviyasi, baliiy bezaklari bilan ajralib turadi. Shayboniylar davrida yaratilgan qo‘lyozmalar asosan podshox va ayonlar uchun muljallangan. Shuning uchun xam ular kitobat san’atining shox asarlari darajasida yaratilgan.

Shayboniylar davriga oid fors tilidagi manbalar tarixshunosligi xam birmuncha tadjik qilingan. Shayboniyxonning inisi Maxmud Sulton topshirigi bilan yozilgan (1502) “Fatxnoma” she’riy dostoni muallifi Mulla Shodiydir. Asar birorta tilga tarjima kilinmagan. Uning qo‘lyozma nusxalari ko‘pgina mamlakatlarning kutubxonalarida saqlanadi. O‘zR FA Sharqshunoslik institutidagi (Inv№ 5369) qo‘lyozma juda qimmatli bo‘lib, XVI asrda ko‘chirilgan va unda turli mavzudagi 9 ta ajoyib miniatyura bilan bezatilgan. Kamoliddin Binoiyning “Shayboniynoma” she’riy dostoni matni xam chop etilmagan. Lekin, uning qo‘lyozma nusxalari ko‘p tarkalgan. Fakat O‘zR FA Sharqshunoslik instituti qo‘lyozmalar xazinasida 7 ta nusxasi mavjud.

Fazlullox ibn Ro‘zbexonning “Mexmonnomai Buxoro” asarining qo‘lyozma nusxalari kam. Fakat ikkita nusxasi borligi aniklangan. Ulardan biri muallif dastxati bo‘lib, O‘zR FA Sharqshunoslik institutida 1414 tartib rakami ostida saqlanmokda. Ushbu qo‘lyozma asosida asar matnini eronlik olim M. Stude 1962 yili chop etgan. Ruscha kiskartirilgan tarjimasini R.P.Jalilova foto matni bilan Moskvada 1976 yili nashr etgan.

Alisher Navoiyning e’tiborini kozongan tarixchi olim G‘iyosiddin Xondamirning “X,abib us-siyar” asari xam XV asr oxiri - XVI asrning birinchi choragidagi ijtimoiy-siyosiy tarixni o‘rganishda muxim manba bo‘lib, uning qo‘lyozma nusxalari ko‘p. Asarning matni 1857 yili Bombeyda va 1954 yili Texronda chop qilingan. Xondamir ijodini O‘zbekistonda B.Axmedov, D.Yusupova, M.Axmedov tadqiq etganlar.

Mirza Muxammad Xaydarning “Tarixi Rashidiy” asari o‘tgan asrning o‘rtalarida ilmiy jamoatchilik e’tiborini jalb etib keladi. To‘liq ruscha tarjimasi 1996 yili va o‘zbekcha nashri 2010 yili Toshkentda chop etildi.

Shayboniylar davrining siyosiy vakealari batafsil bayon etilgan Xofiz Tanish

Buxoriyning “Abdullanoma” yoki “Sharafnomayi shoxiy” asari qofiyali nasr, ya’ni saj - murakkab badiiy uslubda yozilgan. Asarning qo‘lyozma nusxalari ko‘p, asl matnning uchdan ikki kismini Sankt- Peterburglik olima M. Saloxiddinova ruscha tarjimasi bilan chop etgan. Kitob 1942-1952 yillari S.Mirzayev va oxirgi kismi Y.Xakimjonov tomonidan 60-yillarda o‘zbek tiliga tarjima kilinib, zarur tuzatish va izoxlar bilan 1966 va 1969 yillar B.Axmedov tomonidan chop qilingan. 1995-1997 yillarda ikki kitob xolida B.Axmedov tomonidan nashr etildi.

Muxammadyor ibn Arab Qatag‘an va uning “Musaxxir al-bilod” (mamlakatlarni buysundiruvchi) asari yaqinvaqtlargacha ilmiy jamoatchilikka yaxshi ma’lum bo‘lmagan, qolaversa asar xaqida turlicha, ko‘p xollarda bir-biriga zid fikrlar xukm surardi. I.A.Saloxiddinova “Musaxxir al-bilod” mustaqil asar ekanligini aniqladi va asar xamda uning muallifi xaqida qisqa ilmiy axborot e’lon kildi.

“Musaxxir al-bilod” kam o‘rganilgan, qo‘lyozma nusxalari xam kam. 2008 yilda da bu asar Texronda va 2009 yilda Toshkentda nashr etildi. Fors tilidan tarjima, izoxlar va ko‘rsatgichlar mualliflari I.Bekjonov va D.Sangirovalardir.

Mashxur adabiyotshunos olim Amir Axmad Roziyning “Xaft iqlim” (Yetti iqlim) nomli geografik-biografik asarida XVI asrda faoliyat ko‘rsatgan shayx, olim, shoir va davlat arboblari xaqidaqimmatli ma’lumotlar beradi. Asarning qo‘lyozma nusxalari ko‘p, lekin xali to‘liq nashr kilinmagan.

Eronlik tarixchi Iskandarbek Munshiy tomonidan yaratilgan “Tarixi olamoroyi Abbosiy” asarida O‘zbekistonning XVI asr oxiridagi siyosiy axvoli xaqida noyob ma’lumotlarni uchratamiz. Asardan ayrim parchalarB.Dorn (matni) va V.V.Velyaminov-Zernov tomonidan matni va kiskartirilgan ruscha tarjimasi nashr etilgan. Kitob matni Texronda 1896 yili toshbosma va 1956 yili bosmasi chop etilgan.

Shayboniy Navruz Axmadxonning tarbiyachisi, Keldi Muxammadxon xukumatida kozi askar lavozimida xizmat kilgan, xurosonlik Zayniddin Vosifiyning “Badoyi’ ul-vakoyi’” (1539) asarida Movarounnaxrning XV asr oxiri - XVI asr birinchi yarmidagi ijtimoiy-siyosiy va madaniy xayotiga oid ma’lumotlar ko‘p. Asarning tanqidiy matnini A.N.Boldirev 1961 yili chop etgan. Asar 1826 va 1907 yillarda Xorazmda Dilovarxoja va Muxammad

Amin to‘ra tomonidan o‘zbek tiliga tarjima kilinagan. Uning ayrim kismlari N.Norkulov tomonidan tarjima kilinib, 1979 yili nashr etilgan.

Turk admirali Seydi Ali Reisning “Mir’ot ul-mamolik” asarida Shayboniy xukmdorlar bilan uchrashuvlari bayon kilinadi. Asar Sh.Zunnunov tomonidan o‘zbek tiliga tarjima kilinib, 1963 yili Toshkentda nashr etilgan.

Shayboniy xukmdorlar ichida naqshbandiya tariqati pirlariga murid bo‘lganlari va ijodiy faoliyat bilan shug‘ullangan Sultonlar xaqida filologik nuktai nazardan qilingantadqiqotlar xam bu davr xaqida qisman ma’lumotlar beradi. Ayniksa, Shayboniy Ubaydullaxon ijodi va siyosiy faoliyati to‘g‘risida bir kancha tadqiqotlar qilingan. Ubaydullaxonning ijod namunalari, xususan devoni bir necha marta nashr qilingan.

Sovet davri tarixchilari orasida V. V. Bartold, A. A. Semyonov, P. P. Ivanov va boshqalarning tadqiqotlarida shayboniylar davriga muayyan darajada baho berilgan. Maxalliy tarixchilardan G.A.Pugachenkova, R.G.Mukminova va Z.I.Raximovatadqiqotlarini aloxida qayd etish lozim.

Mustaqillik yillarida o‘zbek davlatchiligi tarixida alohida ahamiyat kasb etgan Amir Temur va temuriylar davri tarixini yoritishga e’tibor kuchaytirilib, shayboniylar davri tarixi nisbatan kamroq tadqiq etildi. Shunday bo‘lsa-da, bu davr tarixchi olimlar tomonidan u yoki bu darajada o‘rganildi (B.Axmedov, X.To‘rayev, G.Sultonova, A.Ziyo, S.Inoyatov, O.Xayitova, Q.Rajabov, R.Mukminova, G.Agzamova, J.Ismoilova, L.Levteyeva, X.Dadaboyev va boshq.) .

XIX asrda O‘rta Osiyoga kelgan Xerman Vamberi shayboniylar davri manbalaridan foydalangan xolda mazkur sulolaning xarbiy-siyosiy faoliyati, ayniqsa, shayboniylarning temuriylar ustidan qozongan g‘alabasi Movarounnaxrning keyingi taqdirini xal qilishda katta ahamiyatga ega bo‘lganligini ta’kidlab, qimmatli ma’lumotlar bergan. AKSH olimi Karter Van Findli, turk olimlari Mustafo Budakva R. Kilich, rus olimiL. A. Bobrov32 33 tadqiqotlarida mavzuga doir ba’zi muloxazalar keltirilgan.

Shayboniylar davri bo‘yicha qilingan ishlar ichida  G. Sultonovaning “XVI asr ikkinchi yarmida Buxoro xonligining Qozoq va Yorkent xonliklari bilan aloqalari” (2005 yil), 3. Mukimovning “Shayboniylar davlati va xukuki”(2007 yil), B. Aminov va A. Zamonovlarning “Jenkinson A. Rossiyadagi Moskvadan Baqtriyadagi Buxoro shaxrigacha 1558 yilgi sayoxat”(2017 yil), A. Zamonovning “Buxoro xonligining qo‘shin tuzilishi va harbiy boshqaruvi (XVI asr)”(2018 yil) kabi nashr va tarjima materiallari ancha salmoqli o‘rin egallaydi. So‘nggi paytlarda esa Farg‘ona davlat universiteti doktoranti A. Nishonov ham ayni shu mavzuda o‘zining bir qator maqolalarini ilmiy

jamoatchilikka taqdim etib kelmoqda.

Yana bir sulola ashtarxoniylar davri haqida toʻxtalsak. Sulola 1601-1757 yillarda Buxoro xonligida xukmronlik qilishgan. Ashtarxoniylar davrida ichki urushlar koʻpayib, markaziy xokimiyat ancha zaiflashadi. Natijada oxirgi sulola xukmdorlari davrida mamlakat sharqida yangi Qoʻqon xonligi davlati vujudga keladi.

Ushbu davr tarixi haqida ma’lumot beruvchi koʻplab manbalar mavjud. Jumladan, “Muqimxon tarixi”, “Baxr ul-asror”, “Dastur al-mulk”, “Ubaydullanoma”, “Abulfayzxon tarixi” kabi bir qator birlamchi manbalarni sanashimiz mumkin.

Hozirgi paytda ushbu manbalar asosida ashtarxoniylar davri boʻyicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar anchayin ozchilikni tashkil etadi. Chor Rossiyasi davrida V.Bartol’d va V. Velyamenov-Zernovlar oʻzlarining tadqiqotlarida ashtarxoniylar davri xususida birmuncha ma’lumotlar bayon etishgan. Sobiq Sovet davrida ham Sultanov T, Salaxetidinova M, Safargaliyev M, Mokeyev A, Nizamutdinov I, Gulyamov X, Abduraimov M,Axmedov B va boshqalar bir qancha ilmiy materiallar e’lon qilishdi.

Xorijda ham ushbu davrga oid bir tadqiqot materiallari Burton A, Mc Chesney R.D. tomonidan e’lon qilingan boʻlib, ular Buxoro xonligining XVII asrdagi toʻliq tarixini qamrab olmaganlar, balki aynan bir voqea atrofida xulosalar taqdim etishgan.

Qilingan ishlar ichida eng salmoqlisi, albatta, Alekseyev.A. tadqiqotlari hisoblanadi. U 2006 yilda nashr qilgan “Toʻqay Temuriylarning siyosiy tarixi” asarida ashtarxoniylar sulolasini toʻliq yoritgan. Tadqiqotchi oʻz ishida birlamchi manbalardan unumli foydalanib, oʻzining ilmiy xulosalarini ham bera olgan. Afsuski, mustaqil Oʻzbekistonda sulola tarixi boʻyicha olib borilayotgan ilmiy tadqiqotlar juda ham kamchilikni tashkil etadi. Shulardan biri Dilorom Sangirovadir. U hozirgi kunda “ XVII-XVIII asrlarda Buxoro xonligida davlatchilik an’analari va shakllari (Ashtarxoniylar davri)” mavzusida doktorlik ishini olib bormoqda.

## Xonliklar davriga oid yangi tadqiqotlar

Xiva xonligi Amudaryoning quyi oqimida joylashgan, qadimiy dehqonchilik markazlaridan hisoblanmish Xorazm XIV asr oxirlaridan XVI asr boshlariga qadar temuriylar davlati tarkibida boʻlgan. 1505 yilda Shayboniyxon Xorazmga yurish qilgan paytda u erda hukmronlik qilayotgan Chin Soʻfi rasman Husayn Boyqaroga qaram edi. Shuning uchun ham xorazmliklar temuriylardan yordam umid qilib 10 oy shaharni mudofaa qildilar. Xorazmda Shayboniyxon hukmronligi uzoq choʻzilmadi. U 1510 yilda

Shoh Ismoil tomonidan o‘ldirilgach, Xorazm eroniy safaviylar qo‘l ostiga o‘tdi. Shoh Ismoil Xorazm shaharlarini boshqarish uch un yuborgan dorug‘alarining iqtisodiy, diniy va milliy zulmiga qarshi aholi keng qatlamlarining chiqishlari boshlandi. Abulg‘ozixonning ’Shajarayi turk’ asarida yozilishicha, Vazir shahrida yashovchi Umar degan keksa olim eroniy qizil boshlilarga qarshi kurashni tashkil qilib, unga o‘zi boshchilik qilgan. Xorazmliklar ikki yil deganda eroniylarni o‘z yurtlaridan haydab chiqardilar. Mashhur Sayidota avlodlaridan bo‘lgan Sayid Xisomiddin tashabbusi bilan Shaybon urug‘idan bo‘lgan Berka sultonning o‘g‘li Elbarsxon Vazir shahriga taklif qilindi. Elbarsxon taklifni qabul qilib, Vazirga kelayotganini eshitgan xalq shahardagi eroniylarni qirib tashladi. Elbarsning Vazir shahriga kirib kelishi bilan Xorazmda 1512 yilda o‘zbek sultonlari hokimiyati o‘rnatildi. Elbarsxon (1512-1525) Urganch va Xiva shaharlaridan eroniylarni haydab chiqarib mustaqil xonlikka asos soladi. U bilan birga Dashti Qipchoqdan Xorazmga kelgan xalqlar o‘troqlashdilar. 1524 yilda shoh Ismoil vafotidan keyin xorazmliklar Turkmanistonning janubiy qismini, Eron shimolidagi Saraxs hududlarini, Orol va Mang‘ishloqni egallashdi. Yangi erlarni Elbarsxon o‘z o‘g‘illari va ukasi farzandlariga bo‘lib bergan ediki, bu mustaqillikka intilgan mayda hokimliklarning paydo bo‘lishiga olib keldi. Natijada qo‘shnis i eriga ko‘z olaytirgan hokimlar o‘rtasidagi, uzluksiz o‘zaro nizolar kelib chiqdi va Elbarsxon vafotidan keyin xonlarning tez-tez almashib turishiga olib keldi. XVI asrda Xorazmni Elbarsxon avlodlaridan So‘fiyonxon, Avaneshxon, Aqatoyxon, Do‘stxon, Hojimxon kabi xonlar boshqarganlar. Bitta xonadon vakillari bo‘lgan Berka sulton va Shayboniyxon avlodlari o‘rtasidagi o‘zaro nizo endilikda Buxoro va Xorazm hukmdorlari o‘rtasidagi janjallarga sabab bo‘ldi. Elbarsxonning beshinchi vorisi Avaneshxon (1526-1538) davrida Shayboniy Ubaydulla sulton (1533-1539) Xorazmni bosib olib, 1537 yilda o‘g‘li Abdulazizni u erga noib qilib qoldirdi. 1538 yilda Xorazm sultonlari yana hokimiyatni qaytarib oldilar. Xorazm erlari uchun Hojimxon (1558-1602 ) davrida Abdullaxon II (1557-1598) bir necha marta yurish qildi. 1575 yilda boshlangan o‘zaro urushlar natijasida Abdullaxon II 1593-yildagina Xorazmni o‘ziga bo‘ysundirdi. 1598 yilda Abdullaxon vafoti bilan shayboniylar davlatida avj olgan o‘zaro nizo va tartibsizlikdan foydalani b Xorazm o‘z mustaqilligini uzil-kesil tiklab oldi. 1601-yilda Buxoro xonligida -Shayboniylar sulolasining hukmronligi barham topdi. Oliy hokimiyat Ashtarxoniylar sulolasi qo‘liga o‘tdi.  XVI asrning 70-yillarida Xorazm poytaxti Urganchdan Xiva

shahriga ko‘chirildi. Unga Amudaryo o‘zanining o‘zgarib, Kaspiy dengiziga oqmay qo‘yganligi sabab bo‘ldi. Bu holat Xorazm iqtisodiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatgan. Shu davrdan boshlab Xorazm davlati Xiva xonligi deb atala boshlagan. XVII asr boshlariga kelib, Xorazm taxti uchun bo‘lgan sulolaviy kurashlardan so‘ng taxtga o‘tirgan Arab Muhammadxon (1602 -1621) davrida Xiva xonligida davlat porakandaligi yuqori cho‘qqiga etdi. Rus kazaklari, qozoqlar va qalmiqlar talonchilik yurishlari qilib mamlakat aholisining tinchini buzishga sabab bo‘lgan bo‘lsa, mamlakat ichida mavqei kuchaygan darvesh shayxlari ta’siridagi Arab Muhammadning o‘g‘illari Habash va Elbarslarning otasiga qarshi chiqishi parokandalikni avj oldirdi. Ular otasiga qarshi kurashda muvaffaqqiyat qozonib, uning ko‘ziga mil tortdilar, so‘ngra Xivada qatl ettirdilar. Shunday qilib taxtga o‘tirgan elbars va Habash sultonlar (1621 -1623) ukalari Isfandiyor (1623-1643) tomonidan taxtdan tushirildilar. Turkmanlar yordami bilan taxtga chiqqan Isfandiyor davrida mamlakat siyosiy hayotidagi keskinlik saqlanib qoldi. Orol bo‘yidagi o‘zbek qo‘ng‘irotlari Isfandiyorga bo‘ysunmay qo‘yishdi. Turkmanlar xonlik siyosiy hayotiga ko‘proq ta’sir eta boshladilar. Xorazm tarixida yirik davlat arbobi va tarixnavis ijodkor sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘lgan Abulg‘ozixon (1643-1663) akasi Isfandiyor vafotidan keyin taxtni egalladi. U og‘ir hayot yo‘lini bosib o‘tdi. Akalari Elbars va Habashxonlar isyoni davrida Buxoro xoni Imomqulixon saroyida yashadi. Isfandiyor taxtni egallagach, 1623 yilda Urganch hokimi bo‘ldi. Akasi bilan kelisha olmay Turkiston hokimi eshimxon huzuriga bordi va uning vafotidan keyin 2 yil Toshkentda yashadi. Buxoro xonligi orqali yana Xorazmga kelgach, akasi Isfandiyor uni Eron shohi huzuriga garov tariqasida jo‘natdi. 10 yil tutqinlikda bo‘lgan Abulg‘ozi 1639 yilda Erondan yashirincha chiqib, Orol o‘zbeklari oldiga keldi va onasi vafotidan keyin qo‘ng‘irot o‘zbeklarining yordami bilan hokimiyatni qo‘lga kiritdi. Uning hukmronligi davrida markaziy hokimiyat nisbatan kuchaydi. Turkman, qalmiqlarga qarshi muvaffaqqiyatli urush olib borgan Abulg‘ozixon Buxoro xonligi hududlariga ham talonchilik yurishlari qildi. Xiva askarlari Chorjo‘y, Vardanza, Qorako‘l, Karmanagacha bo‘lgan erlarni bir necha bor talashdi. 1662 yilda Abdulg‘ozi Buxoro xoni bilan sulh tuzdi. Lekin uning o‘g‘li Anushaxon (1663-1687) davrida ham Buxoro va Xiva o‘rtasidagi urushlar davom etdi. Bu davrda Xiva qo‘shinlari Buxoro, Samarqand, Qarshiga hujum qilib turdilar. 1685 yilda G‘ijduvon yaqinidagi mag‘lubiyatdan keyin Buxoroning Xivadagi ta’siri kuchaydi. Subhonqulihon Anushaga qarshi fitna uyushtirib,

uning o‘g‘li ernakka taxtni egallashga yordam beradi. Otasini ko‘r qilib, taxtni egallagan ernak (1687), hokimiyatni uzoq vaqt saqlab qola olmadi. Subhonqulixon Xivadagi tarafdorlari yordamida taxtga Shohniyozni (1688-1702) o‘tqazib, amalda Xivani vassal davlatga aylantirdi. Shohniyoz xonlik maqomiga ega bo‘lgach, o‘z homiysidan yuz o‘girib, mustahkam tayanch qidirib, Rossiya hukmdori Petr I ga xat yo‘llab, Xivani Rossiya tarkibiga qo‘shib olishni so„raydi. Sharqda ta’sirni maqsad qilib qo‘ygan rus podshosi 1703 yilda Xivaning Rossiya hududiga qo‘shib olingani xaqida yorliq jo‘natadi. Lekin 1702-1715 yillarda xonlik qilgan Arab Muhammad bunga ahamiyat bermadi. Bu rus podshosining O‘rta Osiyoga e’tiborini qaratdi, xolos. U Xiva xonligini rasman tobe qilish maqsadida Aleksandr Bekovich- Cherkasskiy rahbarligida Xivaga harbiy ekspeditsiya tayyorladi. Arab Muhammad va uning vorisi Sherg‘ozixon (1715-1728) davrida xonlikdagi siyosiy nizolar mamlakatning iqtisodini ham izdan chiqardi. Sherg‘ozixon olti ming rus askari bilan 1717 yilda xonlik hududiga kirib qolgan rus harbiy ekspeditsiyasini yaxshi kutib oldi. Uning maslahati bilan Bekovich-Cherkasskiy qo‘shinlarini 3 ga bo‘lib joylashtirdi. Qulay vaziyatdan foydalangan Xivaliklar rus qo‘shinlarini butunlay qirib tashlashdi. Natijada rus harbiy ekspeditsiyasi samarasiz yakunlandi. Tashqi xavf bartaraf etilgach Xivaliklarning o‘zaro nizolari davom etdi. 1728 yilda hokimiyatni qo‘lga olgan Elbarsxon (1728-1740) ichki nizolarni bostirib, qo‘shni hududlarga bosqinchilik yurishlarini uyushtira boshladi. Xiva qo‘shinlarining bosqinchilik yurishlari va ularning Buxoro xonlariga bergan yordamlari tufayli 1740 yilda Eron shohi Nodirshoh Xorazmni butunlay o‘ziga bo‘ysundirdi. 1741 yilda ko‘tarilgan qo‘zg‘olon sababli Xiva eroniylar zulmidan ozod bo‘ldi. Lekin Nodirshohning o‘g‘li Nasrullo katta qo‘shin bilan Xorazmga kelgach, Nuralixon (1741) taxtni tashlab qochdi va eroniylar 1747 yilga qadar Xiva xonligida hukmronlik qildilar. 1747 yilda qozoq sultoni Gayibxon taxtga o‘tqazildi (1747 - 1757). Uning davrida qozoq sultonlarining mavqei oshishi Xivada qo‘zg‘olon ko‘tarilishiga sabab bo‘ldi. 1757-1758 yillarda Xiva taxtini uning ukasi Abdullaxon boshqargan. Xiva xonligidagi siyosiy parokandalikdan foydalangan Buxoro hukmdori Muhammad Rahimbiy o‘z odami Temur G‘ozix onni (1758-1763) Xiva taxtiga o‘tqazadi. Shu davrdan boshlab Xiva xonligida qo‘ng‘irotlar urug‘ining mavqei mustahkamlanib borgan. Xorazm tarixchilari Abulg‘oziy, Munis, Ogahiy, Bayoniy asarlarida yozilishicha, Abulg‘oziy akalaridan qochib ketayotganda oti dan ayrildi. Shunda qo‘ng‘irot urug‘idan bo‘lgan O‘nboy degan

yigit unga o‘z otini berib, qutilib ketishga yordam bergan. Abulg‘oziy keyinchalik Erondan qochib kelgach, ularning urug‘ boshliqlariga inoq unvonini beradi. Shu davrdan boshlab Xiva xonligida qo‘ng‘irot urug‘larining mavqei ortib borgan. XVIII asrning 60yillaridan badavlat shaharliklar va ruhoniylarning qo‘llab-quvatlashishiga erishgan qo‘ng‘irot urug‘lari Xiva xonligida hokimiyatni qo‘lga ola boshlaydilar.

Inoq Muhammad Amin (1763-1790) 1770 yilda turkmanlarning, 1782 yilda buxoroliklarning hujumini qaytarib, Xiva xonligida qo‘ng‘irotlarning amaldagi hokimiyatini mustahkamlaydi. Avaz Inoq (1790-1804) davrida Xiva xonligida markaziy hokimiyat mustahkamlanib, xonlikdagi iqtisodiy ahvol yaxshilandi. Bu XIX asr boshlarida qo‘ng‘irotlar sulolasining hokimiyatni rasman egallashlariga zamin bo‘ldi. 1804-1806 yillarda hukmronlik qilgan eltuzarxon Inoq Xiva taxtiga o‘tirgan qo‘ng‘irotlar sulolasining birinchi xoni hisoblanadi. Uning vorisi Muhammad Rahimxon I (1806-1825) Xiva xonligini birlashtirishni nihoyasiga etkazdi. 1811 yilda bo‘ysunmas orolliklar-qoraqalpoqlarni ham Xiva tarkibiga qo‘shib oldi. U o‘tkazgan siyosiy, iqtisodiy, ma’muriy islohotlar natijasida boshqaruv tizim takomillashib, soliqlar tartibga tushdi. Xazina daromadlari ko‘paydi. Olloqulixon (1825-1842), Rahimqulixon (1842-1845) va Muhammad Aminxon (18451855) davrlarida Xiva qo‘shinlarining Xurosonga yurishlari kuchaydi, Marv shahri uchun Buxoro amirligi bilan tez-tez urushlar bo‘lib turdi. Xiva xonlari bu davrda Sirdaryoning Orol dengiziga quyiladigan joyidan Turkmaniston hududidagi Kushkagacha bo‘lgan erlarni boshqarganlar. 1855 yilda Seraxsni qamal qilish paytida Muhammad Aminxonning halok bo‘lishi mamlakatda parokandalikka sabab bo‘ldi. Abdullaxon (1855-1856), Qutlug‘murodxonlar (1856) 6 oydan ko‘p hukmronlik qilmaslaridan o‘ldirildilar. 1856 yilda taxtni Sayid Muhammadxon (1856-1864) egalladi. U bo‘ysunmas turkmanlar va qoraqalpoqlarga qarshi urush uyushtirganligi natijasida bu xalqlarning ko‘pchiligi ko‘chib ketdilar. 1859 yilda Muhammad Panoh Orenburgdan yordam olib, Orol bo‘yida mustaqil davlat tuzish uchun qilgan harakati bostirildi. Xivaliklar tomonidan daryoga to‘siq qo‘yilishi natijasida Butakov flotiliyasi qoraqalpoqlarga yordam bera olmadi. Xiva xonligidagi so‘nggi mustaqil hukmdor Feruz taxallusi bilan ijod qilgan Muhammad Rahimxon II (1864-1910) bo‘ldi. Uning davrida xonlikning siyosiy, iqtisodiy, madaniy jihatdan yuksalishi ko‘zga tashlanadi. Lekin 1873 yilda Rossiya Xiva xonligini bosib oldi va Muhammad Rahimxon II va Kaufman imzolagan Gandimiyon shartnomasiga ko‘ra, Xiva xonligi Rossiyaga qaram davlatga

aylanib qoldi. 1920 yilda Xiva xonligi tugatildi, 1924-25 yillarda esa XXSR yerlari O‘zbekiston, Turkmaniston va Qozog‘iston hududlariga bo‘lib yuborildi.

O‘zbekistonda Xiva xonligi bo‘yicha bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Masalan, Xorazmdagi istiqlolchilik harakati bo‘yicha Q. Rajabov, diplomatik munosabatlar bo‘yicha A. Otamurodova, O. Abdurahimov va N.Allayevalar, Xorazm jadidlari haqida O. Qo‘shjonov, N. Polvonovlarning ilmiy nashrlari Xiva xonligi bo‘yicha so‘nggi tadqiqotlardan biri sifatida e’tirof etish mumkin.

Qo‘shni Eron davlatida ham Xiva xonligi bo‘yicha salmoqli ishlar qilingan. Jumladan, Ali Akbar Viloyatiy, Abbosquli G‘affori Fardlar aynan xonlik tarixi, uning Eron davlati bilan munosabatlarini tarixiy materiallar asosida tadqiqotlarini e’lon qilishgan. Eng so‘nggi ishlar sifatida esa, Nikzad Kelorazi va D.A. Alizodalarning XVII-XVIII asrning birinchi yarmida Eronning Buxoro va Xiva xonliklari bilan harbiy-siyosiy va diplomatik munosabatlarini o‘rganishga bag‘ishlangan tadqiqotlarini ko‘rsatib o‘tish lozim. Ularda asosiy e’tibor Xorazm va Eron o‘rtasidagi ziddiyatli munosabatalar, jumladan Nodirshohning O‘rta Osiyoga yurishi va buning sabablarini tahlil qilishga qaratilgan. Ularda bir yoqlama yondashuvga yo‘l qo‘yish holatlari, bir-biriga qarama-qarshi ayrim fikrlar ham uchraydi. Nodirshohning Buxoro va Xorazmga harbiy yurishi davrida O‘rta Osiyo xonliklarining o‘zaro munosabatlari masalasiga batafsilroq baho lozimligi ko‘zga tashlanadi.

Qo‘qon xonligi XVIII asr boshlarida Buxoro xonligidagi siyosiy parokandalik unga rasman qaram bo‘lgan Farg‘ona vodiysiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsatdi. 1709 yilda Chodak xo,jalari isyon ko‘tarib, Farg‘onaning bir qismini egallab olib, mustaqil davlat tuzilganligini e’lon qildilar. 1710 yilda vodiyda ancha kuchli ta’sirga ega bo‘lgan, o‘zbeklarning Ming urug‘i boshlig‘i Shohruhbiy (1710 -1721) hokimiyatni qo‘lga oldi. Shohruhbiy o‘z hukmronligi davrida Qo‘qon, Namangan, Marg‘ilon, Konibodom, Isfara atroflarini bo‘ysundirib, o‘z hokimiyatini mustahkamladi. Uning vorisi Muhammad Abdurahimbiy (1721-1733) Xo,jand, O‘ratepa, Samarqand, Jizzax, hatto Shahrisabzni o‘ziga bo‘ysundirib, mamlakat hududlarini ancha kengaytirdi. Shuning bilan birga u qurdira boshlagan shahar dastlab ’Qal’ayi Rahimbiy’ deb ataldi. Abdurahimbiyning bevaqt vafoti sababli ukasi Abdulkarimbiy (1733-1750) shahar qurilishini yakunlab, Tepaqo‘rg‘ondan poytaxtni yangi shaharga ko‘chirdi va eski o‘rda degan joyida o‘rda-qal’a qurdiradi. O‘sh, Andijon, Marg‘ilonni egallagan qalmoqlar 1745 yilda Qo‘qonni

qamal qilganda Abdukarimbiy O‘ratepa hokimi Fozilbek yordami bilan qalmoqlarni mamlakat hududidan haydab chiqarib, davlat mustaqilligini saqlab qoldi. Qalmoqlar garov tariqasida Muhammad Abdurahimbiyning o‘g‘li Bob obekni olib ketishadi. Abdukarimbiy vafotidan keyin xonlar tez-tez almashtiriladi. 1750-1754 yillarda Abdurahmonbiy (1750-1751), Erdonabiy (1751-1753), Bobobek (1753-1754) xonlik qilganlar. Nihoyat, 1755 yilda Erdonabiy 2 marta hokimiyatga kelgach, xonlik ancha mustahkamlandi. U O‘sh va O‘zganni bo‘ysundirib, 1758 -1759 yillarda Sharqiy Turkistonga ham yurish qilgan. Bu davrda Qo‘qon xonligi Buxoro va Xitoy bilan tengma-teng kurashadigan davlatga aylandi. Lekin Erdonabiy davrida olib borilgan urushlar mehnatkash xalqning aholini ancha og‘irlashtirdi. Erdonabiy 1769 yilga qadar taxtni boshqargan. Undan keyin taxtga o‘tirgan Sulaymonbek bor-yo‘g‘i 6 oy xonlik qildi.

Qo‘qon xonligini 1770-1800 yillarda boshqargan Norbo‘tabek markaziy hokimiyatni mustahkamlash va bo‘ysunmas hokimlar qarshiligini bostirishda bir muncha muvaffaqiyat qozondi. U Chust va Namangan hokimlarining o‘zboshimchaliklarini tugatib, qo‘zg‘olon ko‘targan Xo,jand shahrini bo‘ysundirdi va uni xonlikka butunlay qo‘shib oldi. Lekin 1799 yilda uning Toshkentni egallash uchun yuborgan qo‘shini mag‘lubiyatga uchradi. Uning hukmronligi davrida olingan mo‘l hosil natijasida xalq faravonligi bir muncha yaxshilandi, Xitoy hukmdorlari Norbo‘tabek mustaqil xon ekanligini tan olgan. Uning vorisi Olimxon (1800-1810) davrida Qo‘qon xonligining siyosiy qudrati mustahkamlandi. Harbiy islohot o‘tkazib, qo‘shinni ancha mustahkamlagan Olimxon Angren vohasini, Toshkent, Chimkent va Turkistonni o‘ziga bo‘ysundirdi. Natijada Qo‘qon savdogarlari Rossiya bilan bevosita savdo qila boshladilar. 1805 yildan Qo‘qon xonligidagi hukmdorlar rasman xon deb yuritila boshladilar. Bungacha ular ’biy’ va ’bek’ deb atalardilar. Olimxon isyon ko‘targan Toshkentni bo‘ysundirish, O‘ratepani egallash va bosib olingan hududlarda o‘z mavqeini mustahkamlash uchun tinimsiz urushlar olib bordi. U O‘ratepani bo‘ysundirish uchun 10 dan ortiq yurish qilgan. Olimxon olib borgan siyosat butun xalqning Olimxondan noroziligiga olib keldi va bu fitnaga sabab bo‘ldi. Olimxon 1810 yilda ukasi Umarxonning taxtga chiqarilganini eshitib, Qo‘qonga ketayotganda Oltiqush degan joyda fitnachilar tomonidan o‘g‘li Shohruxxon bilan birga otib o‘ldiriladi. O‘zini amir deb atagan Umarxon (1810 -1822) davrida siyosiy jarayon murakkablashib, Chimkent,

Turkiston va boshqa shaharlarda g‘alayonlar ko‘tarildi. Davlatni boshqarishda yirik er egalari, dindorlar, harbiy sarkardalar manfaatini himoya qilib, ular bilan ittifoqda bo‘lgan Umarxon bu g‘alayonlarni bostirib, xonlik hududini parchalanishdan saqlab qoldi. Uzoq urinishlar natijasida 1817 yilda O„ratepani bosib oldi. Rossiya bilan aloqalarni mustahkamladi. 1818 yilda Umarxon ’Amir ul-muslimin’ unvonini olib xonlikdagi diniy hokimiyatni ham egalladi. Amiriy taxallusi bilan she’rlar yozgan Umarxon davrida Qo‘qonda adabiyot, she’riyat ancha yuksaldi. 1822 yilda Umarxon kasallanib vafot etdi. Umarxonning o‘g‘li Muhammad Alixon (1822-1842) hukmronligining dastabki yillarida Qo‘qon xonligining erlari ancha kengaydi. U 1826 -1831 yillarda Qashg‘arga bir necha marta yurish qilib, u erdagi Xitoy hukumati bilan o‘zi uchun foydali shartnoma imzolagan bo‘lsa, 1834 yilgacha Qo‘qon qo‘shinlari Qorategin, Kulob, Darvoz viloyatlarini bosib olgan. Ichki siyosatda Madalixon xonlik hayotida katta ta’sirga ega bo‘lgan, otasi tomonidan qo‘llab-quvvatlangan yirik amaldorlarni surgun qildi, ko‘pchilikni qatl qildirdi. Bu holat xonlikda undan norozi bo‘lgan kuchlarning, birlashishuviga, dushmanlarining ko‘payishiga sabab bo‘ldi. Muhammad Alixonning Sharqiy Turkiston va Oltoy tog‘lari ortida qo‘lga kiritgan, g‘alabasi sababli xushomadgo‘ylari uni ’g‘oziy’ deb ulug‘lashgani bilan mamlakatda undan norozilar ko‘pchilikni tashkil qilar edi. Muhammad Alixonning shariatga zid axloqiy buzuqliklari ham unga qarshi aybnoma bo‘ldi. Natijada xonga qarshi fitna tayyorlana boshlandi. Lekin fitnachilar o‘z kuchlariga ishonmay 1839 yilda Buxoro amiri Nasrullodan yordam so‘rab, xoning ustidan shikoyat qilishdi. Amir Nasrulloning Madalixonni ’kofir’ deb fatvo jo‘natishi 1840 yilda Qo‘qon va Buxoro o‘rtasidagi urushga bahona bo‘ldi. Aslida Buxoro va Qo‘qon chegara shaharlar uchun tinimsiz urushlar olib borishgan. Bu urushda Madalixon qo‘shinlari mag‘lubiyatga uchrab, uning o‘zi Buxoro hukumronligini tan olishga va Xo, jandni topshirishga majbur bo‘ldi. 1842 yilda Qo‘qon xonligida ko‘tarilgan qo‘zg‘olondan foydalanib, amir qo‘shinlari Qo‘qonni egallashdi va Nasrullo Madalixonni oila a’zolari bilan tutib keltirib, uning o‘zini, onasi shoira Nodirabegimni, katta o‘g‘li Muhammad Aminni, ukasi Sulton Mahmudni va boshqalarni qatl ettirdi. ’Qassob amir’ Qo‘qon xonligining Buxoro amirligiga qo‘shib olinganini e’lon qilib, Ibrohim dodxohni Qo‘qonga noyib etib tayinladi. Ko‘p o‘tmay Toshkent ham Buxoroga bo‘ysundirildi. Lekin buxoroliklarning talonchilik siyosati xalqning noroziligiga sabab bo‘ldi va oradan uch oy o‘tgach, qipchoqlar madadiga tayangan qo‘qonliklar Buxoro

amaldorlarini haydab, Norbo‘tabiyning ukasi Sheralixon (1842-1845)ni taxtga o‘tqazdilar. U shaharni mustahkamladi. Natijada Buxoro qo‘shinlari Qo‘qonni 40 kun qamal qilib, qo‘lga ololmagach, qaytib ketishga majbur bo‘ldilar. Ko‘p o‘tmay Xo,jand o‘z ixtiyori bilan Qo‘qon xonligiga qo‘shildi va Toshkent ham qayta egallandi. Hamda xonlik hududlari qayta tiklandi. Bu jarayonda alohida xizmat ko‘rsatgan qipchoqlar xonlikda yuqori mavqega ega bo‘la boshlaydilar. 1845 yilda Qo‘qon taxti davogarlaridan biri Murodxon amir yordami bilan taxtni egallab, bor yo‘g‘i 8 kun hukmronlik qildi. Bu siyosiy o‘yinni kuzatib turgan amiri lashkar Musulmonqul o‘z qizini uning o‘g‘li 13 yoshli Xudoyorxonga nikohlab berdi va Murodxonni fitnachi sifatida qatl qildirib, kuyovini Qo‘qon xoni deb e’lon qildi. Xudoyorxon (1845 - 1858; 1863 (4 oy), (1865-1875-yy.) yosh bo‘lganligi sababli xonlikdagi boshqaruv Musulmonqul boshliq qipchoqlar qo‘liga o‘tdi. Saroyda cheksiz hokimiyatga ega bo‘lgan, bosh vazir, birinchi amaldor Musulmonqulning o‘z mavqeidan shaxsiy manfaatlari yo‘lida foydalanishi 1853 yil oxirlarigacha davom etib, bu holat xonlikda ko‘pchilikning noroziligiga sabab bo‘ldi. O‘ratepa, Xo‘jand, Marg‘ilon hokimlari Toshkent hokimi Nurmuhammad boshchiligida Musulmonqulga qarshi guruh tashkil etishdi. 1852 yil fevral va iyun oylarida Musulmonqul Toshkentga katta qo‘shin bilan yurish qildi. Lekin iyun oyidagi jangda qayin otasi vasiyligi dan norozi bo‘lgan Xudoyorxon qo‘zg‘olonchilar tomonga o‘tdi. 1853 yil kuziga kelib Musulmonqul ham qo‘lga olinib qatl etildi. Bu paytda rus qo‘shinlari xonlik sarhadlariga bostirib kirib, Oqmachit, Jo‘lak, Kumushqo‘rg‘onni bosib olayotgan edi. Rossiya bilan Qo‘qon urush holatiga o‘tdi. Rossiyadek tashqi dushman xonlik sarhadlariga xavf solib turgan bir paytda xon amaldorlari, xonlar birlashish o‘rniga ular orasidagi o‘zaro kurash, fitna avj oldi. Natijada Qo‘qon xonligi hududlari chet el bosqinchilarining zulmi ostiga tushib qoldi. 1876 yilda Qo‘qon xonligi tugatildi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng Qo‘qon xonligi tarixini retrospektiv tarzda yoritib bergan dastlabki asar – bu “O‘zbekiston tarixi (XVI-XIX asrning birinchi yarmi)”ning uchinchi jildidir. Ushbu kitobning “Qo‘qon xonligi” deb atalgan qismida xonlikning tashkil topishi, hududi, aholisi, xo‘jalik hayoti haqida batafsil ma’lumotlar beriladi. Ammo ushbu nashrda sovet tarixshunosligiga xos bo‘lgan ayrim jihatlar ko‘zga tashlanadi. Qo‘qon xonligi “tipik feodal davlat” bo‘lganligi haqidagi da’volar, xonlik tarixining ijtimoiy-iqtisodiy jihatlariga ko‘proq urg‘u berilishi shular jumlasidandir. 2012-yilda O‘zR FA Tarix instituti jamoasining sa’y harakati bilan xuddi shu nomda

yangi fundamental asar yaratildi. Ushbu nashrda yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan kamchiliklar bartaraf etilib, xonliklar (shu jumladan, Qo‘qon xonligi) tarixini o‘rganishda biryoqlama yondashuvdan voz kechishga, bu davr tarixini yoritishda barcha ichki va tashqi omillarni e’tiborga olishga harakat qilingan. Xususan, xonliklarning tashqi dunyodan ajralib qolishi (“izolyatsiya”) haqidagi fikr unchalik to‘g‘ri emasligi, shuningdek, o‘sha davrda faqat Markaziy Osiyo emas, balki butun islom dunyosi tanazzul pallasiga kirganligi qayd etiladi.

Milliy istiqlol davrida taniqli olim H.N.Bobobekov Qo‘qon xonligi tarixi bilan bog‘liq bir necha kitob va maqolalar e’lon qildi. Ulardan biri “Qo‘qon tarixi” deb atalsa-da, aslida unda Qo‘qon shahrining xonlik davri tarixi yoritilgan. Muallif xonlikning qisqacha tarixini bayon etib, asosiy e’tiborni “xalq harakatlari”ga, shuningdek xonlikning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotiga qaratadi. Ammo kitobda ayrim bahsli fikrlar ham uchraydi. Masalan, muallifning Qo‘qon xonligida muntazam qo‘shin bo‘lmaganligihaqidagi fikri munozaralidir. Muallif tomonidan xonlik ro‘y bergan ayrim qabilaviy va etnik mojarolarni “xalq harakati” yoki “sinfiy kurash” sifatida talqin etilishida sho‘rolar davridagi tarix fanida ustuvor bo‘lgan metodologiyaning ta’siri sezilib turadi.

O‘rta Osiyo davlatlari, jumladan, Qo‘qon xonligining Rossiya bilan diplomatik aloqalari tarixi X.G‘.G‘ulomovning monografiyasi va doktorlik dissertasiyasida o‘z aksini topdi. Muallif asosan rus tilidagi manbalarga tayangan holda ushbu aloqalarni atroflicha va obyyektiv tarzda yoritishga erishdi.

Qayta qurish va xususan mustaqillik davrida Qo‘qon xonligining tugatilishi tarixchilarimiz tomonidan yangicha talqin etila boshlandi. Sovet adabiyotlarida o‘zbek xonliklarining Rossiyaga “qo‘shib olinishi” va uning “progressiv ahamiyati” to‘g‘risidagi tezis ustivor bo‘lsa, endilikda tarixiy faktlar asosida ularning, jumladan, Qo‘qon xonligining Rossiya imperiyasi tomonidan zabt etilganligi asoslab berildi. Bu borada H.Z.Ziyoyevning xizmatlarini ta’kidlab o‘tish joiz. U o‘zining ilmiy maqolalari va xususan “Turkistonda Rossiya tajovuzi va hukmronligiga qarshi kurash” nomli kitobidahujjatli materiallar asosida Qo‘qon xonligining chor qo‘shinlari tomonidan bosib olinganligini ko‘rsatib berdi. Bosqinchilarga qarshi olib borilgan jangu jadallar tafsilotlarining bayon etilishi, bu janglarda jasorat va qahramonlik namunalarini ko‘rsatgan vatanparvarlar ismi-shariflarining keltirilishini asarning muhim ahamiyatli

jihatlari deb hisoblash mumkin.

Chor Rossiyasi istilosi masalalasi “O‘zbekistonning yangi tarixi” nomli nashrning birinchi kitobida ham o‘z aksini topgan. Bu nashr mualliflari ham Qo‘qon xonligining chor mustamlakachilari tomonidan bosib olinishi tarixini obyyektiv tarzda yoritib berishga harakat qilganlar.

Mustaqillik davrida yaratilib, Qo‘qon xonligi tarixini turli jabhalarini o‘zida mujassam etgan yirik asar – bu B.M.Bobojonovning “Qo‘qon xonligi: hokimiyat, siyosat, din” nomli monografiyasidir. Ushbu asarning mavjud adabiyotlardan farqli tomoni shundaki, muallif Qo‘qon xonligining siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy tarixini islom ta’limoti va yo‘l-yo‘riqlari bilan bog‘liq holda tadqiq etadi. Asar Qo‘qon xonligi tarixiga oid manbalar va adabiyotning batafsil tahlilidan boshlanadi. Muallif xonlik tarixiga oid adabiyotlarning ijobiy tomonlarini ta’kidlab o‘tgan holda, ularning aksariyati, xususan sovet davri adabiyotlari, jiddiy nuqson va kamchiliklardan xoli emasligini qayd etadi. Monografiyada ilk bora Qo‘qon xonligining siyosiy tarixi batafsil bayon etilib, Minglar davlatining shakllanishi va faoliyatida islomiy omillar ta’siri ko‘rsatib beriladi. Muallif tarixshunoslikda Minglar sulolasi hokimiyatini “legitimlashtirish”, ya’ni qonuniylashtirilish masalasiga e’tibor qaratadi. Asarning keyingi boblarida xonlar o‘z hokimiyati, ichki va tashqi urushlar, axloq va odob kabi hodisalarni qay tarzda diniy-islomiy qoida va normalar bilan uyg‘unlashtirib borganliklarini qo‘qonlik tarixnavislar asarlaridan olingan ko‘p faktik materiallar asosida tadqiq etadi. Umuman olganda, B.M.Bobojonovning mazkur monografiyasi Qo‘qon xonligi tarixshunosligida ham mavzu jihatidan, ham tadqiqot usullari jihatidan alohida ajralib turadi. Bu asar Qo‘qon xonligi tarixini chuqur idrok etish yo‘lida qo‘yilgan muhim qadam, deb hisoblash mumkin.

Mustaqillik yillarida Qo‘qon xonligi tarixining turli qirralari qator dissertasiyalarda o‘z aksini topdi. Yosh tadqiqotchilar yozma tarixiy manbalar, xususan hozirgacha nashr etilmagan qo‘lyozmalar ma’lumotlariga tayanib, xonlik tarixining ayrim jabhalarini chuqur o‘rgandilar va tarixshunosligimizga o‘z hissalarini qo‘shdilar. Ayni vaqtda yosh olimlarning tadqiqotlarida ayrim munozarali fikrlar ham uchraydi. Masalan, ularning ayrimlari ba’zi tarixiy shaxslar, jumladan Alimquli amirlashkarning shaxsini haddan ziyod ulug‘lashsa,boshqalari xonlikdagi madrasalarning faoliyatiga yyetarli darajada tanqidiy yondashmaydilar. Ayrim dissertasiyalarning mavzusi keng bo‘lganligi bois, mualliflar uning doirasidagi barcha masalalarni atroflicha yorita olmaganlar.

Qo‘qon xonligi tarixini o‘rganishda mustaqillik davrida o‘tkazilgan turli ilmiy-nazariy konferensiyalar muhim o‘rin tutadi. Xususan, 2004-yilda Qo‘qon, Farg‘ona, Andijon va Namangan shaharlarida bo‘lib o‘tgan anjumanlar materiallaridaham xonlik tarixining ayrim muammolari xususida bahr yuritildi. Ushbu kitoblarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, eslatib o‘tilgan anjumanlarda xonlik tarixining ba’zi masalalariga doir jiddiy mulohazalar bayon qilingan. Ammo aksariyat ma’ruzalar mavzuning torligi, yangilikning yo‘qligi, ilmiy apparatning talab darajasida emasligi bilan ajralib turadi. Bunday ma’ruzalarni xonlik tarixshunosligiga qo‘shilgan hissa, deb aytish amri maholdir.

Shunday qilib, istiqlol yillarida Qo‘qon xonligi tarixini o‘rganish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Xususan xonlik tarixiga oid yozma manbalarni tadqiq etish, tarjima va nashr qilish yaxsi yo‘lga qo‘yildi. Xonlik tarixining kam o‘rganilgan jihatlari, jumladan, Rossiya bilan diplomatik aloqalari, uni chor qo‘shinlari tomonidan istilo qilinishi masalalari yangicha yondashuvlar asosida yoritib berildi. Ammo qator adabiyotlarda sovet tarixshunosligiga xos bo‘lgan nuqsonlar, jumladan, o‘tmishga formasiyaviy, sinfiylik nuqtai nazaridan yondashish, iqtisodiy omillar va “xalq harakatlari”ga urg‘u berish hamon sezilib turdi. Shu bilan birga so‘nggi paytlarda Qo‘qon xonligi tarixini yangi metodologik asoslarda o‘rganish tomon jiddiy burilish kuzatilmoqda. Bularning barchasi tarixchilarimiz Qo‘qon xonligi tarixi yangi konsepsiyasini yaratishga kirishganliklaridan darak beradi.

## Nazorat uchun savollar:

1. Shayboniyxon harbiy yurishlari haqida nimalar bilasiz
2. Shayboniyxon qanday vafot etdi?
3. Shayboniyxon vafotidan so‘ng sulola vakillarining hayoti qanday kechdi?
4. Ashtarxoniylar davrida Buxoro xonligi haqida gapiring?
5. Nima uchun O‘rta Osiyo hududi xonliklarga bo‘linib ketdi?
6. Xiva xonligi tashkil topishi qanday kechdi?
7. XVIII-XIX asrlarda Qo‘qon xonligining siyosiy, madaniy hayoti qanday edi?

## Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1. Xofiz Tanish Buxoriy. Abdullanoma. 1-11 jild. T.: Sharq, 1999-2000.
2. Eshov B.J. O‘zbekiston davlatchiligi tarixi. (o‘quv qo‘llanma). - Toshkent: Ma’rifat, 2009.

3. Zamonov A. Buxoro xonligi xarbiy boshqaruv tizimi (Shayboniylar sulolasi davrida). -Toshkent: Bayoz, 2017.
4. Muxammadiyor ibn Arab Katag‘an. Musaxxir al-bilod. / Fors tilidan tarjima, izoxlar mualliflari I. Bekjonov, D. Sangirova. Toshkent: Yangi asr avlodi. 2009.
5. Axmedov B.A. O‘zbekiston tarixi manbalari. - T.: O‘kituvchi, 2001.
6. Axmad ibn Maxmud Buxoriy. Tarixi Mullozoda / So‘z boshi, fors tilidan tarjima, izoxlar mualliflari Sh.Voxidov, B.Aminov. - T.: Yangi asr avlodi. 2009.
7. Abulg‘ozi. Shajarai turk. T.: Cho‘lpon, 1990. EshovB.J., OdilovA.A. O‘zbekistontarixi. I - II- jild. - Toshkent: Yangiasravlodi, 2014.
8. IstoriyaO‘zbekistana. - T.: Fan, 2012.
9. O‘zbekistonningyangitarixi. 1, 2, 3-kitoblar. T.: Shark, 2000.
10. Sagdullayev va boshkalar. O‘zbekiston tarixi: davlat va jamiyat tarakkiyoti. T., 2000.
11. Leonid Levitin. Uzbekistan on a historical Threashold. England. Cambridge 2008

# AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

## 1-amaliy mashg‘ulot:Qadimgi Baqtriya kaviyligi haqida ayrim mulohazalar, ilk yozuvlar  tarixi va ularning o‘rganilishi(2 soat)

## Reja:

1. Qadimgi Baqtriya kaviyligi haqida ayrim mulohazalar.
2. Ilk yozuvlar tarixi va ularning o‘rganilishi.

| *Pedagogik vazifalar:* | *O‘quv faoliyatining natijalari:* |
|---|---|
| Mavzu bo‘yicha bilimlarni,tizimlashtirish,mustahkamlash;<br>Darslik bilan ishlash | Tinglovchi:<br>-Mavzudagi asosiy tushunchalar, markazlashgan davlat mazmun-mohiyatini yorita oladi;<br>-Siyosiy,iqtsodiy-ijtimoiy,madaniy sohalardagi islohotlarni |

| | |
|---|---|
| ko‘nik-malarini hosil qilish;<br>Axborotlarni tahlil qilish va o‘z fikrini ifodalash ko‘nikma-larini rivojlantirish. | tizimlay oladi va ular orasidagi bog‘liqlik va o‘ziga xoslikni farqlay oladi;<br>-Qadimgi Baqtriya davlatining siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bilish. Ilk yozuvlar haqida tushunchaga ega bo‘lish. |
| **O‘qitish uslubi va texnikasi:** | Munozarali seminar,suhbat,klaster, jadval |
| **O‘qitish vositalari:** | Tarqatma materiallar, marker, doska |
| **O‘qitish shakli** | Jamoa, guruhlarda ishlash. |
| **O‘qitish shart-sharoitlari** | Proyektor,kompyuter bilan jihozlangan va guruhlarda ishlashga mo‘ljallangan auditoriya. |

1-ilova. Qadimgi Baqtriya haqida bilgan ma’lumotlaringizni klaster usulida ifoda eting.




2. Ilk yozuvlar ular haqida ma’lumotlvrni ushbu jadvalga mos ravishda joylashtiring




3. Internet va ilmiy adabiyotlardan foydalanib, yozuvlar va ularning shakllari haqida munozara qilish.

## 3-mavzu.Markaziy Osiyoga Arab xalifaligi bosqini (2 soat)

### Reja:

1.Arab xalifaligi tarixiga oid yangi tadqiqotlar

2.Markaziy Osiyoda arab xalifaligi masalasi

| ***Pedagogik vazifalar:*** | ***O'quv faoliyatining natijalari:*** |
|---|---|
| Mavzu bo'yicha bilimlarni,tizimlashtirish,mustahkamlash;<br>Darslik bilan ishlash ko'nik-malarini hosil qilish;<br>Axborotlarni tahlil qilish va o'z fikrini ifodalash | Tinglovchi:<br>-Mavzudagi asosiy tushunchalar, markazlashgan davlat mazmun-mohiyatini yorita oladi;<br>-Siyosiy,iqtsodiy-ijtimoiy,madaniy sohalardagi islohotlarni tizimlay oladi va ular orasidagi bog'liqlik va o'ziga xoslikni farqlay oladi;<br>-Arab xalifaligi haqida tushuncha olish va arablar tomonidan Markaziy Osiyoni egallanishi haqida bilimlarga ega bo'ladi. |

| | |
|---|---|
| ko‘nikma-larini rivojlantirish. | |
| **O‘qitish uslubi va texnikasi:** | Munozarali seminar,suhbat,aqliy hujum, klaster |
| **O‘qitish vositalari:** | Tarqatma materiallar, marker, doska |
| **O‘qitish shakli** | Jamoa, guruhlarda ishlash. |
| **O‘qitish shart-sharoitlari** | Proyektor,kompyuter bilan jihozlangan va guruhlarda ishlashga mo‘ljallangan auditoriya. |

1-ilova. Klaster usuli. **Arab xalifaligi hududini kengayishi**

**Klasterni tuzish qoidasi:**

| |
|---|
| 1. Aqlga kelgan barcha fikrni yozish.<br>2. G‘oyaning sifatini muhokama etmaslik.<br>3. Orfografik va boshqa jihatlarga e’tibor bermaslik.<br>4. Ajratilgan vaqt tugamaguncha yozuvni to‘xtatmaslik.<br>5. G‘oyalar soni va o‘zaro aloqadorligiga e’tibor berish. |



2-ilova. Qutayba ibn Muslimning yurishlarini xronologik ketma-ketlikda joylashtiring




3-ilova. Arab xalifaligiga qarshi qo‘zg‘alonlarni taqqoslab jadvalni to‘ldiring.

**KONSEPTUAL JADVAL**

| | TAQQOSLANG |
|---|---|
| | |

| *Pedagogik vazifalar:* | *O‘quv faoliyatining natijalari:* |
|---|---|
| | |

| | VAQTI | TARQALGAN HUDUDLAR | MAG‘LUBIYAT SABABLARI |
|---|---|---|---|
| Divashtich qo‘zg‘aloni | | | |
| Muqanna qo‘zg‘aloni | | | |
| Rofe ibn Lays qo‘zg‘aloni | | | |

## 4- mavzu. IX-XII asrlar O‘zbekiston hududida sulolalar boshqaruvi (2 soat)

### Reja

1. Siyosiy tarixga oid tadqiqotlar
2. Iqtisodiy va madaniy tarix masalalaring yoritilishi.

| | |
|---|---|
| Mavzu bo‘yicha bilimlarni,tizimlashtirish,mustahkamlash;<br>Darslik bilan ishlash ko‘nik-malarini hosil qilish;<br>Axborotlarni tahlil qilish va o‘z fikrini ifodalash ko‘nikma-larini rivojlantirish. | Tinglovchi:<br>-Mavzudagi asosiy tushunchalar, markazlashgan davlat mazmun-mohiyatini yorita oladi;<br>-Siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy sohalardagi islohotlarni tizimlay oladi va ular orasidagi bog‘liqlik va o‘ziga xoslikni farqlay oladi;<br>-IX-XIIasrlardagi o‘zbek davlatchiligining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayoti haqida bilimlarga ega bo‘ladi. |
| **O‘qitish uslubi va texnikasi:** | Munozarali seminar,suhbat,Venn diagrammasi, Konseptual jadval |
| **O‘qitish vositalari:** | Tarqatma materiallar, marker, doska |
| **O‘qitish shakli** | Jamoa, guruhlarda ishlash. |
| **O‘qitish shart-sharoitlari** | Proyektor,kompyuter bilan jihozlangan va guruhlarda ishlashga mo‘ljallangan auditoriya. |

1-ilova “Venn” diagrammasi. Somoniylar va Qoraxoniylar davlatida davlat boshqaruvi va ijtimoiy hayot.




Bu usulda uchta diagramma mavjud bo‘lib, ular yordamida o‘rganilayotgan muammolarning bir-biriga o‘xshash va farqli tomonlari ajratiladi. Talabalar birinchi diagramma ichiga qo‘yilgan birinchi muammoning o‘ziga xos tomonlarini yoritib beradilar. O‘rtadagi diagrammada har ikki muammoning biri-biriga o‘xshash va farqli tomonlari ko‘rsatiladi. Uchinchi diagrammada esa qo‘yilgan ikkinchi muammoning o‘ziga xosliklari yoritiladi. Metodika yordamida talabalarda umumlashtirish, taqqoslash

operatsiyalari rivojlantirilади.

2-ilova**. «Baliq skeleti» texnikasi. Nima uchun Somoniylar davlati inqirozga uchradi.**

Ushbu texnologiya katta muammolarning yechimini topishga qaratilgan. Yuqori qismida muammolar turi yozilsa, pastki qismida esa misollar bilan izohlanadi.




**3-ilova. Konseptual jadval.**

| | TAQQOSLANG | | |
|---|---|---|---|
| | ICHKI SIYOSAT | TASHQI SIYOSAT | MAYDONI |
| G'aznaviylar davlati | | | |
| Saljuqiylar davlati | | | |
| Xorazmshohlar davlati | | | |

**4-ilova. Klaster usuli. Xorzmshohlar davlatining paydo bo‘lishi**




**Klasterni tuzish qoidasi:**

| |
|---|
| 1. Aqlga kelgan barcha fikrni yozish.<br>2. G‘oyaning sifatini muhokama etmaslik.<br>3. Orfografik va boshqa jihatlarga e’tibor bermaslik.<br>4. Ajratilgan vaqt tugamaguncha yozuvni to‘xtatmaslik.<br>5. G‘oyalar soni va o‘zaro aloqadorligiga e’tibor berish. |

## 5 – mavzu. O‘zbekistonning sovet davri tarixining tarixshunosligidagi yangicha yondoshuv va tahlillar (2 soat)

**Reja**

3. Chor Rossiyasi mustamlakachiligi davriga oid yangi tadqiqotlar
4. Sovet davri tarixining tarixshunosligi.

**1-ilova. “T” sxema.**

**Qoida:**

– Bitta konsepsiya (ma’lumot)ning jihati o‘zaro solishtiriladi. Tanqidiy mushohada rivojlantiriladi.

– Ajratilgan vaqt oralig‘ida, uning chap tomoniga sabablar yoziladi, o‘ng tomoniga

| ***Pedagogik vazifalar:*** | ***O‘quv faoliyatining natijalari:*** |
|---|---|
| Mavzu bo‘yicha bilimlarni,tizimlashtirish,mustahkamlash;<br>Darslik bilan ishlash ko‘nik-malarini hosil qilish;<br>Axborotlarni tahlil qilish va o‘z fikrini ifodalash ko‘nikma-larini rivojlantirish. | Tinglovchi:<br>-Mavzudagi asosiy tushunchalar, markazlashgan davlat mazmun-mohiyatini yorita oladi;<br>-Siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy sohalardagi islohotlarni tizimlay oladi va ular orasidagi bog‘liqlik va o‘ziga xoslikni farqlay oladi;<br>-Chor Rossiyasi mustamlakachiligi va Sovet davrida O‘zbekiston haqida bilimlarga ega bo‘ladi. |
| **O‘qitish uslubi va texnikasi:** | Munozarali seminar,suhbat,“T sxema”, “Venn” diagrammasi, Klaster usuli |
| **O‘qitish vositalari:** | Tarqatma materiallar, marker, doska |
| **O‘qitish shakli** | Jamoa, guruhlarda ishlash. |
| **O‘qitish shart-sharoitlari** | Proyektor,kompyuter bilan jihozlangan va guruhlarda ishlashga mo‘ljallangan auditoriya. |

uni inkor etuvchi dalillar keltiriladi.

– Jadval guruhda to‘ldiriladi va taqqoslanadi.

– Barcha o‘quv guruhi yagona T tuzadi .

| | | |
|---|---|---|
| Tarafdor | Chor rassiyasining O’rta Osiyoni bosib olishi ilm fan taraqqiyotini tezlashtirdi | Qarshi |

2-ilova. “Venn” diagrammasi. Dukchi Eshon va Jizzax qo‘zg‘aloni




Bu usulda uchta diagramma mavjud bo‘lib, ular yordamida o‘rganilayotgan muammolarning bir-biriga o‘xshash va farqli tomonlari ajratiladi. Tinglovchilar birinchi diagramma ichiga qo‘yilgan birinchi muammoning o‘ziga xos tomonlarini yoritib beradilar. O‘rtadagi diagrammada har ikki muammoning biri-biriga o‘xshash va farqli tomonlari ko‘rsatiladi. Uchinchi diagrammada esa qo‘yilgan ikkinchi muammoning o‘ziga xosliklari yoritiladi. Metodika yordamida talabalarda umumlashtirish, taqqoslash operatsiyalari rivojlantiriladi.

3-ilova. Nima uchun? texnologiyasi. Bunda dastlabki qo‘yilgan savolga javob topiladi, keyingi aynan topilgan savolga nisbatan qo‘yiladi.



4-ilova. Klaster usuli.

**Klasterni tuzish qoidasi:**

1. Aqlga kelgan barcha fikrni yozish.
2. G‘oyaning sifatini muhokama etmaslik.
3. Orfografik va boshqa jihatlarga e’tibor bermaslik.
4. Ajratilgan vaqt tugamaguncha yozuvni to‘xtatmaslik.
5. G‘oyalar soni va o‘zaro aloqadorligiga e’tibor berish.




| *Pedagogik vazifalar:* | *O‘quv faoliyatining natijalari:* |
|---|---|
| Mavzu bo‘yicha bilimlarni,tizimlashtirish,mustahkamlash; Darslik bilan ishlash ko‘nik-malarini hosil qilish; Axborotlarni tahlil qilish va o‘z fikrini ifodalash ko‘nikma-larini rivojlantirish. | Tinglovchi: -Mavzudagi asosiy tushunchalar, markazlashgan davlat mazmun-mohiyatini yorita oladi; -Siyosiy, iqtisodiy-ijtimoiy, madaniy sohalardagi islohotlarni tizimlay oladi va ular orasidagi bog‘liqlik va o‘ziga xoslikni farqlay oladi; -Mustaqillikka erishish yo‘li va iqtisodiy hamda madaniy taraqqiyot haqida bilimlarga ega bo‘ladi. |
| **O‘qitish uslubi va texnikasi:** | Munozarali seminar,suhbat,“Piramida”, “Venn” diagrammasi, Klaster usuli |
| **O‘qitish vositalari:** | Tarqatma materiallar, marker, doska |
| **O‘qitish shakli** | Jamoa, guruhlarda ishlash. |
| **O‘qitish shart-sharoitlari** | Proyektor,kompyuter bilan jihozlangan va guruhlarda ishlashga mo‘ljallangan auditoriya. |

## 6 – mavzu. Mustaqilik yillari tarixchilar nigohida (2 soat)

### Reja

3. Mustaqillikning qo‘lga kiritilishi tarixining o‘rganilishi

Iqtisodiy va madaniy taraqqiyot masalalarining yoritilishi

1-ilova. **“Piramida”** texnologiyasi. Bunda qo‘yilgan savolga tubdan javob beriladi va yakunda savol mantiqan tugallanadi. O‘zbekiston mustaqilik uchun qanday yo‘llarni bosib o‘tdi.




2-ilova. Konseptual jadval. Tashqi diplomatik aloqalar.

| | TAQQOSLANG | | |
|---|---|---|---|
| | ALOQA O‘RNATILDI | HAMKORLIK YO‘NALISHLAR | ISTIQBOLLI YO‘NALISHLAR |
| Turkiya | | | |
| AQSH | | | |
| Xitoy | | | |
| Germaniya | | | |

3. “Klaster” usuli. O‘zbekistonda ilm-fan.

**Klasterni tuzish qoidasi:**

| |
|---|
| 1. Aqlga kelgan barcha fikrni yozish.<br>2. G‘oyaning sifatini muhokama etmaslik.<br>3. Orfografik va boshqa jihatlarga e’tibor bermaslik.<br>4. Ajratilgan vaqt tugamaguncha yozuvni to‘xtatmaslik.<br>5. G‘oyalar soni va o‘zaro aloqadorligiga e’tibor berish. |




4-ilova. 1-ilova “Venn” diagrammasi. O‘zbekiston iqtisodiyoti.




Bu usulda uchta diagramma mavjud bo‘lib, ular yordamida o‘rganilayotgan muammolarning bir-biriga o‘xshash va farqli tomonlari ajratiladi. Tinglovchilar birinchi diagramma ichiga qo‘yilgan birinchi muammoning o‘ziga xos tomonlarini yoritib beradilar. O‘rtadagi diagrammada har ikki muammoning biri-biriga o‘xshash va farqli tomonlari ko‘rsatiladi. Uchinchi diagrammada esa qo‘yilgan ikkinchi muammoning o‘ziga xosliklari yoritiladi. Metodika yordamida talabalarda umumlashtirish, taqqoslash operatsiyalari rivojlantiriladi.

## MAVZULARGA OID SAVOL- JAVOBLAR

| SAVOL | JAVOB |
|---|---|
| Fuqarolarning huquq va erkinliklarini buzadigan xatti-harakatlar va qarorlar ustidan sudga shikoyat qilish to‘g‘risida”gi Qonun qabul qilingan sanani toping. | 1995-yil 30-avgust |
| Dastlabki davrda O‘zbekiston Respublikasi sud tizimiga sudyalik lavozimiga necha yilga saylangan? | 10 |
| Ijtimoiy sub’yektlarning xatti-harakati va ularning hayot faoliyat sharoitlarini yaratadigan yoki | ijtimoiy faollik. |

| | |
|---|---|
| o‘zgartiradigan hamda ularning o‘zliklarini ham rivojlantiradigan faollik qanday faollik deb yuritiladi? | |
| Insoniyat sivilizatsiyasining shakllanishi to‘g‘risidagi amerikalik tarixchi L.G.Morgan tomonidan ishlab chiqilgan paradigma qaysi javobda to‘gri ko‘rsatilgan? | Yovvoyilik-varvarlik-sivilizatsiya |
| Konsepsiya talablaridan kelib chiqib raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning muhim sharti nima? | Oliy ta’limda korrupsiyani to‘xtatish |
| Qachondan boshlab, o‘lim jazosi bekor qilindi, Fuqarolarni qamoqqa olish sanksiyasi berish huquqi prokuraturadan sudlarga o‘tkazildi? | 2008-yil 1-yanvardan |
| Ma’lumki, 1989-yil 17 avgustda O‘zbekiston hukumatining yig‘ilishida aholiga tomorqa va shaxsiy uchastkalar ajratish masalasi muhokama qilindi va qishloqda yashovchi har bir kishiga o‘rtacha necha sotixdan yer ajratiladigan bo‘ldi va tomorqa maydonlari necha barobar oshdi? | 25 sotix, 4,5 barobar |
| O‘zbekistonda 1997-yildan qaysi qiymatdagi banknotlar chiqarila boshlangan? | 200 so‘mlik |
| O‘zbekistonda qachondan boshlab, 5000 so‘mlik banknotlar chiqarila | 2013-yildan |

| | |
|---|---|
| boshlangan? | |
| O‘zbekistonda Milliy tiklanish partiyasi qachon tuzildi? | 1995-YIL |
| O‘zbekistonning bozor munosabatlariga o‘tishi bilan bog‘liq 5 tamoyil qaysi variantda xato berilgan? | Bozor iqtisodiyotiga «shok terapiyasi» yo‘li bilan o‘tish |

# V. KEYCLAR BANKI

“Keys-stadi” - inglizcha so‘z bo‘lib, (―case‖ – aniq vaziyat, hodisa, ―stadi‖ – o‘rganmoq, tahlil qilmoq) aniq vaziyatlarni o‘rganish, tahlil qilish asosida o‘qitishni amalga oshirishga qaratilgan metod hisoblanadi. Mazkur metod dastlab 1921 yil Garvard universitetida amaliy vaziyatlardan iqtisodiy boshqaruv fanlarini o‘rganishda foydalanish tartibida qo‘llanilgan. Keysda ochiq axborotlardan èki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Keys harakatlari o‘z ichiga quyidagilarni qamrab oladi: Kim (Who), Qachon (When), Qayerda (Where), Nima uchun (Why), Qanday/ Qanaqa (How), Nima-natija (What).

Keysda bayon qilingan vaziyatni o‘rganib va tahlil qilib, o‘quvchilar o‘zining kelgusidagi kasbiy faoliyatida o‘xshash vaziyatlarda qo‘llashi mumkin bo‘lgan tayyor yechimni oladi.

Keysda bayon qilingan vaziyatlar (kasbiy), amaliy mashg‘ulotlarda yechiladigan vaziyatli masalalardan tubdan farq qilinadi. Agar vaziyatli masalalarda har doim shart (nima berilagan) va talab (nimani topish kerak) berilgan bo‘lsa, keysda, qoidaga ko‘ra, bunday parametrlar mavjud emas.

O‘quvchiga taqdim etilgan ixtiyoriy keysda:

keysning belgilanishi va topshiriq/savollar aniq ifodalangan bo‘lishi kerak;

bayon qilingan muammoli vaziyatni yechish uchun kerakli va yetarli xajmda ma’lumotlarni o‘z ichiga olishi kerak

keysni yechish uchun uslubiy ko‘rsatmalar bo‘lishi kerak.

Keys–stadi (ingl.sase– to‘plam, aniq vaziyat, stadi-o‘qitish)–amaliy o‘qitish vaziyatlarmetodi.

Keys-stadi - o‘qitish, axborotlar, kommunikatsiya va boshqaruvning qo‘yilgan ta’lim maqsadini amalga oshirish va keys-stadida bayon qilingan amaliy muammoli vaziyatni hal qilish jarayonida prognoz qilinadigan o‘quv natijalariga kafolatli yetishishni vositali tarzda ta’minlaydigan bir tartibga keltirilgan optimal usullari va vositalari majmuidan iborat bo‘lgan o‘qitish texnologiyasidir.

Ushbu metod o‘quvchilarni quyidagilarga undaydi:

- muammoni shakllantirishga;
- amaliy vaziyatni tahlil qilish va baholashga;
- muammo yechimini eng maqbul variantini tanlashga.

O‘quv mashg‘ulotning o‘qitish texnologiyasini tanlashni ikki asosiy dalil belgilaydi:

1. Keysning hajmi (qisqa, o‘rtacha miqdordagi, katta)
2. O‘quv topshirig‘ini taqdim etish usuli:

savolli ( savollar keysdan keyin keltiriladi)

topshiriqli (topshiriq keys kirish qismining oxirida keltiriladi)

**1-keys. Tarix fanida hajm, uzunlik va og‘irlik o‘lchov birliklarini taqoslashda keys stadi texnologiyasidan foydalanishning mohiyati nimada?**

| Muammo (asosiy va kichik muammolar) | Yechim | Natija |
|---|---|---|
| Hajm, uzunlik va og‘irlik o‘lchov birliklarini taqoslashda keys stadi texnologiyasidan foydalanishning farqi nimada? | Taqoslashda o‘quvchi bitta yo‘nalishda yechimini topadi. Keys stadi texnologiyasi bir nechta yechim yo‘llari aniqlanib optimal yechim tanlanadi. | Keys stadi texnologiyasidan foydalanish maqsadga muvofiq. |

**2-keys. Tarix fani darslarida an’anaviy va noananaviy ta’lim texnolgiyalari afzallik èki kamchiliklari. Siz fikringiz?**

| Muammo (asosiy va kichik muammolar) | Yechim | Natija |
|---|---|---|
| Ta’lim sifat va samaradorligini oshirishda ananaviy va noananaviy ta’lim | An’anaviy ta’lim texnologiyasi - muayyan muddatga mo‘ljallangan, ta’lim jaraèni ko‘proq | Noan’anaviy ta’lim texnologiyasi - muayyan muddatga mo‘ljallangan, ta’lim jaraèni markazida |

| | | |
|---|---|---|
| texnolgiyalari afzallik èki kamchiliklari | o‘qituvchi shaxsiga qaratilgan bo‘lib, o‘qitishning an’anaviy shakli, metodi va ta’lim vositalarining majmuidan foydalanib ta’lim-tarbiya maqsadiga erishishdir. Noan’anaviy ta’li m texnologiyasi - muayyan muddatga mo‘ljallangan, ta’lim jaraèni markazida o‘quvchi shaxsi bo‘lib, o‘qitishning zamonaviy shakli, faol o‘qitish metodlari va zamonaviy didaktik vositalarning majmuini ta’lim-tarbiya ishidan ko‘zlangan maqsad va kafolatlangan natijaga erishishga yo‘naltirishdir. | o‘quvchi shaxsi bo‘lib, o‘qitishning zamonaviy shakli, faol o‘qitish metodlari va zamonaviy didaktik vositalarning majmuini ta’limtarbiya ishidan ko‘zlangan maqsad va kafolatlangan natijaga erishishga yo‘naltirishdir. |

3-keys topshirig‘i: Novatsiya va innovatsiya o‘rtasidagi farqlarni toping.

Keys topshirig‘ini bajarish uchun ish qog‘ozi:

| **ASOSIY FARQLAR** | |
|---|---|
| **NOVATSIYA** | **INNOVATSIYA** |
| | |

O‘qituvchining javobi:

| **ASOSIY FARQLAR** | |
|---|---|
| **NOVATSIYA** | **INNOVATSIYA** |
| 1) amaldagi nazariya doirasida qo‘llaniladi; | 1) tizimli, yaxlit va davomli |

| | |
|---|---|
| 2) ko‘lam va vaqt bo‘yicha chegaralanadi;<br>3) metodlar yangilanadi;<br>4) natija avvalgi tizimni takomillashtiradi | bo‘ladi;<br>2) amaliètda yangi faoliyat tizimini loyihalaydi;<br>3) subyektlarning faoliyati to‘la yangilanadi;<br>4) yangi texnologiyalar yaratiladi;<br>5) faoliyatda yangi sifat natijalariga erishiladi; 6) amaliètning o‘zi ham yangilanadi |

VI.GLOSSARIY

| Termin | O‘zbek tilidagi sharhi | Ingliz tilidagi sharhi |
|---|---|---|
| **Antropologiya** | (yunoncha “antropos” – odam, “logos” –fan) – qadimgi odamlarning kelib chiqishi,tashqi ko‘rinishi va rivojlanish bosqichlarini o‘rganuvchi fan. | (Greek "anthropos" - man, "logos" - science) - a science that studies the origin, appearance and stages of development of ancient people. |
| **Arxeologiya** | (yunoncha “archaios” – qadimgi, “logos”– fan) – insoniyat o‘tmishi tarixini moddiy madaniyat yodgorliklari (mehnat qurollari, asbob-anjomlari,qurol-yarog‘lari,turar joylari,qurilishlari,qabrlarini) qazishmalar orqali o‘rganuvchi fan. | (Greek "archaios" - ancient, "logos" - science) - a science that studies the history of human history through the excavation of material cultural monuments (tools, tools, weapons, dwellings, buildings, tombs) |
| **Dialektika** | (yunoncha “dialektike”–bahs yuritish san’ati)– tabiat va jamiyat taraqqiyoti qonuniyatlarining o‘zaro aloqadorligini o‘rganuvchi ta’limot.Dialektika olam yagona va yaxlit, unda sodir bo‘ladigan hodisalar,voqealar umumiy va o‘zaro bog‘lanishda,uzluksiz harakatda,ziddiyatli taraqqiyotda bo‘ladi deb hisoblaydi. | (Greek "dialectics" - the art of debate) - a doctrine that studies the relationship between the laws of nature and the development of society. |
| **Etimologiya** | (yunoncha “yetimon” –haqiqat, chin,“logos” – fan) – biron bir so‘z yoki atamaning kelib chiqishi, uning boshqa so‘zlar bilan o‘zaro yaqinlik aloqalarini o‘rganuvchi fan sohasi. | (Greek "etimon" - truth, chin, "logos" - science) - a branch of science that studies the origin of any word or term, its close relationship with other words. |
| **Etnografiya** | (yunoncha “yetnos” – xalq, “grapho” – yozaman) – tarixning yordamchi fan sohasi bo‘lib, xalqlarning urf-odatlari, xo‘jaligi va madaniyatini; xalqlar, etnik birlikning turli tiplari,ularning kelib chiqishi (yetnogenezi),turmushi,tarixiy va madaniy munosabatlarini organadigan ijtimoiy fan. Etnografiya fani asosiy e’tiborni hozirgi xalqlarga qaratgan holda o‘tmishda mavjud bo‘lgan barcha etnik birliklarni ilmiy o‘rganishni ham qamrab oladi. | (Greek "ethnos" - people, "grapho" - I write) - is an auxiliary field of history, the customs, economy and culture of peoples; social science, which organizes peoples, different types of ethnic unity, their origin (ethnogenesis), life, historical and cultural relations. The science of ethnography also |

| | | |
|---|---|---|
| | | includes the scientific study of all ethnic units that existed in the past, with a focus on the present peoples. |
